



Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universiteti huzuridagi
Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning
malakasini oshirish tarmoq markazi

JADID PEDAGOGIKASI

o'quv - uslubiy majmua

O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi tinglovchilari uchun



2026



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI**

JADID PEDAGOGIKASI

moduli uchun

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi: O‘zbek tili va adabiyoti



Toshkent – 2026

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

N.A. JABBOROV – filologiya fanlari
doktori, professor

Taqrizchilar:

U. Dolimov - pedagogika fanlari
doktori, professor

Q. Pardayev - filologiya fanlari
doktori, professor

Nejati Demir – filologiya fanlari
doktori, professor Turkiya Istanbul
universiteti

*Mazkur o'quv-uslubiy majmua **Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining** qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2025-yil “29”dekabrdagi 6-sonli bayonnoma).*

MUNDARIJA

T/r	Bo'limlar	Sahifa
I.	ISHCHI O'QUV DASTUR	5
II.	MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI	16
III.	NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI	29
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI	76
V.	KEYSLAR BANKI	121
VI.	GLOSSARIY	124
VII.	ADABIYOTLAR RO'YXATI	138
VIII.	TAQRIZ	143



I. ISHCHI O‘QUV DASTUR

KIRISH

Ushbu ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-son qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb

mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Bugungi kunda milliy ta'lim tizimini isloh etish, XX asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan ma'rifatparvar jadidlarning bu boradagi faoliyatini o'rganib, soha rivojiga tatbiq etish har qachongidan ham dolzarbdir. Til va adabiyot o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun oliy o'quv yurtlarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirish o'quv dasturlariga jadid pedagogikasi modulini kiritish taqozo etiladi.

Ta'lim sohasi kadrlarining intellektual-ma'rifiy salohiyatini va kasb malakasini oshirish, yangicha tafakkur sohibi bo'lgan, bugungi zamon talablariga javob beradigan mutaxassis etib tayyorlash hayotiy ehtiyojdir. Mamlakatimizda ta'lim tizimini xalqaro standartlar darajasiga yuksaltirish ishiga alohida e'tibor qaratilayotgani zamirida ham ana shu maqsad turibdi. Bu yo'lda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, mutaxassis kadrlarning kasb mahoratini muntazam ravishda oshirish, sohaga yangi pedagogik texnologiyalarni muttasil joriy etish zaruratini kun tartibiga qo'yimoqda. Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini davlat talablari asosida takomillashtirib borish shu jihatdan ham dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

“Jadid pedagogikasi” moduli milliy ta'lim-tarbiya sohasida XX asr avvalida erishilgan yutuqlarni kompleks o'rganish, yangi usul maktablari uchun yaratilgan darsliklarni tahlil etish va ma'rifatparvar jadidlarning ilg'or tajribalaridan bugungi kun uchun zarur xulosalarni chiqarishga xizmat qiladi. Ushbu modul ta'lim-tarbiya tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishda o'qitishning milliy va xalqaro tajribasini egallash, Vatan va millat manfaatini muqaddas bilish, ilmiyintellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash masalalarini ko'zda tutadi. Mazkur modul ta'lim-tarbiya tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishda jadid pedagogikasining ilmiy-nazariy va metodologik masalalari bilan tinglovchilarni tanishtirishni maqsad qilib qo'yadi.

Milliy pedagogika tarixiga xos eng muhim ilmiy-nazariy tamoyillarni ta'limtarbiya tizimiga tatbiq etishga erishish mazkur kursni o'qitish zaruratini taqozo qiladi.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Jadid pedagogikasi” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarining ma'rifatparvar jadidlarning ta'lim tizimi hamda ona tili va adabiyotini o'qitish metodikasi sohasidagi faoliyati, ilmiy-metodik merosi, milliy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha amalga oshirgan ishlari bo'yicha bilimlarini kengaytirish, shuningdek, ushbu fan doirasida ularda ko'nikma va malaka hosil qilishdan iborat.

- jadid pedagogikasining paydo bo'lishi va shakllanishidagi ijtimoiy-tarixiy, ma'rifiy-didaktik hamda metodik-texnologik omillarni tushuntirish;
- tinglovchilarning jadid pedagogikasi takomil bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlariga doir bilimlarini oshirish;
- “usuli jadid” va “usuli qadim” o'rtasidagi farq, jadid maktablari rivoji tendensiyalaridan xabardor qilish;
- jadidlarning oliy ta'limni yo'lga qo'yish borasidagi faoliyati ko'lami, natijalari bilan tanishtirish;
- jadid pedagogikasi yetakchi namoyandalarining ta'lim tizimini isloh qilishga doir ishlari mohiyatini anglatish;
- ona tili va adabiyot o'qitishda yangi usul va pedagogik texnologiyalar qo'llanishi xususiyatlarini tahlil etish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Jadid pedagogikasi” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchi:

- ta'lim islohi bilan bog'liq g'oyalarning Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy tanazzuli bilan bog'liq ekanini;
- “usuli qadim” va rus-tuzem maktablariga nisbatan tanqidiy qarashlarning

shakllanishini;

- turkistonda jadid maktablarining takomili uch bosqichda – shakllanishi, taraqqiyoti va tugatilishi tarzida kechganini;
- jadidlarning zamonaviy milliy oliy ta'lim tizimi haqidagi g'oyalarni xususiyatlarini **bilishi** kerak.
- ta'lim islohi va millat ma'rifati masalalarining uyg'unligini ochish;
- jadid maktablari rivojida xayriya jamiyatlarining o'rnini aniqlash;
- “usuli jadid” va “usuli qadim” kurashining metodika rivojiga ta'sirini tahlil qilish;
- jadid maktablari rivojining hududiy o'ziga xosligini yoritib berish;
- zamon talablari darajasidagi oliy ma'lumotli milliy kadrlar tayyorlash borasidagi amaliy harakatlarni baholash;
- Turkiston yoshlarning rivojlangan xorijiy mamlakatlarga yuborilish jarayonlarini tahlil qilish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.
- Qo'qon, Toshkent, Buxoro va Xivada jadid maktablari taraqqiyotini tahlil qilish;
- Munavvarqori boshchiligida Turkiston musulmon xalq dorilfununining tashkil etilish sabablarini ochish;
- dorilfunun va uning Samarqand sho'basi faoliyatining yo'lga qo'yilishini tahlil etish va baholash **malakalariga** ega bo'lishi zarur.
- “usuli qadim” va rus-tuzem maktablariga nisbatan tanqidiy qarashlarning shakllanishidagi sabablarni aniqlash;
- ta'lim islohi bilan bog'liq g'oyalarning Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy hayotiga ta'sirini baholash;
- Turkistonda jadid maktablarining takomili, shakllanishi, taraqqiyoti va tugatilishini ochish;
- Munavvarqori boshchiligida Turkiston musulmon xalq dorilfununining tashkil etilishini tahlil qilish;
- ma'rifatparvar jadidlar zamonaviy oliy ta'limga doir faoliyatining tugatilishi

sabablarini tahlil qilish va baholash **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Jadid pedagogikasi” moduli ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o’qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborotkommunikatsiya texnologiyalari qo’llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan foydalanish;
- o’tkaziladigan amaliy mashg’ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so’rovlar, test so’rovlari, fikriy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo’llash nazarda tutiladi.

Modulning o’quv rejadagi boshqa modullar bilan bog’liqligi va uzviyligi

“Jadid pedagogikasi” moduli mazmuni o’quv rejadagi “O’zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish masalalari” hamda “Filologik ta’limni yangilash metodikasi” o’quv modullari bilan uzviy bog’langan holda pedagoglarning ona tili va adabiyot fanlarini o’qitishning nazariy-metodologik asoslariga doir kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o’rni

Modulni o’zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim va tarbiya jarayonlarini milliy pedagogika tarixi va metodlariga xos tamoyillarini o’rganish, ularni tahlil etish, amalda qo’llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo’ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Umumiy o'quv yuklamasi Soatlari			
		Jami	Auditoriya o'quv yuklamasi		
			Nazariy	Amaliy	Ko'chma mashg'ulot
1.	Jadid pedagogikasi shakllanishining ijtimoiy-tarixiy, ma'rifiy-didaktik hamda metodik-texnologik omillari	2	2		
2.	Jadid maktablarining takomil bosqichlari va tugatilish	2	2		
3.	Jadidlar – zamonaviy milliy oliy ta'lim g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi	2	2		
4.	“Usuli jadid” va “usuli qadim” o'rtasidagi kurash va uning milliy metodika rivojiga ta'siri	2		2	
5.	Usuli jadid maktablari rivojining hududiy o'ziga xosligi	2		2	
6.	Ona tili va adabiyot o'qitishda yangi usul va pedagogik texnologiyalarning qo'llanishi	2		2	
7.	Jadid pedagogikasining yetakchi namoyandalari va ularning ta'lim islohiga doir faoliyati	2		2	
Jami		14	6	8	

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Jadid pedagogikasi shakllanishining ijtimoiy-tarixiy, ma’rifiy-didaktik hamda metodik-texnologik omillari (2 soat)

Ta’lim islohi bilan bog‘liq g‘oyalarning Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy tanazzuli bilan bog‘liq ekani. “usuli qadim” va rus-tuzem maktablariga nisbatan tanqidiy qarashlarning shakllanishi; ta’lim islohi va millat ma’rifati masalalarining uyg‘unligi; o‘qitish tizimi va metodikasini yangilash zaruratining kun tartibiga qo‘yilishi.

2-mavzu. Jadid maktablarining takomil bosqichlari va tugatilishi (2 soat)

Turkistonda jadid maktablarining takomili uch bosqichda – shakllanishi, taraqqiyoti va tugatilishi tarzida kechgani; jadid maktablari rivojida xayriya jamiyatlarining o‘rni; “usuli jadid” va “usuli qadim” kurashining metodika rivojiga ta’siri; jadid maktablari rivojining hududiy o‘ziga xosligi: Qo‘qon, Toshkent, Buxoro va Xivada jadid maktablari taraqqiyoti.

3- mavzu. Jadidlar – zamonaviy milliy oliy ta’lim g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi (2 soat)

Jadidlarning zamonaviy milliy oliy ta’lim tizimi haqidagi g‘oyalari; zamon talablari darajasidagi oliy ma’lumotli milliy kadrlar tayyorlash borasidagi amaliy harakatlar; Turkiston yoshlarining rivojlangan xorijiy mamlakatlarga yuborilishi; Munavvarqori boshchiligida Turkiston musulmon xalq dorilfununining tashkil etilishi; dorilfunun va uning Samarqand sho‘basi faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi; ma’rifatparvar jadidlar zamonaviy oliy ta’limga doir faoliyatining tugatilishi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy didaktik ta’minot va laboratoriya jihozlariga ega bo‘lgan auditoriyalarda hamda internet tarmog‘iga ulangan kompyuter sinflarida, tayanch oliy ta’lim muassasalarining kafedralarida tashkil etiladi.

1-mavzu: “Usuli jadid” va “usuli qadim” o‘rtasidagi kurash va uning milliy metodika rivojiga ta’siri (2 soat)

“Usuli jadid” va “usuli qadim” kurashining metodika rivojiga ta’siri; jadid maktablari rivojining hududiy o‘ziga xosligi: Qo‘qon, Toshkent, Buxoro va Xivada jadid maktablari taraqqiyoti.

Reja:

1. “Usuli jadid” maktabi g‘oyasining shakllanishi va Turkiston hayotiga kirib kelishi omillarini o‘rganib chiqish.
2. “Usuli qadim”ning mohiyati va uni isloh qilish zaruratini tahlil etish.
3. “Usuli jadid” nazariyasining asoschilarini aniqlash.
4. Milliy metodika rivojining ijtimoiy-tarixiy, metodik-texnologik asoslarini tushuntirish.
5. “Usuli jadid”ning zamonaviy o‘qitish tizimi yuzaga kelishidagi o‘rnini muhokama etish.

2-mavzu: Usuli jadid maktablari rivojining hududiy o‘ziga xosligi (2 soat)

“Usuli qadim” va rus-tuzem maktablariga nisbatan tanqidiy qarashlarning shakllanishi; ta’lim islohi va millat ma’rifati masalalarining uyg‘unligi; O‘qitish tizimi va metodikasini yangilash zaruratining kun tartibiga qo‘yilishi.

Reja:

1. Qo‘qon xonligida va Toshkentda usuli jadid maktablarining yuzaga kelishi va xususiyatlari.
2. Buxoro amirligida jadid maktablari rivojining o‘ziga xosligi.
3. Xiva xonligida usuli jadid maktablari.
4. Usuli jadid maktablarining har bir hududga xos xususiyatlari to‘g‘risida munozara tashkil etish.

3-mavzu. Ona tili va adabiyot o‘qitishda yangi usul va pedagogika texnologiyalarning qo‘llanishi (2 soat)

Turkiston yoshlarining rivojlangan xorijiy mamlakatlarga yuborilishi; Tahlil va tarkib usullarining o'ziga xosligini muhokama qilish.

Reja:

1. Usuli maddiyaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.
2. Usuli savtiya – zamonaviy o'qitish usuli ekani.
3. Tahlil va tarkib usullarining o'ziga xosligini muhokama qilish.
4. Usuli jadid maktablari uchun Munavvarqori tuzgan yo'riqnomaning ahamiyati.
5. Darslarning turlari: axloqiy va fanniy darslar.

4-mavzu: Jadid pedagogikasining yetakchi namoyandalari va ularning ta'lim islohiga doir faoliyati (2 soat)

Munavvarqori boshchiligida Turkiston musulmon xalq dorilfununining tashkil etilishi; dorilfunun va uning Samarqand sho'basi faoliyatining yo'lga qo'yilishi; ma'rifatparvar jadidlar zamonaviy oliy ta'limga doir faoliyatining tugatilishi.

Reja:

1. Ismoilbek Gasprinskiy va Turkistonda jadid maktablari.
2. Is'hoqxon To'ra Ibrat va So'fizodaning "usuli jadid" rivojiga qo'shgan hissasi.
3. Jadid pedagogikasining Samarqandda rivojlanishi: Siddiqiy-Ajziy, Saidahmad Vasliy, Hoji Muin va Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati.
4. Hamza va usuli jadid rivoji.

O'QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- masofadan o'qitish;
- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ta'lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash);
- suhbatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, unda adabiy ta'limga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;

– tinglovchilarni bahs-munozaralar paytida muammolar yechimi bo'yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o'z fikrini asoslashga o'rgatish.



II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI

“FIKRIY HUJUM” metodi

Metodning maqsadi: “Fikriy hujum” metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo‘lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o‘rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta’qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag‘batlantirishdan iboratdir. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilar (tinglovchi)ning mashg‘ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta’minlashdir. Ta’lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko‘lamining kengligiga bog‘liq bo‘ladi.

Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, muammoning ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga, o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Fikriy hujum” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida, individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 6-8 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi, zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallari tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

BBB texnologiyasi

Texnologiyaning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarini topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek mavzu bo‘yicha bilimidagi bo‘shliqlarni aniqlash, ularni to‘ldirish, izlanish, muhokama qilish imkoniyatini beradi.


Bu metodni yangi bilim beruvchi tipdagi darsda foydalanish mumkin.

1-qadam: doskaga yangi mavzu yoziladi va o‘quvchilar daftariga “Bilardim” deb yozib, yangi mavzu bo‘yicha bilganlarini yozishlari taklif etiladi. Yozishlari uchun vaqt beriladi. Taqdimot o‘tkaziladi. Taqdimot davomida o‘quvchilar yangi mavzu bo‘yicha bilganlarini aytib beradilar. Taqdimot davomida fikrlarni guruhlar tomonidan qaytib takrorlamaslik qoidasiga qat’iy rioya qilinadi.

2-qadam: o‘quvchilar daftariga “Bilmoqchiman” deb yozib yangi mavzu bo‘yicha nimalarni bilishni xohlashlarini yozish taklif etiladi. Vaqt beriladi. Taqdimot o‘tkaziladi.

3-qadam: yangi mavzu bayonidan so‘ng o‘quvchilar daftariga “Bilib oldim” deb yozib qo‘yib, yangi mavzu bo‘yicha tushunganlarini yozishlari taklif etiladi. Yozishlari uchun vaqt beriladi. Belgilangan vaqt o‘tgandan so‘ng taqdimot o‘tkaziladi. Yangi mavzuni o‘quvchilar qanchalik tushunganliklarini bilib olish mumkin.

	“B.B.B” JADVALI	
BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILIB OLDIM



KLASTER (TARMOQLASH) METODI

Metodning maqsadi. Klaster so‘zi – bog‘lam ma’nosini anglatadi. Klasterlarga ajratishni da’vat, anglash va mulohaza qilish bosqichlaridagi fikrlashni rag‘batlantirish uchun qo‘llash mumkin. U asosan yangi fikrlarni uyg‘otish, mavjud bilimlarga etib borish strategiyasi bo‘lib, muayyan mavzu bo‘yicha yangicha fikr yuritishga chorlaydi. Biror bir mavzuni mukammal o‘rganmasdan oldin klaster tuzishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.


Klaster metodi aniq obyektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga

oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning talaba(o'quvchi) tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayonida mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. O'qitish jarayonida amalga oshiriladigan bu metod chuqur o'ylangan strategiya bo'lib, undan talaba(o'quvchi) bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin.

Qo'llash tartibi. Tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish lozim. Yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varog'ining o'rtasida asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi.

Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar "yo'ldoshlar" yozib qo'shiladi. Ularni "asosiy" so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo'ldoshlarda" "kichik yo'ldoshlar" bo'lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.

Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.




“VENN DIAGRAMMASI” metodi

Metodning maqsadi: Venn diagrammasi - grafik ko‘rinishda bo‘lib, olingan natijalarni umumlashtirib, ulardan bir butun xulosa chiqarishga, ikki va undan ortiq predmetni (ko‘rinish, fakt, tushuncha) tahlil qilish va o‘rganishda qo‘llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylanani kesishmasidan hosil bo‘ladi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli va o‘xshash jihatlarini doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yoxud tushunchalarning umumiy (yoki farqli) jihatlarini izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: VENN DIAGRAMMASI



“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarini mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruh tartibida taqdimot qilinadi.

● F	- fikringizni bayon eting
● S	- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
● M	- ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
● U	- fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna:

Fikr: “Struktural tahlil asosida mavjud matnni mantiqan qismlarga ajratish va uni yig‘ish yotadi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“ZINAMA-ZINA” texnologiyasi

“Zinama-zina” texnologiyasi o‘quvchilarni o‘tilgan yoki o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzu bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib fikrlash hamda xotirlash, o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to‘plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko‘rinishida ifodalay olishga o‘rgatadi. Bu metod o‘quvchilar bilan yakka holda yoki guruhlariga ajratilgan holda yozma ravishda o‘tkaziladi va taqdimot qilinadi.

Metodning maqsadi: O‘quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir eta olishga, uni ma’qullashga, shuningdek, mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatadi.

Metodning qo‘llanishi: ma’ruza (imkoniyat va sharoit bo‘lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o‘tkazish hamda nazorat darslarida qo‘llanilishi mumkin.


Mashg‘ulotda qo‘llaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatli qog‘ozlarda tayyorlangan (mavzu ajratilgan kichik mavzular soniga mos) chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, flomaster (yoki rangli qalam)lar.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

1. O‘qituvchi o‘quvchilarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5ta bo‘lgani ma’qul);
2. O‘quvchilar mashg‘ulotning maqsadi va uning o‘tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog‘ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo‘lgan varaqlar tarqatiladi;
3. O‘qituvchi guruh a’zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog‘ozdagi bo‘sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi;

4. Guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, yoki chizma) ko'rinishida ifoda etadilar. Bunda a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi.

Tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material, albatta, auditoriya (sinf) doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi; o'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi



“DAVRA SUHBATI” metodi

Metodning maqsadi. Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni obyektiv baholashi mumkin.

“Davra suhbat” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va

ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan

Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhviy tartibda taqdimot qilinadi.

"Davra suhbat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

Bosqichlar	"Davra suhbat" metodi
1-bosqich	Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2-bosqich	Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3-bosqich	Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan "javoblar varaqalari"ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va "javoblar

	varaqlari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.
4-bosqich	Ta’lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.
5-bosqich	Konvertga savol yozgan ta’lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta’lim oluvchiga uzatadi.
6-bosqich	Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagi “javoblar varaqlari”ni baholaydi.
7-bosqich	Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagi “javoblar varaqlari”ni baholaydi.
8-bosqich	Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

KROSSVORD – o‘yin metodi

“**Krossvord**” so‘zi inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, kross – “kesib otish” va “word” - “so‘z” so‘zlarining birikmasidir va u boshqotirma ma’nosini anglatadi. Krossvord tuzish uchun “o‘zaro kesishuvchi” katakchalarga so‘zlar yozilishi va yozuvda umumiy katakchalarda bir xil harflar qatnashishi kerak. Krossvordlar shakli va hajmi jihatidan juda ko‘p turli bo‘ladi.

Krossvordning vatanini aniqlash borasida uch davlat bahs yuritadi. Ular, AQSh, Angliya va JAR davlatlaridir. Krossvordning gazeta sahifasida birinchi marta chop etilishi 1913-yilning 21-dekabriga to‘g‘ri keladi va bu kun birinchi gazeta

krossvordining tug'ilish kuni sifatida Ginnes rekordlar kitobiga rasman kiritilgan. Bu krossvord AQShda Artur Uinn tomonidan tuzilgan bo'lib, "Hew York world" gazetasida e'lon qilingan.

Muhim pedagogik-psixologik maqsad va jihatlari:

1. O'yin xarakteriga ega. Bu xususiyat mavzuni oson egallash imkonini beradi. Chunki insonning ruhiyati mavzuni o'yin orqali qabul qilishga moyildir.
2. Xotirani chiniqtiradi.
3. Fikrlash doirasini kengaytiradi, aqlni peshlaydi.
4. Anglash va fahmlash qobiliyatini rivojlantiradi.
5. So'z boyligini oshiradi.
6. Izlanuvchanlikni vujudga keltiradi.
7. Intellektual salohiyatni kengaytiradi.
8. Mustaqil fikrlash ko'nikmasini hosil qiladi va shakllantiradi.
9. Bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish imkonini beradi.


O'qituvchi uchun:

1. Krossvord o'quv jarayonida o'quvchilarning olgan bilimni aniqlashning barcha nazorat bosqichlarida (joriy, oraliq va yakuniy nazorat bosqichlarida) qo'llanishi mumkin.

2. Krossvorddan o'quvchilarning mustaqil bilim olishini tashkil qilishda foydalanish mumkin. Masalan, o'qituvchi tuzgan krossvordlardan talabalar mustaqil yoki birgalikda ta'lim olishlarida foydalansalar bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha mustaqil ravishda krossvord tuzish topshirig'ini bajarishi ham mustaqil bilim olishning bir turini tashkil etadi.

3. Krossvord barcha fanlar bo'yicha tuzilishi mumkin. Quyida oxiri faqat r harfi bilan tugaydigan krossvord ko'rinishidan namuna berildi. Bunda tuzilgan 8ta savolga berilgan javoblarning oxiri barchasida r harfi bilan tugashi kerak.

1		R								
2			R							
3				P						
4					P					
5						P				
6							P			
7								P		
8									P	

The image features two tall, slightly staggered stacks of books on either side of the central text. The books have various colored spines, including red, blue, green, and grey. The central text is in a bold, dark blue serif font.

III. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU:

JADID PEDAGOGIKASI SHAKLLANISHINING IJTIMOIIY-TARIXIY, MA'RIFIY-DIDAKTIK HAMDA METODIK-TEXNOLOGIK OMILLARI

REJA:

- 1. Ta'lim islohi bilan bog'liq g'oyalar Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy tanazzuli bilan bog'liq ekani.*
- 2. "Usuli qadim" va rus-tuzem maktablariga nisbatan tanqidiy qarashlarning shakllanishi.*
- 3. Ta'lim islohi va millat ma'rifati masalalarining uyg'unligi.*
- 4. O'qitish tizimi va metodikasini yangilash zaruratining kun tartibiga qo'yilishi.*

Tayanch tushunchalar: *ta'lim islohi, Turkistonning tanazzuli, usuli qadim, o'qitish usullari, rus-tuzem, millat ma'rifati, o'qitish tizimi, yangicha o'qitish metodikasi.*

Ta'lim islohi bilan bog'liq g'oyalarning Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy tanazzuli bilan bog'liq ekani. XIX asrning 50-80-yillari davomida Markaziy Osiyo to'laligicha chor Rusiyasi tomonidan bosib olindi. Mavjud Qo'qon xonligi 1875-yildayoq butunlay tugatildi, Xiva xonligi va Buxoro amirligi mustaqillikdan mahrum etilib, Rusiya vassaliga aylantirildi. 1867-yil iyulda Rusiya podshohi Aleksandr II farmoni bilan Turkiston harbiy okrugi va general-gubernatorligi ta'sis etildi, uning birinchi general-gubernatori etib general Konstantin fon Kaufman tayinlandi. U cheksiz huquqlarga ega bo'lib, faqat Rusiya podshohiga bo'ysunar edi. Nomidan ko'rinib turganidek, bu hukumat harbiy kuchga asoslangan edi, uning hukmdorlari ham harbiy edi, general-gubernatorlik tasarrufidagi oblastlar, uezdlar, volostlar nachalniklari - hammasi harbiy xizmatchilardan, yuqori unvonli zobitlardan tayinlanardi, general gubernator, albatta, general unvoniga ega bo'lar edi. Bir so'z bilan aytganda, Turkiston o'lkasi katta harbiy kuch bilan zanjirband etildi.

General-gubernatorlik Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand, Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlarini o‘z tarkibiga olib, Toshkent uning markaziga aylantirildi. Gubernatorlik o‘lkada mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash uchun ba’zi bir ma’rifiy-ma’naviy tadbirlarni bajarishga kirishadi. 1870-yilda rus tilida “Туркестанский вѣдомости”, 1871-yildan birinchi bor o‘zbek tilida “Turkiston viloyatining gazetisi” chiqarila boshlandi. Gazetadagi N.Ostroumov muharrirlik qildi.

Gazeta yerli aholini ruslashtirish, rus-tuzem maktablarini targ‘ib-tashviq qilish ishida katta faoliyat ko‘rsatdi. Gazetaning umumiy siyosiy yo‘nalishi haqida yozuvchi Ziyo Said (1901-1938) quyidagilarni yozgan edi: “1884-yilda Turkiston general-gubernatori bo‘lib tayinlangan Ruzenbaxning farmoni bilan 1885-yildan boshlab gazetaning bir tomoni ruscha bo‘lib chiqdi. Buning sababini gazeta muharriri (bu vaqtlarda Ostroumov muharrir edi) bunday deb ko‘rsatadi: “Chunonchi, ul baland darajalik o‘tgan yil Samarqand va Farg‘ona muzofotlariga borib qaytib kelgandan so‘ngra men gazeta muallifiga mehribon bo‘lib aytgan edildikim, Turkiston viloyatidagi bul gazetni o‘quydurg‘onlar va ham bir ozgina Rusiya xatini taniydurg‘on odamlarg‘a foyda yetkurmoqlik uchun bul gazetni keladurg‘on yilda Rusiya tilida tarjima qilib chiqarilsa yaxshiroq bo‘ladur deb” .

Ruzenbax Turkiston general-gubernatori bo‘lib belgilangandan keyin gazeta betida “Yerliklar uchun rus maktablari kerak” degan mavzuda yozilg‘on maqola va xabarlar ko‘rina boshlaydi. Ya’ni ruslashtirish siyosati va yerlik xalqdan chor chinovniklari hozirlash masalasi shu Ruzenbax kelgandan keyin matbuot maydonig‘a yana keskinroq qo‘yiladi. Bu narsa shuni ko‘rsatadikim, gazetaning bir tomonini ruscha qilib chiqarish mana shu masala tevaragida qilinayotgan ishlar va ko‘rilayotgan choralarning mag‘zini chaynab ko‘rishdan iboratdir. Butun sarlavhalarni ruscha qo‘yish (shu yillardan boshlab butun maqola va xabarlarning sarlavhalari ruscha qo‘yilib boradi) rus tilini umumlashtirish uchun bo‘lsa kerak”.

Chor mustamlakachilari o‘lkaga faqat moddiy zarar keltirish bilan cheklanmadilar, uning ma’naviyatini, tilini, dinini, milliy his-tuyg‘ularini oyoqosti qildilar. Qadimiy shaharlarimizdagi osori-antiqalar, noyob qo‘lyozma asarlar Peterburg, Moskva shaharlariga betinim tashib ketildi. Noyob qo‘lyozma asarlarning

tashib ketilishiga qarshi Orenburgda Fotih Karimiy muharrirligida chiqadigan “Vaqt” gazetasi ham katta tashvish bilan quyidagilarni yozgan edi: “Bu yerda (Turkistonda) ulkan eski asarlar ochko‘z mujovur (qo‘shni)lar tarafidan Ovrupa sayyohlarina yo‘q-bor aqchalar barobarina va rus ma’murlarina hadya edilanarak, verulub bitmushdur... Aziz va nodir asarlarning bo‘yla ravishda talof o‘lmoqlari uchun taassuf etmoyni kimsa inson dagildur”.

Markaziy Osiyo chor Rusiyasining to‘qimachilik sanoatini paxta bilan ta‘minlaydigan asosiy xom ashyo bazasiga aylantirildi. Paxtaga bo‘lgan ehtiyojning kun sayin oshib borishi paxta tozalash, yog‘, sovun zavodlarining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. O‘lkada mahalliy paxtachi, zavodchi boylar, Rusiyaning markaziy shaharlari bilan aloqa qiluvchi “maskovchi” boylar, nisbatan ancha zaif bo‘lsada, rus kapitalistlariga raqobat qiluvchi mahalliy burjuaziya paydo bo‘ldi. Masalan, Farg‘ona viloyatidagi katta-kichik 157 ta paxta tozalash zavodining 107 tasi mahalliy burjuaziya qo‘lida edi. O‘lkada kapitalistik munosabatlarning paydo bo‘lishi bilan yaramas, o‘ta salbiy illatlarni ham olib keldi. Bu illatlar mahalliy xalq axloqiga kuchli salbiy ta‘sir ko‘rsata boshladi: mehmonxonalarda, restoranlarda iflos ishlar bilan shug‘ullanish hollari vujudga keldi.

Bu haqda akademik V. Bartold quyidagilarni yozadi: “Yerli aholining ruslar bilan yaqinlashishi, rus tilini o‘rganishi rus hayotining, asosan, tashqi, salbiy tomonlarini olib kirdi. Fahsh hayot kechirishga, vino, pivo ichish, buning ustiga, Rossiya hukumati ham mustamlaka davlatlari ma‘naviyatini, diniy e‘tiqodini buzish, vino va papiros bilan savdo qiladigan maxsus tarmoqlarni kengaytirdi, fohisha ayollarning hayot faoliyati rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratdi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasiidagi fohisha ayol Liza va Artun, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi Mariya Ostrova, Tavallo she‘rlarida chor Rusiyasi siyosati fosh etilgani tasodifiy hol emas.

Bu misollar ta‘lim islohi bilan bog‘liq g‘oyalarning Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy tanazzuli bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Jadid pedagoglari bu muammolardan qutulish yo‘li farzandlarning bilimli bo‘lib, to‘g‘ri yo‘lni tanlashida deb bildi va ta‘lim islohi bilan bog‘liq g‘oyalarni ilgari surdi.

“Usuli qadim” va rus-tuzem maktablariga nisbatan tanqidiy qarashlarning shakllanishi. 1880-1890-yillarga kelib, o‘lkada kapitalistik munosabatning kirib kelishi va milliy burjuazianing vujudga kela boshlashi eski ta’lim-tarbiya tizimiga ham milliy ziyolilar o‘rtasida tanqidiy munosabatni kuchaytirdi. Bu hol mustammlakachi ma’murlarni tashvishga sola boshladi, eski maktablarni nazorat ostida saqlash, o‘lkaga kirib kelayotgan yangiliklardan “muhofaza” qilish maqsadida Turkiston o‘quv ishlari qoshida mahalliy maktab va madrasalar bo‘yicha nazorat komissiyasi tashkil etilib, uni boshqarish V.Nalivkinga topshirildi, bu komissiya 1898-yildan oblast va uyezdlar ma’muriyati ixtiyoriga o‘tkazildi.

V. Nalivkin 1901-yilda Toshkent shahridagi eski maktablarning ahvoli haqida quyidagilarni yozadi: “Eski maktablar uchun qurilgan maxsus binolar deyarli yo‘q. Aksar maktablarda mashg‘ulot masjidlarda yoki to‘gridan-to‘g‘ri masjidlarning ayvonida yoki masjidning hujrasida o‘tkaziladi. Chunonchi, Toshkentning eski shahar qismidagi 142 ta maktabdan 109 tasi masjidlarda, 27 tasi domlalar uyida, 5 tasi mozorlar huzurida va qorixonalarda bo‘lib, faqat bitta maktab maxsus qurilgan binoga ega”.

Eski maktablar sanitariya-gigienaning oddiy talablaridan ancha yiroq edi. O‘quvchilar, asosan, bo‘yra yoki poxol ustiga to‘shalgan sholcha yoki kigiz ustida o‘tirib, dars o‘qir edilar. Xonaning to‘rt tomoniga taxtadan yasalgan uzun-uzun “eshak” (skameyka) qo‘yilgan bo‘lib, uning ustiga yozish va o‘qish uchun kerakli jihozlarini, kitoblarini qo‘yib o‘qiganlar. O‘quvchilar o‘quv bosqichlariga qarab; bir tomonda “taxtaxonlar”, bir tomonda “abjadxonlar”, bir tomonda “haftiyakxonlar”, to‘rda ko‘rpachada domla o‘tirgan. Bolalarni maktabga necha yoshdan va qachon qabul qilish, o‘qish muddati, dars soatlari qat’iy belgilab qo‘yilmagan, umuman, dars jadvali bo‘lmagan, o‘quvchilar yoshiga, o‘qish darajasiga qarab guruhlariga (sinflarga) bo‘linmagan, bu hol ta’lim-tarbiya saviyasini yanada pasaytirgan. Maktabda jismoniy jazo ta’lim-tarbiya usullarining asosiy turlaridan biri bo‘lgan. “Eti – sizniki, suyagi – bizniki” xalq iborasining paydo bo‘lishi eski maktablar faoliyati bilan bog‘liq. Eski maktablarning maxsus binolari bo‘lmagan, asosan, masjid va madrasalar, xonaqohlar

qoshida xona ajratilgan, ba'zan madrasani bitirganlar o'z uyida maktab ochgan, ba'zi hollarda o'z hovlisida maktab uchun hashar yo'li bilan maxsus bino qurgan domlalar ham bo'lgan. Bunday xayrli ishlarda xalqimizning saxovatli, ma'rifatli boylari sidqidildan yordam berganlar. Ta'kidlash kerakki, o'z uyida maktab ochgan e'tiborli domlalar o'qitish sharoitini iloji boricha yaxshilashga harakat qilganlar. O'qituvchilik kasbini dildan sevuvchi, kelajak avlod tarbiyasini muqaddas biluvchi, izlanuvchi pedagoglar hamma vaqt xalq e'tiborida bo'lganlar.

Dars eski maktabda quyosh chiqishi bilan boshlanar, peshinda 12-13 larda o'quvchilar uylaridan olib kelgan yeguliklarni tanavvul qilar, maktabga yaqinroq yashovchilar uylariga borib peshinlik qilar, bir oz dam olar va yana o'qishni davom ettirar edilar. O'qituvchilar bolalarga hech qanday harakatli o'yinlar, didaktik o'yinlar mashq qildirmas edi. Ko'p maktablarda jismoniy tarbiya, estetik tarbiya masalalariga e'tibor berilmagan, ertalabdan to o'qish tugaguncha bir joyda qadalib o'tirib, berilgan vazifani bajarishgan, asosan, o'qish yoki takrorlash bilan band bo'lganlar. Bola ruhiyatini yaxshi biladigan domlalar har 1,5 – 2 soatda tanaffus e'lon qilgan, vazifani yaxshi bajarib kelgan o'quvchi "ofarin", "barakallo" deb rag'batlantirilgan, dangasalik qilganlarga tanbeh berilgan. Maktabda juma kuni dars bo'lmagan, haftaning payshanba kuni odob-axloq darsi bo'lgan. Bu darsga, asosan, "Shariati iymon" kitobi asos qilib olib borilgan. Eski maktablarning asosiy vazifasi musulmon axloqini o'quvchilar ongiga singdirish, shu bilan birga ba'zi o'quvchilarni ta'limning ikkinchi - oliy bosqichi madrasaga tayyorlash edi. Maktabni bitirganlik haqida hech qanday hujjat berilmagan. Eski maktablar davr talablaridan qanchalik uzoq bo'lmasin, o'quvchilar xotirasini, yodlash qobiliyatini ancha rivojlantirgan. Dastlab maktabga borgan yosh bolaning eng birinchi ishi harf-yozuv tanimoq, o'qishga o'rganmoqdir. Chunki bular uning boshqa kattaroq narsalarni o'rganishiga yo'l ochadi. Ammo bu bolalar endi mehribon ona quchog'idan chiqib, olamning jiddiyat eshigiga oyoq bosadilar. Bu vaqtda ular ko'pi bilan 6 -7 yoshlarda bo'ladilar, hissiyotlar tamoman ular ustidan hokimlik qiladi: bunday sharoitda o'qituvchi ularga qiziq-qiziq hikoyalar aytib, jiddiyatni oz bo'lsa-da yumshatishi, bolalarda maktab degan olamga muhabbat uyg'otishi kerak bo'ladi.

Bolalarni o'qishga o'rgatishning mashhur uch usuli bor: usuli tahajji (usuli hijo), usuli maddiya, usuli savtiya. Eski mahalliy maktablarda o'qishga o'rgatishning usuli tahajji – usuli hijo metodi qo'llangan. Bu usul eng qadimgi, shu bilan birga, eng qiyin usul bo'lib, Yevropada XVIII asr oxirida bu usuldan voz kechishgan, Turkiston eski maktablarida esa XX asrning 20-yillarigacha davom etgan. Shuni unutmaslik kerakki, eski mahalliy maktablar davr talablaridan ancha orqada qolib ketgan, maktabda olgan bilimlar bolalar uchun hayotda hech bir asqotmas edi. Chunki mohiyatni tushunmay, quruq yodlash asosida olingan bilim maktabni tugatach, tez orada xotiradan ko'tarilar, hatto o'qish va yozishni unutib yuborar edilar. Asosiy masala shundaki, o'quvchi matnni ongli, ravon, ifodali o'qigandagina uning mazmuniga, mohiyatiga chuqurroq kirib boradi va bilim ko'nikmalarini hosil qiladi. Ikkinchidan, bolalar hayotda o'z bilimlarini mustahkamlab borishlari uchun ona tilida o'quv adabiyotlar yo'q, bo'lsa ham juda kam miqdorda yaratilar va nashr qilinar edi. Bu esa xalq o'rtasida savodsizlik doirasini yanada kengaytirib borar edi. Ovrupo mamlakatlari ilm-fan, texnikasining eng yuqori bosqichlariga ko'tarilayotgan bir paytda eski milliy maktablarda bu fanlarni tasavvur ham qila olmas edilar. Pedagogikadagi bu inqirozni mustamlakachilar yanada chuqurlashtirishga, mutaassiblikni avj oldirishga zo'r berdilar va ko'p hollarda bunga erishdilar ham. Odatda, eski maktablarda o'qishga yangi kelgan yosh bolalar bilan birga 3-4 yil davomida o'qib kelayotganlar bir paytda, bir xonada o'qitilar edi. Ko'pincha muallim katta yoshli o'quvchilar bilan dars olib borishni ma'qul ko'rar, yangi kelgan murg'ak bolalarni nisbatan yaxshiroq o'zlashtirgan o'quvchiga, xalfaga topshirib qo'yar edi. Bu ham bolalarning maktabga bo'lgan qiziqishining, ulardagi tug'ma qobiliyatning so'nishiga, yo'q bo'lishiga sabab bo'lar edi. Bolalarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'at boyligini yil sayin oshirib borish, fikrlash doirasini kengaytirishdek pedagogikaning muhim masalalariga butunlay e'tibor bermas edilar.

Eski maktabdorlar maktabdan tashqari ishlar bilan umuman shug'ullanmaganlar va ulardan bunday tarbiyaviy ishlar talab qilinmagan ham. Kim ham talab qilardi, eski mahalliy maktablar davlat e'tiboridan, ta'minotidan butunlay chetda bo'lsa. Lekin shunga qaramasdan, ba'zi bir mahalliy maktabdorlar ham bolalarning

maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlariga e'tibor berganlar. Bola tarbiyasini o'zi uchun sevimli va muqaddas ish deb bilgan iste'dodli muallim-pedagoglar bolalarni tabiat qo'yniga olib chiqqanlar. Bunday ishlar ko'proq Navro'z kunlari, gul bayramlari munosabati bilan amalga oshirilgan. O'quvchilar muallim rahbarligida bir kunlik oziq-ovqat va osh masallig'ini olib, tabiatning go'zal go'shalariga borishgan. Bunday ishlarda faqatgina dam olish vazifasini o'z oldilariga qo'ymay, bu sayl yoki sayohatdan olgan taassurotlarini qisqacha og'zaki va yozma bayon qilib berish vazifasi o'quvchilarga topshirilgan. Savodxonligi mukammal bo'lgan yuqori bosqich o'quvchilari Vatan va uning go'zalligi haqida ancha chiroyli insho yoki she'r yozishga erishganlar. Bunday tadbirlar o'quvchilarni millatparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularning go'zallikni nozik his qilishga o'rgatishda ahamiyati katta bo'lgan. Albatta, bunday ta'lim-tarbiyaviy ishlar reja asosida hamma maktablarda barcha o'qituvchilar tomonidan amalga oshirilgan emas.

Rus-tuzem maktablari. Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P.Kaufman o'lka maorifini o'rganib chiqqach, yerli aholini ruslashtirish uchun N.I. Ilminskiy (1822-1891) ning Qozon tatarlarini ruslashtirish borasidagi faoliyatini Turkiston o'lkasi maorifiga tatbiq qilish maqsadida uni Toshkentga taklif qildi. Ilminskiy arab, fors, turk tillarini ancha mukammal bilgan, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini tarjima qilgan va faksimilesi bilan 1857-yilda Qozonda nashr ettirgan turkshunos edi. U Qozon diniy akademiasining professori, turkiy xalqlarni ruslashtirishga qaratilgan maorif tizimini ishlab chiqqan, tatarlarni ruslashtirishda katta tajriba orttirgan missioner edi. Turkiston o'lkasida ochila boshlagan rus-tuzem maktablari ham Ilminskiy tizimi asosida vujudga kelgan edi. Chor Rusiyasining mustamlaka Markaziy Osiyo xalqlari maorifiga munosabati aniq edi: Volgabo'yi, Ural, Kavkaz, Qrimdagi turkiy xalqlar maorifi tizimiga qo'llagan ruslashtirish siyosatini Turkiston xalqlari maorifiga ham tatbiq qilish edi. Gubernatorlik ma'murlari rus-tuzem maktablarida islohot o'tkazib, uning o'zbek sinflaridagi ta'lim-tarbiya ishlarini bir oz bo'lsa-da, milliylashtirishdan V. Bartold so'zi bilan aytganda: "Mahalliy xalqqa o'z ona tilida ko'proq ma'lumot berishdan va

bu bilan mahalliy xalqni ruslashtirish ishiga zarar yetkazib, mahalliy adabiyot va madaniyatning qattiq o'rnashib qolishidan qo'rqar edilar.

Rus-tuzem maktablarining ochilishiga hukumat ma'murlari, missionerlarining o'zlari katta shubha va hadik bilan qaraganlar, rus ma'murlarini bunday maktablarda yerli aholi farzandlarini jalb qilish katta tashvishga soldi. Bu maktablarni ochishdan rus ma'murlarining ko'zda tutgan maqsadlaridan qat'iy nazar, yerli aholining ko'zi ochilishi mumkin, degan tashvish ularni bezovta qilgan, hatto bunday maktablarni ochmaslik, yerliklarni iloji boricha zamonaviy ma'rifatdan, ma'naviyatdan uzoqda saqlash kerakligini qayta-qayta ta'kidlovchilar oz emas edi. O'zbek, fors, arab tillarini, adabiyotini ancha mukammal bilgan, o'zbek mutafakkirlari Havoiiy, Umidiy, Xo'jajon qozi Rojiiy, Furqatlar bilan yaqin aloqada bo'lgan, sharq qo'lyozmalaridan katta kolleksiya vujudga keltirgan va Sankt-Peterburg Sharq qo'lyozmalari institutiga topshirgan, 20 yil davomida Rusiyaning Qoshg'ardagi bosh konsuli lavozimida ishlagan, missioner I.Ostroumovning yaqin hammaslagi I.Petrovskiy rus va rus-tuzem maktablarining ochilishiga keskin qarshi chiqqan edi. U 1887-yil 23-iyunda I.Ostroumovga yo'llagan maktubida Turkiston o'lkasida birin-ketin ochilayotgan rus, va rus-tuzem maktablaridan tashvishlanib, quyidagilarni yozadi: "Hamma yerda musulmonlar uchun ochilayotgan maktablar (rus-tuzem maktablari ko'zda tutilmoqda) nima o'zi? Ma'nilik ishmi, behuda ishmi? Xo'ja ko'rsingami yoki jiddiy narsami? Bilishni istardim. Birinchisi to'g'ri bo'lsa kerak, degan xavotirdaman. Agar maktablar oldindan ko'zlangan maqsadsiz, oqibati nimaga olib kelishini o'ylamasdan ochilayotgan bo'lsa, ularni ochmaslik ma'qul. Keyin borib pushaymon bo'lib qolmaylik".

Gubernatorlikning bu faoliyati XIX asrdayoq rus siyosatchilari tomonidan rejalashtirilgan edi. Bu haqda D.A.Tolstoyning 1870-yilda yozgan so'zlarig'a e'tibor bering: "Bizning vatanimizda yashovchi barcha begona (rus bo'lmagan) xalqlarning ma'lumotli bo'lishining oxirgi maqsadi, shubhasiz, ularni ruslashtirish va rus xalqi bilan birlashtirishdan iborat bo'lishi kerak".

Rus-tuzem maktablarining o'ta reaksiyon mohiyatini hatto rus siyosatdonlarining o'zlari ham e'tirof etganlar. Turkistonda 43 yil faoliyat ko'rsatgan,

rus-tuzem maktablarining birinchi o'qituvchisi V.P.Nalivkin so'zlariga e'tibor bering: "O'lkada rus-tuzem maktablari deb nomlanuvchi, o'ta foydali deb bilgan muassasalar tarmog'ini kengaytirishga qaratilgan proektni amalga oshirishga kirishganimizga 20 yildan oshdi. Bu sohada biz qo'limiz bilan bo'lmasa-da, ammo bizning xohishimiz bilan juda ko'p iflos va axloqqa zid ishlar amalga oshirildi. 20 yil davomida bu maktablardan bir necha ming mahalliy bolalar chiqdi: ularning bir qismi maktabni bitirmay qochib ketdi, qochib ketyapti. Natija shu bo'lyaptiki, ulardan na rus hukumati uchun va mahalliy jamiyat uchun biror foydali ish chiqayotgani yo'q.

Gubernatorlik ma'murlar ushbu boshlang'ich rus-tuzem maktablarini har qancha rag'batlantirmasinlar, ular xalq hayotiga singib keta olmadi. Ayniqsa, usuli jadid maktablarining faoliyati keng ko'lam kasb etgach, unga ehtiyoj ham yo'qolib bordi. Buning asosiy sababi bu maktablarning "sut bilan kirgan", ming yillar davomida millatning qon-qoniga singib ketgan ma'naviyatini, tarixini, tilini yo'q qilishga qaratilganligidadir.

Ta'lim islohi va millat ma'rifati masalalarining uyg'unligi. XX asr Turkiston o'lkasida milliy uyg'onish shabadasini kuchaytirdi: o'lkada "Tarjimon", "Mulla Nasriddin" gazeta va jurnallarining mushtariylari soni oshib bordi. Ulardagi islohotchilik harakatiga bag'ishlangan maqolalar o'lka pedagoglarini o'z faoliyatlariga tanqidiy qarashga majbur etdi, ilk usuli jadid maktablari vujudga keldi, ona tili, tabiiy fanlarni o'qitish masalasiga ehtiyoj va e'tibor kuchaydi. Ismoilbek Gaspiralining "Xo'jai sibyon" alifbo darsligi, "Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh" metodik qo'llanmasi usuli jadid muallimlari qo'lida tez-tez ko'rina boshladi.

Rossiya hukumatining turkiy xalqlarga nisbatan qo'llayotgan ularni birlashtirish emas, balki, bir-biridan ajratish siyosati Ismoilbek Gaspiraliga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Yosh Munavvarqori 1892-yilda Toshkentda yuz bergan "Vabo qo'zg'aloni"ni o'z ko'zi bilan ko'rdi. Panshaxa, ketmon, tosh ko'targan xalq mustamlakachilar tomonidan zamonaviy qurollar bilan qarshi olindi, minglab olomon Kaykovus daryosiga g'arq qilindi. 1898-yilda Andijon qo'zg'aloni qonga botirildi, o'nlab

Mingtepa kabi qishloqlar to'pga tutildi, kulturepalarga aylantirildi. Munavvar qori qalbida chor mustamlakachilariga nisbatan nafrat tuyg'usi mavj urdi. Ammo chor Rossiyasidek makkor, dahshatli saltanatga va uning zamonaviy artilleriyalariga qarshi nochor olomonni qarshi qo'yish mumkin emasligini Munavvarqori va maoriflar tushunib yetdilar.

Munavvarqori 1901-yilda dastlab Toshkentning Shayhovand Taxur, keyinchalik shaharning boshqa turli dahalarida birinchi "usuli jadid" maktablari ochdi. Bunday maktab 1893-yilda Buxoro va Samarqandda Ismoilbek Gaspirali boshchiligida ochilgan va bir necha oy faoliyat ko'rsatgan maktablardan keyingi o'zbeklar tomonidan ochilgan "usuli jadid" maktablari ning birinchisi edi.

Turkistonda yetishib chiqqan buyuk islohotchilardan biri bo'lgan Munavvarqori Abdurashidxonov Ismoilbek Gaspirali bilan uchrashmagan bo'lsa ham uning hamma darslik va o'quv qo'llanmalari bilan, badiiy va publitsistik asarlari bilan yaqindan tanish, siyosiy qarashlari ta'sirida bo'ldi, unga ergashib "usuli jadid"maktablari ochdi, o'qituvchilik qildi, darsliklar yaratdi, usuli jadid maktablari uchun o'qituvchilar tayyorladi. Uning bevosita tarbiyasida Mannon Uyg'urbek buyuk san'at arbobi, aka-uka Husanxo'ja va Eshonxo'ja Honiylar, aka-uka Shokirjon va Sobirjon Rahimiylar, Same' qori, Salimxon Tillaxonov, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnun, Majid Qodiriy kabi pedagoglar yetishib chiqdilar.

Munavvarqori Toshkentda ochgan usuli savtiya maktablarida o'zi tuzgan o'quv dasturlari asosida jamoat oldida ochiq imtihonlar tashkil qilgan. Ilk o'zbek jadid pedagoglaridan Abduqodir Shakuriy 1901-yilda Samarqanddan kelib, Salohiddin Sirojiddinovning maktabi bilan maxsus tanishib ketgani ma'lum. Bu hol Buxoro amirligi va Xiva xonligida ham ko'zga tashlanadi.

Turkiston o'lkasidagi bunday ma'rifatparvarlik faoliyatiga usuli jadid maktablarining keng tarmoq yozishiga gubernatorlik ma'murlari keskin qarshi chiqqanlar va hukumat farmoni bilan yopishga muvaffaq bo'lganlar.

Abdurauf Shaxidiy, Husayin Makayevlar ham usuli jadid maktablari ochgani uchun o'z vatanlaridan quvg'in qilingan, Namangan va Qo'qonda faoliyatlarini davom ettirgan tatar pedagoglaridir. To'raqo'rg'on qozisi Is'hoqxon Ibrat maktab

ochib muallimlik qilish huquqidan mahrum qilingan bu ikki pedagogni 1906-yilda To'raqo'rg'on va Namanganda ochgan maktablarida o'qituvchi etib tayinladi. Keyinchalik ular Is'hoqxon Ibrat tashkil etgan "Matbayi Is'hoqiya" da noshir sifatida ham faoliyat ko'rsatdilar.

1905-yil voqealari jadidchilik harakatining yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishiga, ko'lamining kengayishiga, milliy ong, milliy tafakkurning rivojiga turtki bo'ldi. Turk, tatar, ozarbayjon, boshqird mutafakkirlari bilan aloqalar yanada mustahkamlandi. Yangi "usuli jadid" maktablari soni mahalliy maktabdorlar, hur fikrli ziyolilar sa'y-harakatlari hisobiga ancha ortdi.

"Usuli jadid" maktablarini butunlay yopib qo'yish yoki taqiqlashdan gubernatorlik ma'muriyati qo'rqar edi, chunki bu ish bunday maktablarni yashirin ravishda tashkil qilishga, ayniqsa, mahalliy xalqning qattiq norozilik harakatiga olib kelar, ko'plab yoshlarning chet elga, birinchi navbatda, Turkiyaga borib o'qishiga yo'l ochilar edi.

Mahalliy pedagoglarning "usuli savtiya" maktablarini ochishi gubernatorlik ma'muriyati tomonidan qattiq nazorat ostiga olindi. Shu munosabat bilan 1909-yilda Turkiston o'quv okrugi qoshida maxsus komissiya "Farmoyish" ishab chiqdi.

Endi dunyo yuzini ko'rayotgan "usuli jadid" maktablarida qo'llash uchun mahalliy mualliflarning darsliklari hali yo'q darajada yoki yetarli emas edi. Atoqli maorifchi Saidrasul Saidazizovning "Ustodi avval" alifbo darsligi nihoyatda kam miqdorda nashr qilinib, hatto rus-tuzem maktablari uchun ham yetishmas edi. "Usuli jadid" maktablarida Majid Qodiriy tomonidan yaratilgan va u 1910-yilda nashr etilgan "Hisob" darsligiga qadar Qozonda, Turkiyada nashr qilingan matematika bo'yicha turli darsliklardan foydalanilar edi. Buning ustiga "Farmoyish"ga binoan tatarlar tomonidan yaratilgan va "usuli jadid" maktablarida muvaffaqiyat bilan o'qitilayotgan hamda Turkiyada nashr etilgan darsliklardan foydalanish man etildi. Bu ham jadid maktablarining keng ko'lamda faoliyat ko'rsatishiga katta to'siq edi. Shuning uchun ham jadid pedagoglaridan Hoji Muin Shukrullayev ko'plab "usuli jadid" maktablarining yopilib qolayotganini mahalliy o'qituvchilarning, birinchidan, "usuli savtiya" metodidan xabarsizliklari bo'lsa, ikkinchidan bunday maktablar

uchun maxsus darsliklarning yo‘q darajada ekanligidan, deb ko‘rsatadi: ”1901-yildan e’tiboran Qo‘qon va Toshkentda, 1903-yildan Samarqandda yangi maktablar ochila boshladi. Bu maktablar Turkistonning katta shaharida son jihatidan bir daraja ko‘paygan bo‘lsa ham, 4-5 yildan keyin yana kamayib, faqat tuzuklari davom etdi. Buning birinchi sababi kitobsizlik bo‘lsa, boshqa sababi o‘qituvchilarning usuli ta’limdan xabarsizliklari edi.

Dunyoda o‘qituvchilik ishidan ham og‘irroq, shu bilan birga, sharafliroq, undan ham buyukroq ish bo‘lmasa kerak. Chunki o‘qituvchi inson farzandini haqiqiy kamolot sari yetaklaydi. Har qanday jamiyatning inqirozi-yu tanazzuli, ravnaqi-yu istiqboli, uning maktabga, ta’lim-tarbiyaga va ayniqsa, o‘qituvchiga bo‘lgan munosabat bilan o‘lchanadi.

O‘qitish tizimi va metodikasini yangilash zaruratining kun tartibiga qo‘yilishi. Milliylik va milliyat masalasi Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlar faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning bu haqdagi so‘zlariga e’tibor bering: “Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har millat, eng avvalo, makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko‘paytirmaguncha, taraqqiy yo‘liga kirib madaniyatdin foydalanmas. Yer yuzidagi barcha millatlar o‘z bolalarini ibtidoiy tarbiyasig‘a va maktablarining har jihatdan intizom va aqmolig‘a ahamiyat berib, bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suratda yetishdururlar. Aning uchundirki, o‘zga millatlar diniy va milliy hissiyotg‘a molik bo‘lib, har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutarlar”.

“Usuli qadim”, rus-tuzem maktablaridagi kamchiliklar, jiddiy xatolar jadid pedagoglarini bu sohada chuqur o‘ylab ish tutishga chaqirdi. Ular o‘qitish tizimini va metodikasini yangilash zarur degan qarorga keldilar va bu borada anchagina ishlar qildi. “Usuli jadid”, “Usuli savtiya” maktablarining ochilishi, ularda o‘qitish tizimini usuli maddiya va usuli savtiyada olib borilishi, yangi metodik qo‘llanmalarning nashr ettirilishi, Munavvari Qori tomonidan yangi maktablar uchun yo‘riqnomalar ishlab chiqilishi fikrimizni isbotlaydi.

Ismoilbek Gaspirali 1881-yilda bosmadan chiqargan “Rusiya musulmonligi” asaridayoq Rossiya imperiyasi tasarrufidagi turkiy xalqlar, shu jumladan, Turkiston xalqlari ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish loyihasini kun tartibiga qo’ydi. Bu turkiy xalqlar tafakkuridagi buyuk inqilob edi. Chor Rossiyasi O’rta Osiyoni bosib olgach, qabih assimilyatsiya siyosatini olib bordi. Bunga ko’ra juda katta nufuzga ega bo’lgan turkiy xalqlarning tili, dini, madaniyati, tarixidan mahrum etish va ularga gegemon millatning tili, dini va madaniyatini singdirishga, bir so’z bilan aytganda, o’tmishga buyuk madaniyatga, tarixga ega bo’lgan musulmon turklarini yutib yuborish, ruslashtirish siyosatini qo’lladi. Bu yo’lni chor Rossiyasi Ivan Grozniy (1530-1584) davridayoq Qozon tatarlariga nisbatan qo’llay boshlagan edi.

Ismoilbek Gaspiralinig “Rusiya musulmonligi” asari mana shu siyosatga qarshi yozilgan asar edi. U chor Rossiyasining bu siyosatiga qarshi hamjihatlik, hamkorlik, teng huquqlilik siyosatini taklif qildi, faqat taklif qildi emas, talab qildi.

Musulmonlar uchun ochilgan rus va rus-tuzem maktablari o’lik tug’ilgan muassasaga o’xshaydi. Uni bitirgan bolalar rus hayotining tashqi ko’rinishinigina egallab, o’z millatining eng yaxshi an’analarini, urf-odatlarini, tarixini butunlay yo’qotgan kishilardir. Shuning uchun ham I.Gaspirali fikricha, ma’naviy barkamollik, millatni takomillashtirish an’anaviy ta’lim-tarbiya maskanlarida, ya’ni maktab va madrasalarda faqat ona tilida amalga oshirilishi kerak. Savol tug’iladi: nima uchun Ismoilbek Gaspirali ona tili va maorif masalasiga bu darajada birlamchi vazifa deb qaraydi? Uning fikricha, millatning o’zligini belgilovchi asosiy omil til va maorifdir. Shuning uchun ham Ismoilbey Gaspirali keyinroq maqolalaridan birida yozgan edi: “Til birligi masalasi bizning hayotimizda hayot-mamot masalasidir. Va biz bu masalada bir qadam ham orqaga chekinmaymiz. Biz uchun orqaga chekinmoqqa yo’l yo’q. Yashasin millat!”.

“Keyingi yillarda, - deb yozadi I.Gaspirali, - Rossiyaning Sharqqa nisbatan buyuk madaniylashtiruvchi missiyasi haqida tez-tez eshitishga va o’qishga to’g’ri keladi. Yaxshi. Ammo bu missiya nimada o’z ifodasini topishi kerak? Nahotki, hozirda kechayotgan siyosat qozilarni uyezd boshliqlari bilan, noiblarni politsiya boshliqlari

bilan, beklikni oblast yoki guberniya bilan, ushrlarni jon boshiga olinadigan soliqlar va boshqa to'lovlar bilan, kimxob to'n va chakmonlarni dvoryanlik yoqalari bilan almashtirish orqali bu missiyani bajarish mumkin bo'lsa?!".

O'qitish tizimi va metodikasining yangilanishi Behbudiy faoliyatida ham kuzatiladi. "Usuli jadid" maktablarida hamma o'qish huquqiga ega bo'lgan. Chor amaldorlari bu paytda Turkistondagi yangi usuldagi maktablarni biron ayb topib darhol bekittirib quyar edi. Chunki, podsho hukumati "begona xalq"ning qisman bo'lsa ham ilm-ma'rifatli bo'lishini, dunyoviy bilimlarni o'rganishini istamasdi. Yangi usul maktablarini faqat podsho hukumati emas, balki mahalliy ruhoniylar, eski maktabning domlalari ham yoqtirmas edilar. Ular yangi usul maktablari "islom diniga rahna soladi", "bu maktablarning muallimlari "kofir", deb tashviquot yuritar edilar. Bunday qarash va to'siqlarga qaramasdan Behbudiy va uning maslakdoshlari "usuli jadid" maktablarida Turkiston farzandlarini o'qitish ishlarini jadal suratda olib borardilar. Maxmudxo'ja Behbudiyning "usuli jadid" maktabidagi o'qitish ishlari quyidagi tartibda olib borilar edi: "Maktab ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqich – ibtidoiy qism, deb nomlangan. Buning tahsil muddati to'rt yil. Birinchi yilida forscha va arabcha yozuv hamda o'qish o'rganilgan. Suralar yod olingan. Hisob darsi o'rgatilgan. Umuman bir yil davomida yozmoq o'qimoqni to'liq o'rganganlar. Ikkinchi yilida xaftiyak, imon va e'tiqoddan dars, fors, turkiy va arab tilida she'rlar, qasidalar o'qitilgan. Uchinchi yilida Qur'oni Karim, islom ibodati, tajvid, Sa'diydan nasihatlar, fors va turkiy til puxta o'rgatilib, undan insholar yozdirilardi. Hisobdan turli taqsimot va ish yuritish kabi zaruriy jihatlar o'qitilgan. To'rtinchi yilida esa Kalomu Sharif, mufasssal tajvid, forsiy va turkiy nazm va nasr, axloq darsi, turkiy va forsiy til, hisob tarix, jo'g'rofiya o'qitilgan. Bu to'rt sinfni tamomlagan bolalarni muallimlarning o'zi taqsimlagan. Xohlasa ikkinchi bosqichga qoldirar, ularning o'zlashtirishlariga qarab madrasaga yuborar, bolaning o'zi xohlasa Yevropa maktablariga yuborar yoki tirikchilik uchun ishlashga yo'llanma berardi".

Maktabning ikkinchi bosqichi – rushadiya bo'lib, bunga to'rt sinf – ibtidoiy qismni tamomlaganlar o'tkazilar edi. Bu bosqichda o'qitiladigan dars va ilmlarning mundarijasi quyidagicha: birinchi yili arab tili, jo'g'rofiya, shafaqiya, fors tili,

tarjima jumla muxtasar, tarixi anbiyo va islom tarixi, Sa'diyning "Guliston", turkiy tili o'qitilgan; ikkinchi yil – arab tili, shifoxiya, tarix, islom axloq, turk tili, hisob, fors yozuvi va hokazolar; uchinchi yil – arab tili, hisob, xat yozuvi, tarix turkiy til, rus tili ham o'qitilgan; to'rtinchi yil – arab tili, rus qozixona xatlari, bo'listnoyxona xatlari, turk tili va adabiyoti, salomatlik, maktab va hayot, ishq va muhabbatsiz axloq va boshqa ko'pgina hayotiy darslar o'qitilgan.

Behbudiy maktabida har yilning oxirida tantnali imtihonlar o'tkazilib turilardi. Imtihonlarga, albatta, ota-onalar va boshqa mehmonlar ham taklif qilinardi. Bu birinchidan: "usuli jadid" maktablarini ko'proq targ'ib qilish va uning o'qish tartiblarini ko'rsatish bo'lsa; ikkinchidan: maktabni hayotiyroq qilish, ya'ni oila va maktab birligini amalga oshirish edi. Sakkizinchi sinf, ya'ni ikki bosqichni tamomlagan shogird arabcha, forsha va turkchada bimalol so'zlab yozardi. Ruschani ham o'qib, bimalol gaplasha olardi. Turkistonning boshqarma mahkamalarining barchasida ishlashga qurbi yetardi. Bu shogird maktabda muallimlik ham qila olar, tijorat bilan ham shug'ullanar, hatto muharrirlik ham qo'lidan kelardi.

Bir so'z bilan aytganda jadidchilar o'qitish tizimini va metodikasining yangilash orqali butun jamiyatni, kelajak hayotni o'zlari kutgan ozod, hur, taraqqiy etgan davlatni qurmoqchi bo'ladilar. Buning uchun ularga har tomonlama yetuk, bilimli va qudratli yoshlar zarur edi. Eskicha usul maktablari bu vazifani bajara olmasligi aniq edi. Rus-tuzem maktablarida esa maqsad, vazifa umuman boshqa tomonga qaratilgan edi. Shu sabali jadid pedagoglari bu vazifani yangi jadid maktablarida amalga oshirishni maqsad qildi. Bu yo'lda yangi darsliklar, dasturlar, nizom va yo'riqnomalar ishlab chiqdi. Munavvarqori tomonidan tuzilgan yo'riqnoma, Ismoil Gaspirinskiy darslik kitoblari va dasturlari, Behbudiyning 1907-yilda tuzilgan "Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi (Loyihaga Behbudiy "Umumiy maktablar" bobini kiritdi)" shu g'oyaga asoslangan edi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Ta'lim islohi bilan bog'liq g'oyalarning Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy tanazzuli bilan bog'liq ekanini misollar bilan izohlang.

2. “Usuli qadim” va rus-tuzem maktablariga nisbatan tanqidiy qanday qarashlar paydo bo‘ldi?
3. Ta’lim islohi va millat ma’rifati masalalarining uyg‘unligi haqida so‘zlang.
4. O‘qitish tizimi va metodikasi qanday yangilandi?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik – T.: Ma’naviyat, 2002.
2. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. –T.: Universitet 2006.
3. Dolimov U. Milliy uyg‘onish pedagogikasi. –T.: Noshir, 2012.
4. Dolimov U. Jadidchilikning tamal toshi. // Jahon adabiyoti. 2010. №1
5. Jabborov N. Ma’rifat nadir. -T.: Ma’naviyat, 2010.
6. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – T Universitet, 1999.
7. Jadidchilik va milliy istiqlool tantanasi. – T., 2002.
8. Zunnunov va b. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2002.
9. Иргашева Н.А. Просветителско-педагогические взгляды Мунаввара Кары Абдурашидханова. Автореферат дис. канд. пед. наук. – Т., 1997.
10. Ismoil Gasprinskiy va Turkiston. – T.: Sharq, 2005
11. Is’hoqxon Ibrat. G‘azallar, ilmiy va ma’rifiy maqolalar, tarixiy asarlar (Nashrga tayyorlovchilar: Ulug‘bek Dolimov, Nurboy Jabborov). – Toshkent: Zabarjad Media, 2022.

2-MAVZU:

JADID MAKTABLARINING TAKOMIL BOSQICHLARI VA TUGATILISHI

REJA:

- 1. Turkistonda jadid maktablarining takomili uch bosqichda – shakllanishi, taraqqiyoti va tugatilishi tarzida kechgani.*
- 2. Jadid maktablari rivojida xayriya jamiyatlarining o‘rni.*
- 3. “Usuli jadid” va “usuli qadim” kurashining metodika rivojiga ta’siri.*
- 4. Jadid maktablari rivojining hududiy o‘ziga xosligi: Qo‘qon, Toshkent, Buxoro va Xivada jadid maktablari taraqqiyoti.*

Tayanch tushunchalar: *jadid maktablari, usuli jadid, usuli qadim, o‘qitish usullari, “Tarbiyayi atfol”, xayriya jamiyatlari, yangicha usul, yangicha pedagogik qarashlar.*

Turkistonda jadid maktablarining takomili uch bosqichda – shakllanishi, taraqqiyoti va tugatilishi tarzida kechgani. Jadidlar, birinchi navbatda, maorifni, maktab va madrasalarni, ularda o‘qitish usullarini tubdan isloh qilish, ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirish, millatni ma’nan uyg‘otish uchun kurash olib bordilar. Ular o‘zbek xalqining ming yildan ortiq taraqqiyot tarixiga ega bo‘lgan tafakkur gulshanidan bahra oldilar, umuminsoniy qadriyatlarga asoslandilar, shu bilan birga, turk dunyosi xalqlarining ma’naviy rahbari Ismoilbey Gasprali o‘qish-o‘qitish, maktab va madrasa islohotiga oid fikrlari ta’sirida bo‘ldilar.

Mazkur holat Rossiya ichki ishlar vazirligining 1900-yil 31-dekabrda Turkiston o‘lkasiga yuborgan 13444-raqamli “mutlaqo maxfiy” farmoyishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Unda hukumat gubernatorlarni ogoh bo‘lishga da’vat qiladi: keyingi vaqtlarda tatar adabiyoti va matbuotida 14 millionli rus musulmonlarining ko‘p asrli turmush tarzini izdan chiqarish xavfiga sabab bo‘luvchi ruh paydo bo‘lganligi sezilmoqda. Bu ruh tatarlar hayotida katta burilishga tayyorgarlik jarayoni kechayotgani haqida taxmin qilish imkonini beradi. Vazirlik e’tiborni Gasprali faoliyatiga, yangi usuldagi maktablarda, uning darsligi asosida ona tilini

o'qitish masalasiga qaratadi. Tatarlar, deyiladi farmoyishda, islomiylik va turkiylik zaminida taraqqiyot uchun intilmoqda. Shuning uchun politsiya departamenti bu harakatni har tomonlama o'rganib, shu sohada faoliyat ko'rsatayotgan mualliflar, ularning maqolalari, "yosh turklar" bilan aloqasi, chet el markazlarida, ayniqsa, Turkiyada ularni kimlar rag'batlantirayotgani, kimlar tomonidan va qayerda yangi usul maktablari ochilgani, kimlar bunday maktablarda dars berayotgani, kimlar bu maktablarga rahbarlik qilayotgani kabi masalalar haqida keng ma'lumot so'ragan. Gubernatorlik ma'murlari Turkiston o'lkasidagi mahalliy ziyolilar faoliyatini, o'lkada kechayotgan madaniy, ma'rifiy, siyosiy ahvolni o'rganishni Nikolay Ostroumov zimmasiga yuklaydi. Chunki u o'lkada 1879-yildan buyon faoliyat yuritayotgan edi va Turkiston haqida juda ko'p ma'lumotlarni to'plashga ham ulgurgan edi. Ushbu farmoyishga binoan u "siyosiy jihatdan ishonchsiz" deb hisoblagan, jadid maktablarini targ'ib-tashviq qiluvchi maqolalar yozgan, yangi maktablar ochgan va ularda muallimlik, mudirlik qilgan Is'hoqxon Ibrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Abduqodir Shakuriy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy va boshqalar haqida ichki ishlar vazirligiga ma'lumotlar yuborib turgan.

Vazirlikning yuqoridagi farmoyishi munosabati bilan Olmaota (Verniy) shahrida o'lka rus va rus-tuzem maktablari muallimlarining katta yig'ini bo'lib o'tdi. Bu haqda Mo'minjon Muhammadjonov quyidagilarni yozadi: "Shul chog'da Tatariston, Ozarbayjon turklari bizdan burun ko'z ochib, boylarining himmati bilan yangi maktablar, boshlang'ich, yangi o'rta, yuqori (oliy) uch bosqichda madrasalar solib, ming-ming xalq bolalarini ko'zlarin Ovrupo bilimlari bilan ochmoqda edilar. Ufa shahrida "Oliya", "Usmoniya", Qozon shahrida "Muhammadiya", Orenburgda "Husayniya", Qafqazda biz otini bilmagan yana qancha maktablar, madrasalar ko'p edi. Bul yangi madrasalarni solmoq uchun yuz minglab, millionlab aqchalar ketgan, Nikolayning to'ralari, chinovniklari oldida necha dapqir so'roqlar berilgan edi... Olmaota (Verniy)da o'rus mullalarining katta yig'ini bo'ldi, shul yig'inda: "Tatarlar qozoqlar bilan sart bolalarini o'qitmasin! O'qumushli tatarlarga Turkiston o'lkasida turish uchun yo'l qo'ymaslik kerak! Chunki ular sart, qozoqlarga bilim tarqatib,

ko'zlarini va fikrlarini ochadurlar, so'ngra bizga yemak uchun Turkistonda non qolmaydur. Ikkinchi, yangi tartib bilan o'qituvchimuallimlar, purog'ramlari, o'qitadurg'on kitoblarini kimlarning asari ekanligin "inespektur"larga yozib ko'rsatmaguncha, bola yig'ib o'qutolmaydurlar!" – deb qaror berdilar. Shuning uchun hukumatning o'rus va musulmon ma'murlaridan ham imtihon ko'rish bahonasi bilan kelib-ketib turmoqda edilar".

Agar Ismoilbek Gasprali g'oyalari mohiyatiga nazar tashlasak, ularning, ayniqsa, dastlabki davrda Rossiyaning ruslashtirish siyosatiga qarshi qaratilganligi, yuksak taraqqiyotga milliylikni saqlagan holda erishishga chaqirishi sezilib turishini ko'ramiz. Jumladan u shunday yozadi: "Ovrupa bir kekxa choldir, tajribasi ko'pdir. Ulug' yoshiga hurmatimiz bor. Tajribasidan o'rganamiz. Lekin xatolarini takrorlamaymiz. Maktablarini, universitetlarini biz ham quramiz. Ammo aqllarimizni qanchalik yoritsak, qalblarimizni ham shuncha haqqoniyat bilan to'ldirmoqqa harakat qilamiz. Ovrupada nimani ko'rsak, yosh boladek olib yugurmaymiz. Esli-hushli insonlardek "bu nimadir?, Oqibati nima bo'ladi?, Vijdon va haqqoniyatga uyg'unmi?", - deya aql tarozisiga tortib olamiz. Ovrupa madaniyati mulohazasiz qabul qilaverish mumkin bo'lgan bir narsa emas". Bundan ko'rinadiki, jadidlar yevropaliklarning tajribasini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki uni faqatgina ijobiy tomonlarini qabul qilganlar.

Rossiya hukumatining turkiy xalqlarga nisbatan qo'llayotgan, ularni birlashtirish emas, aksincha, bir-biridan ajratish, parchalash siyosati Ismoilbey Gaspraliga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi, u bu siyosatga o'z munosabatini bildirdi: "Rusiyadan kelma musulmonlarning Oziyoyi Vusto (O'rta Osiyo)da mulk olmasindan Rusiya davlatining foydasi nadur? Ikki taraf birlashmasun. Rusiyali musulmonlar turkistonlilarga rahbar o'lmasun kabi g'alat bir fikr vor esa behudadir, besamardir. Musulmonlarning birligi bo'yla qoziqlar ila ayrilmas, chunki bu birlik diniydir, tarixiydir, jinsiydir. Bo'yla qoziqlarning hatto foydasi-da vordir: musulmonlarning fikrini ishlatir, ko'zlarini ochar, himmata savq edar".

Nima qilish kerak? Qora xalq ongini oqartirish, ilm-ma'rifat sari yetaklash, uni ilm, fan-texnika yangiliklariga oshno qilish lozim. Bunga esa maktab orqali, dastlab

ibtidoiy maktab orqali erishish mumkin. Mana shunday o'ta og'ir ta'qib va tazyiqlar ostida Qrimda butun turk dunyosini tilda, ishda, fikrda birlikka chaqirgan Ismoilbey Gasprali faoliyatini Munavvarqori Abdurashidxonov Turkistonda davom ettirdi. U 1901-yilda dastlab Toshkentning Shayhontohur, keyinchalik shaharning boshqa dahalarida birinchi "usuli jadid" maktablari ochdi. Bu maktab 1893-yilda Samarqandda Ismoilbey Gasprali boshchiligida ochilgan va bir necha oygina faoliyat ko'rsatgan maktabdan keyingi o'zbeklar tomonidan ochilgan usuli jadid maktablarining birinchisi edi. Turkistonda yetishib chiqqan buyuk islohotchilardan biri bo'lgan Munavvarqori Gaspralining hamma darslik va o'quv qo'llanmalari, badiiy va publitsistik asarlari bilan yaqindan tanish, siyosiy qarashlari ta'sirida bo'ldi. U jadid maktablari uchun darsliklar yaratdi, zamonaviy o'qituvchilar avlodini tarbiyalab yetishtirdi. Uning bevosita ta'sirida Mannon Uyg'urdek buyuk san'at arbobi, aka-uka Husanxo'ja va Eshonxo'ja Honiylar, aka-uka Sobirjon va Shokirjon Rahimiylar, Same'qori, Salimxon Tillaxonov, Qayum Ramazon, Shorasul Zunnun, Majid Qodiriy kabi murabbiylar yetishib chiqdilar. Munavvarqori Toshkentda ochilgan jadid maktablari uchun o'zi tuzgan dastur va darsliklarni joriy etdi, ular asosida jamoat oldida ochiq darslar va imtihonlar tashkil qildi. Bundan asosiy maqsad, birinchidan, usuli jadid maktablarini badnom qiluvchi mutaassib qadimchilarning da'volari asossiz ekanligini xalq oldida namoyish etish bo'lsa, ikkinchidan, xalq o'rtasida ilm-ma'rifatga, yangi o'qitish usuliga, zamonaviy turmush tarziga rag'bat uyg'otish edi. Shuning uchun ham Munavvarqori imtihonlarga o'quvchilarning ota-onalaridan tortib, shariat-din peshvolarigacha, hatto o'lkada katta e'tibor qozongan olimu shoirlarni, ma'rifatli boylarni ham taklif qilgan. Qo'limizda uning Is'hoqxon Ibrat va Hamza Hakimzodaga yuborgan "Da'vatnoma"si mavjud. Mana, ulardan biri:

"Hurmatlu Is'hoqxon hoji janoblarina! 1907-yil may oyidan Toshkentda Tarnovboshi mahallasida "Xoniya" maktabinda talabalarning yillik imtihoni boshlanur. Siz hurmatludan rijo qilurmizki, tavobingizda bo'lg'on usuli jadidiya maktablari mudirlari ila imtihon majlislarina tashrif qilsangiz, muallim va shogirdlar Sizdan mamnun bo'lur edilar. Muhibingiz Munavvar Qori. 15-mart 1907-yil".

Jadid maktablari rivojida xayriya jamiyatlarining o‘rni: Yangi ochilgan maktab oldidagi o‘ta murakkab va katta mablag‘ bilan bog‘liq masalalarni hal qilish uchun shirkatlar, xayriya jamiyatlari, matbaa-nashriyotlar tashkil qilish zarurati tug‘iladi. Qolaversa, millatning istiqbolida jamiyat va shirkatlarning ahamiyati katta. Bunday jamiyatlarni tashkil qilish, ular faoliyatini zamon talablariga moslashtirish borasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Hamza kabi jadidchilik harakati rahbarlari katta ishlarni amalga oshirdilar. Ularning sa’y-harakatlari bilan Toshkentda “Turon”, Buxoroda “Tarbiyayi atfol”, Qo‘qonda “G‘ayrat” xayriya jamiyatlari, o‘nga yaqin shirkatlar, nashriyotlar, kutubxonalar tashkil etildi. Bularning hammasi, birinchi navbatda, usuli jadid maktablari faoliyatini muntazamlashtirish hamda matbuot va nashriyot ishlarini yaxshilashga qaratilgan edi. Xususan, Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘lining bu sohadagi faoliyati, ayniqsa, e’tiborga loyiqdir. U jamiyat ochish qonun-qoidalari, jamiyatning maqsad va vazifalari haqida maqola ham yozdi. Uning “Jamiyat qanday ochilur?” maqolasida quyidagilarni o‘qiymiz: “Maktabni ochub qo‘ya qolg‘on ila ish bitmasligi, balki aning farqi va davomi uchun moddiy va ma’naviy yordam va ma’voanatlar, g‘ayrat himmatlar lozim ekanligi anglashilmishdur. Buning uchun eng yaxshi chora jamiyatni tuzmishlar. Ya’ni rasmiy bir qonun doirasida xalqdan iona yig‘ib ochilmish va ochiladurg‘on maktab va dorilulumlarning nuqson va ehtiyojlarin yengillik ila isloh qilmoq va ado qilmoq usulini ijob etmishlar. Bora-bora bu jamiyat shu qadar taraqqiy qilmish va rahmat kasb qilmishki, madaniy millatning butun taraqqiyoti diniya na ehtiyojyoti milliyalar uchun eng ishonchli suyanchiq va muttakoyi ettihoz o‘linmish va ularda madaniyat narvonining birinchi bosqichi maktab, ikkinchisi jamiyat ekan, hozir ko‘b yerlarda maktabni ikkinchilikka qoldirub, birinchi bosqichlik nomi muqaddasasini jamiyat o‘zina olmishdur”.

Munavvarqori va Abdulla Avloniyilar 1909-yilda Toshkentda ilk bor ochilgan “Jamiyati xayriya”ning asoschilari bo‘ldilar. Bu haqda Mo‘minjon Muhammadjon o‘g‘li - Toshqin quyidagilarni yozadi: “Shahrimizda musulmon yoshlari tomonidan yangi ochilgan “Jamiyati imdodiya” otliq bir ko‘mak jamiyati bor edi. Buni boshlab ochuvchilar: 1) Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li, 2) Bashirulloxon Asadullaxo‘ja

o'g'li, 3)Mulla Abdulla Avloniy, 4)Nizomqori Mulla Husayn o'g'li, 5) Toshxo'jahoji Tuyoqboy o'g'lilari ekanlar. Buni ochishdan maqsadlari nodon o'zbek xalqini bilim bilan oqartish bo'lsa, jamiyatnning raisi Saidkarimboy Saidazimboy o'g'li ekan".

Bir oz vaqt o'tgach, bu jamiyatning muassislari safiga jadid pedagog-maktabdorlari Rustambek ibn Yusufbek hoji va Husanxo'ja Dadaxo'ja o'g'li, savdogar boylardan Komilbek va Karimbek Norbekovlar ham qo'shildilar. Bu jamiyatning faoliyat doirasi ancha keng bo'lib, jadid maktablarini iqtisodiy jihatdan ta'minlash, iqtidorli talabalarni taraqqiy etgan chet el oliy o'quv yurtlariga yuborish kabi masalalar uning asosini tashkil qilgan.

1913-yilda Abdulla Avloniy va Munavvarqori "Jamiyati xayriya" zaminida Toshkentning ma'rifatparvar ziyolilari, boylari bilan birgalikda "Turon" jamiyatini vujudga keltirdilar.

Abdurauf Fitrat tarjimayi holiga nazar tashlar ekanmiz, "Tarbiyati atfol" tahsil va ijod bilangina mashg'ul bo'lib qolmay, Turkiyada o'qiyotgan vatandosh o'quvchi-talabalarga ham iqtisodiy, ham ma'naviy yordam ko'rsatish, Buxoro va Turkistondan talabalar kelishini ko'paytirish va muntazamlashtirish maqsadida jamiyat tuzishga kirishadi. Bu haqda Zaki Validiy To'g'on quyidagilarni yozadi: "Bu jamiyat ("Tarbiyai atfol" jamiyati ko'zda tutilmoqda — U.D.) Istanbulda bir shu'ba ocharoq, unga 1911-yilda 15, 1912-yilda 30 nafar talaba yubordi. Bu shu'ba "Buxoro ta'mimi maorif jamiyati" ("Buxoro umumiy maorif jamiyati") nomi bilan rasmiy bir jamiyat shaklini oldi. 1910-yilda Eron yo'li bilan Istanbulga kelgan Fitrat ila Muqimiddin va Rusiya yo'li bilan kelgan Usmonxo'ja, g'uljalik Abdulaziz, Sodiq Ashur o'g'li bu jamiyatning quruvchilari edi".

Ushbu jamiyat faoliyati davomida ellikdan ortiq buxorolik va turkistonlik talabalarga yordam ko'rsatdi. "Buxoro ta'mimi maorif jamiyati" o'zbek yoshlarining Turkiyaga kelishini ko'paytirish va muntazamlashtirishda, ularni ham iqtisodiy, ham ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda katta ahamiyat kasb etdi.

"Usuli jadid" maktablari taraqqiyotini nashriyot-matbaalarsiz, kutubxonalarsiz tasavvur etish qiyin. Bu holni yaxshi tushungan jadid mutafakkirlari matbaa-nashriyotlar, ular qoshida maktablarni zamonaviy o'quv adabiyotlari, darsliklar bilan

ta'minlash maqsadida kutubxonalar tashkil qildilar. 1913-yilda Mahmudxo'ja Behbudiy "Nashriyoti Behbudiya" va uning qoshida "Kutubxonai Behbudiya", 1915-yilda Hamza Qo'qonda "G'ayrat" kutubxonasini tashkil qilgan. Hamza "G'ayrat" kutubxonasi yordamida Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abduvahob Ibodiy darsliklaridan o'nlab nusxa olib, "usuli jadid" maktablariga tarqatgani ma'lum.

Is'hoqxon Ibrat 1908-yilda "Matbaayi Is'hoqiya" nomida matbaa-nashriyot, uning qoshida "Kutubxonai Is'hoqiya" tashkil etdi. Kutubxonaning maktabga oid bo'limida I.Gasprinskiyning "Xo'jayi sibyon", "Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh" nomli alifbo va metodik asarlaridan tortib, XX asr boshlarida o'lkada nashr etilgan o'nlab alifbo va turli darsliklar bor edi. Afsuski, 30-yillar qatag'onida kutubxona ham yo'q qilindi.

Darhaqiqat, usuli jadid maktablari faoliyat doirasining kengayib borishida, ularni darsliklar, o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlashda, iqtidorli yoshlarning taraqqiy etgan chet el oliy o'quv yurtlarida ilm olishlarida xayriya jamiyatlari, nashriyot-matbaa va kutubxonalar katta madadkor bo'ldi.

"Usuli jadid" va "usuli qadim" kurashining metodika rivojiga ta'siri. Munavvarqori Abdurashidxonov jadid maktablarining kundalik o'quv-tarbiya ishlaridan tortib, yillik bitiruv imtihonlarini uyushtirishgacha, "usuli savtiya" yo'lini qobiliyatli yosh o'qituvchilarga o'rgatishdan tortib, maktablarni zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlashgacha bo'lgan uzluksiz jarayonni boshqardi. Uning bu faoliyati davrining ulug' mutafakkirlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Mahmudxo'ja Behbudiya'dek jadidchilik harakatining karvonboshisi unga madadkor bo'ldi. Behbudiya'ning bu boradagi so'zlariga e'tibor bering: "Turkistonda muallim chiqarmoq uchun dorilmuallimin bo'lmasa ham, har shaharda usuli ta'limdan xabardor bir-ikki nafar muallim albatta bordur. Ana, muallimlikka tolib kishilarni alarning huzuriga yuborib, 3-4 oy zarfida usuli ta'limdan xabardor qildurmoq mumkindur. Agar boyafarz, ushbu xizmatni muallimlarimiz iltizom qilsalar, ul holda muallimlikka havaskor yoshlarni bir oz zahmatlik bo'lsa ham, to'g'ridan-to'g'ri Toshkandda Munavvar Qori janoblarining maktabiga yubormoq kerakdurki,

mushoran alayhning munday toliblarni mamnuniyat ila qabul etmoqlarig‘a amindurmiz. Ishda, muhtaram qarindoshlar, millatimizning tilagi va eng zo‘r ehtiyoji ushbu shaylar ediki, nazari oliylaringiza arzu taqdim etduk”.

Bunday tadbirlar jadid maktablarining o‘lka bo‘ylab keng tarqalishida muhim ahamiyat kasb etdi: 1903-yilda Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Abduqodir Shakuriy, Said Alizoda, Qo‘qonda Abdulvahob Ibodiy, Ashurali Zohiriy, Hamza, Po‘latjon Qayumiy, Namanganda Ishoqxon Ibrat, So‘fizoda, Buxoroda Abdulvohid Munzim, Sadriddin Ayniy, Xorazmda Husayn Kushayev, Boboovun Salimovlar boshchiligida usuli jadid maktablari tarmoqlari kengayib bordi.

Bunday maktablar dastlabki vaqtlarda hukumat ruxsatisiz ochila boshlagan edi, keyin ularning ochilishi, butun faoliyati to‘la gubernatorlik nazoratiga o‘tdi. Jadid maktablarining faoliyati endi nihoyatda og‘ir kecha boshladi. Bir tomondan, mutaassib ulamolar, “usuli qadim” tarafdorlari “usuli jadid” maktablariga qarshi turli-tuman bo‘htonlar uyushtirdilar, muallimlarini esa hatto kofirlikda aybladilar, xalq bolalarini bunday maktablardan qaytarishga harakat qildilar. Shu o‘rinda Samarqandning Ulug‘bek madrasasi jomesida 5-6 ming namozxon o‘rtasida mutaassiblarning shoir va pedagog Siddiqiy-Ajziy va Abduqodir Shakuriylarni kofirga chiqarishlarini, Mirmuhsin Shermuhamedov va So‘fizodalarni sazoyi qilib, o‘z Vatanidan quvg‘in qilishlarini esga olish o‘rinlidir. Mutaassiblarning bunday xatti-harakatlari, ikkinchi tomondan, bundan ham dahshatliroq kuch bo‘lmish mustamlakachi ma’murlarning ta‘qib va tazyiqlariga katta yo‘l ochib berdi. Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li siyosiy tashkilotlarning uzluksiz so‘rovlariga javob berishga, do‘q-po‘pisalariga, qamoqlariga chidashga majbur bo‘ldi. Shuning uchun ham “usuli jadid” maktablarining taraqqiyoti va ko‘lamining kengayishi, ayniqsa, mustamlaka Turkiston o‘lkasi sharoitida ancha og‘ir kechdi. Bu haqda Munavvarqorining sobiq o‘quvchisi, Anqara universitetining professori Ibrohim Yorqin (Ibrohim Orifxon o‘g‘li – 1902-1993) xotiralarida quyidagilarni yozadi: “1913-yilda Eshonxo‘ja Xoniyning maktabini bitirgach, Munavvarqorining ikki sinfli rushdiy maktabida o‘qigan yillarimizda Rusiya idorasi o‘quv inspektorlari maktabimizga to‘satdan kelib, foydalanayotgan kitoblarimizni tekshirardi. Ularning

maqsadlari bizning maktabda mavjud bo'lgan darslik va boshqa o'quv kitoblarining Rusiya idorasi nuqtayi nazaridan zararlimi yoki yo'qmi, shularni tekshirish edi”.

Har qanday ta'qib va tazyiqlarga, mutaassib ulamolarning dashnomlariga, bo'htonlariga qaramay, jadid maktablari xalq e'tiborini qozonishi, ayniqsa, musulmon qardoshlarning bu boradagi hamjihatliklari, hamkorliklari general-gubernatorlik siyosatdonlari, mafkurachilari faoliyatini yanada kuchaytirdi. 1909-yilda Nikolay Ostroumov “Туркистанский видомости” gazetasida “Что делать с новометодными мактабами?” nomli maqolasini e'lon qildi. Unda muallif quyidagilarni yozadi: “Rus ma'muriyatining yerliklar eski maktablariga nisbatan qo'llagan mensimaslik, nazar-pisand qilmaslik siyosati o'lkadagi hukmronligimizning dastlabki o'n yilligida o'zini oqlagan bo'lishi mumkin. Ammo keyingi uch o'n yillikda bu siyosat o'zini oqlamaganini hech narsa bilan yashirib bo'lmaydi. Mana, chindan ham pushaymon bo'ladigan voqea sodir bo'ldi. Biz o'lkada... katta qiyinchiliklar bilan bir necha rus-tuzem maktabi ochganimizda, boshqalar tashqaridan (Qrimdan) katta g'ayrat bilan o'lka maorifi uchun boshqa bayroq ostida mustaqil faoliyat olib bordi. Bu yangi usul maktablari ma'muriyatning hech qanday ruxsatisiz ochila boshladi va ajablanarli, yo'l qo'yib bo'lmaydigan tomoni shundaki, hozir ham bunday holat oblast, uezd ma'muriyatlari, hatto hukumat maktablar inspektsiyasi nazoratisiz davom etmoqda”.

Chor hukumatining mustamlaka o'lkalarda qo'llagan maktab sohasidagi siyosati shunday ediki, iloji boricha, usuli jadid maktablarini taqiqlash, juda bo'lmaganda, ularning keng tarqalishiga to'sqinlik qilish, shu yo'l bilan bunday maktablar rivojlanishining oldini olish edi. Turkiston o'lkasiga nisbatan Tatariston, Boshqirdiston, Qrim va Kavkaz o'lkalarida ancha ilgari bunday jarayon kechgan va ularga qarshi kurashda ma'muriyat katta tajriba orttirgan edi. Bu o'lkalarda ham usuli jadid maktablariga birinchi bo'lib mutaassib ulamolar, “qadimchi”lar qarshi chiqqan edilar. General gubernatorlik ma'muriyati usuli jadid maktabdorlariga oppozitsiyada bo'lgan mahalliy mutaassiblar, “qadimchi”larni qarshi qo'ydi, bu kurashda ularni rag'batlantirdi, bu maktablarga, ularning tashkilotchilariga qarshi turli bo'htonlar, siyosiy aybnomalar uyushtirdi. Bu bilan gubernatorlik ma'muriyati, birinchidan,

mustamlaka xalqlarini asriy qoloqlikda, mutelikda asrashdek qabih niyatini amalga oshirgan bo'lsa, ikkinchidan, o'zini musulmon dini himoyachisi sifatida ko'rsatdi. Chor hukumati ma'murlari o'zbek ziyolilarini bir-biriga qarama-qarshi ikki qutbga ajratib tashladilar, an'anaviy mahalliy masjid-madrasalarning, eski maktablarning ko'payishiga katta imkoniyat yaratdilar. Turkiya, Bog'chasaroy, Ufa, Qozon, Tiflis, Orenburgdan keladigan nashrlarning tarqalishini qattiq nazorat ostiga oldilar. Bu bilan gubernatorlik ma'murlari mustamlakachilik mafkurasining ustunlaridan bo'lmish missionerlar rahnamosi N.Ilminskiy ko'rsatmalariga amal qildilar. Gubernatorlik ma'murlari ma'rifat fidoyilariga qarshi kurashda, ularni xalq o'rtasida badnom qilishda eng qabih usullardan ham qaytmaganlar. Keksalarning xabar berishiga qaraganda, 1908-yili N.Ostroumov Samarqandda Ulug'bek madrasasi jomesida bir necha ming nomozxon huzurida usuli jadid maktablarida o'qiyotgan yoshlar musulmon dini ahkomlariga amal qilmay qo'yayotganliklari, bunday maktablarda islom diniga xilof ilmlar o'qitilayotgani haqida "kuyunib" ma'ruza qilgan. Qora xalq, mutaassib ulamolar uning ma'ruzasidan qattiq mutaassir bo'lib, "g'ayridin bo'lsa ham bizga, dinimizga qanchalar mehribon" deb, ko'zlariga yosh olib, duo qilgan ekanlar. Usuli jadid maktablarida dunyoviy fanlar bilan barobar ona tili va milliy ma'naviyatning chuqur o'qitilishi gubernatorlik ma'murlariga yoqmas edi.

1905-yil voqealari jadidchilik harakatining yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishiga hamda milliy matbuotning vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Turk, tatar, ozarbayjon, boshqird mutafakkirlari bilan aloqalar yanada mustahkamlandi. Jadid maktablari soni mahalliy maktabdorlar, hur fikrli ziyolilar sa'y-harakati hisobiga ancha ortdi. Bu hol mustamlakachilarning jadid maktabdorlariga qarshi kurashini yanada faollashtirdi. Farg'ona viloyati xalq o'quv yurtlari inspektori O. Yegorov 1909-yilda Turkiston o'lkasidagi rus-tuzem maktablarining ahvoliga bag'ishlangan maxsus kengashda kuyunib shunday degan edi: "Yaqin kelajakda yangi usuldagi mahalliy maktablarning keng yoyilishi va ularga nisbatan mahalliy aholi e'tiborining keskin ortib borishi bilan rus-tuzem maktablari batamom xarob bo'ladi".

Usuli jadid maktablarini butunlay yopib qo'yish yoki taqiqlashdan gubernatorlik ma'muriyati qo'rqar edi, chunki bu ish bunday maktablarni yashirin ravishda tashkil qilishga, ayniqsa, mahalliy xalqning qattiq norozilik harakatiga olib kelar, ko'plab yoshlarning chet elga, birinchi navbatda, Turkiyaga borib o'qishiga yo'l ochilar edi. Shuning uchun mahalliy pedagoglarning "usuli savtiya" ("tovush usuli") metodiga asoslangan maktablarni ochishi gubernatorlik ma'muriyati tomonidan qattiq nazorat ostiga olindi. Shu munosabat bilan 1909-yilda Turkiston o'quv okrugi qoshida maxsus komissiya "Farmoyish" ishlab chiqdi. U shunday masalalarni o'z ichiga olgan edi:

1. Mahalliy maktablar gubernatorlik ma'muriyatining maxsus ruxsatnomasi bilan ochiladi.
2. Mahalliy maktablarni ochish va unda o'qitish siyosiy jihatdan to'la ishonchli bo'lgan Rossiya fuqarolarigagina ruxsat etiladi.
3. Mahalliy maktab qaysi millat bolalari uchun ochiladigan bo'lsa, uning o'qituvchilari ham o'sha millatga mansub bo'lishi shart.
4. Mahalliy maktablarda faqat Rossiya senzurasini ruxsati bilan chop etilgan kitoblarga o'qitiladi.
5. Ma'muriy politsiya idoralarida ishlovchi mas'ul shaxslar zimmasiga barcha mahalliy musulmon maktablarini aniq ro'yxatga olib borish va ro'yxatdan o'tmagan maktablarning faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'yimaslik vazifasi yuklatiladi.
6. Maxsus ruxsatsiz maktab ochgan shaxslar maktab ochish va o'qituvchilik ishidan abadiy mahrum etiladi.
7. Mahalliy maktablardagi o'qitish ishlari va ularda joriy etilgan tartib-qoidalarga rioya etilishi ustidan nazorat qilib turish mahalliy ma'murlarga hamda maktab nozirlariga yuklatiladi.

Farmoyishning hamma moddasi yangi maktablar ochishga qarshi qaratilgan katta to'siq edi. Uchinchi moddadagi ta'kidga ko'ra, o'quvchilar qaysi millatga mansub bo'lsa, maktab ochuvchi muallim ham o'sha millatga mansub bo'lishi kerak. Bu bilan ichki Rossiyadan kelgan tatarlar tomonidan ochilgan va ochilayotgan "usuli

jadid” maktablarining faoliyati to‘xtatildi. Natijada, bunday maktablarining soni keskin kamayib ketdi.

Yuqorida tilga olingan farmoyish asosida Turkiston o‘lkasidagi bir necha maktablar yopib qo‘yildi, o‘qituvchilari tintuv qilindi. Usuli jadid maktablari gubernatorlikning mana shunday og‘ir ta‘qib va tazyiqlari ostida faoliyat ko‘rsatishga majbur bo‘ldi. Jadid mutafakkirlariga qarshi olib borilayotgan bunday ta‘qiblar haqida Sadri Maqsudiy 1912-yilda uchinchi chaqiriq Rossiya Davlat dumasi minbaridan turib quyidagilarni bayon qilgan edi: “Har bir millatning o‘ziga xos muqaddas, qadrli odatlari mavjud. Adolatli davlat xalqlarning bunday qadriyatlariga qarshi hech vaqt daxl qilmaydi. Bular millatning tili, badiiyati, maktabi va boshqalardir. Bizning hukumatimiz esa turkiy millatlarning muqaddas odatlariga qarshi muntazam ravishda tajovuz qilib turadi: maktablarimiz, adabiyotimiz, badiiyatimiz ta‘qib ostiga olinadi. Faqat bir yil davomida 150 dan ortiq eng e‘tiborli o‘qituvchilar, mullalarning uylari tintuv qilindi. Qo‘qon shahrida mahalliy inspektor farmoyishi bilan 20 ga yaqin maktab yopildi va o‘qituvchilari haydab yuborildi. Toshkentda Munavvarqoriga madrasa qoshida rus sinfi ochishga ruxsat berilmadi, Namanganda Husan Makayev o‘qituvchilik ishidan chetlashtirildi”.

Darhaqiqat, jadid shoiri To‘lagan Xo‘jamyorov Tavallo ilk o‘zbek teatri truppasi a‘zolariga nisbatan “Kimni sahnada ko‘rsang, ani jasorati bu” deb yozgan so‘zlari bevosita usuli jadid maktablari ochgan pedagoglarga ham taalluqli bo‘lib, bu ish chinakam jasorat va fidoyilik edi. General-gubernatorlik ma‘murlari usuli jadid maktablarining keng quloch yozishiga qanchalik to‘siqlar qo‘ymasin, tabiiy-tarixiy jarayonni to‘xtata olmadi.

“Usuli jadid” nomini olgan “usuli savtiya”ga asoslangan maktablar mohiyat e‘tibori bilan “rus-tuzem” maktablariga qarshi vujudga keldi. “Usuli jadid” maktablarida milliy ma‘naviyati yuksak, millat, Vatan istiqboli uchun jon kuydiruvchi yoshlarni tarbiyalab yetishtirish birinchi o‘rinda turgan. Jadid pedagoglarining buyuk xizmatlari shundaki, ular maktablarda ona tilida ta‘lim-tarbiya berishga, milliy adabiyot, musulmon dini va ma‘naviyati asoslarini o‘qitishga hal qiluvchi masala sifatida qaradilar. Chunki ular millatning o‘zligini saqlovchi

asosiy vosita ona tili va milliy adabiyot deb bildilar. Cho'loning "Kecha va kunduz" romanidagi Miryoqub bilan jadid Sharafiddinxo'jayev o'rtasida kechgan suhbatni eslang.

1905-yildan keyin g'ayriruslar (turkiy xalqlar) maorifi muhokamasi yana jiddiy tus oldi. Rossiya maorif vazirligidagi korchalonlar musulmonlar uchun ochilgan va ochilayotgan davlat tasarrufidagi maktablarida ona tilini kirill alifbosida o'qitish masalasini ko'tardilar. Bunga qarshi "Tarjimon" gazetasi yozadi: "Ey go'spo'dalar, aqla murojaat eting. Bizim o'z alifbomiz vor: ham diniydir, ham dunyoviydur. Ruscha va fransuzcha o'qiymiz, lekin o'z alifbomizni hech bir vaqt, hech bir o'rinda tark etmaymiz... Bu ishda mantig'sizlig'g'ami taajjub edalim yoki izhor o'linan haqoratami hayron o'lalim?!".

Rossiya imperiyasi tasarrufidagi turkiy xalqlarni ruslashtirishga qaratilgan Ilminskiy usulini Turkiston o'lkasi ta'lim-tarbiya tizimiga tatbiq qilar ekanlar, ularni "usuli qadim" tarafdorlari emas, "usuli jadid" ijodkorlari, tarafdorlari qattiq tashvishga soldi. Buning sabablarini Ilminskiyning o'zi shunday izohlaydi: "Taraqqiyot sari yuz tutib, isloh bo'layotgan musulmonlik G'arb madaniyati keltirib chiqargan texnik imkoniyatlardan foydalansa, shu bilan birga, zamonaviy maktablar ochishga kuchini safarbar etsa, u yangi tarixiy bosqichga chiqadi va nasroniylik uchun jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli Gasprinskiy ilgari surayotgan jadidchilik oqimiga qarshi chiqishga majburmiz. Rus hukumati va ziyolilari jadid maktablarining ochilishiga ruxsat berish bilan o'zlari o'tirgan daraxt shoxini kesmoqdalar".

Mana shunday og'ir sharoitda o'zbek jadid pedagoglari ona tili hamda milliy adabiyotni o'qitishga millatning hayot yoki mamoti masalasi sifatida qaradilar, ona tili va adabiyot o'qitishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqdilar. Bunday masalalar ularning darsliklarida o'z ifodasini topdi. Milliylik va milliyat masalasi Behbudiy, Munavvarqori, Avloniy, Fitrat kabi mutafakkirlar faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Mahmudxo'ja Behbudiyning bu haqdagi so'zlariga e'tibor bering: "Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib taraqqiyni boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har millat, eng avvalo, makotibi ibtidoiysini

zamoncha isloh etib ko'payturmaguncha, taraqqiy yo'lig'a kirub, madaniyatdin foydalanmas. Binoan alayh, yer yuzidagi barcha millatlar o'z bolalarini ibtidoiy tarbiyasig'a va maktablarining har jihatdan intizom va akmolig'a ahamiyat berib, bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suratda yetushdururlar. Aning uchundurki, o'zga millatlar diniy va milliy hissiyotg'a molik bo'lub, har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutarlar".

Jadid maktablari rivojining hududiy o'ziga xosligi, Qo'qon, Toshkent, Buxoro va Xivada jadid maktablari taraqqiyoti. Usuli jadid maktabdorlari to'siqlar, ta'qib va tazyiqlardan cho'chimadilar, ular o'z faoliyatlari doirasini kengaytirib bordilar. Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Farg'ona vodiysi shaharlarida faoliyat ko'rsatayotgan mutafakkirlar bilan aloqa bog'ladilar. Qrim, Turkiyaga talabalar yuborish, o'z saflarini o'sib kelayotgan bilimli yoshlar hisobiga mustahkamlashga kirishdilar. Buxoroning ilg'or kuchlarini birlashtirish uchun jamiyat kerak edi. 1909-yilda Buxoro jadidlari "Tarbiyati atfol", ("Bolalar tarbiyasi") nomli yashirin jamiyat tuzdilar. Bu jamiyatning sa'y-harakati bilan usuli jadid maktablari yana birin-ketin ochila boshladi. Jamiyat nizomida siyosiy masalalar o'z ifodasini topmagan bo'lsa-da unga Buxoro amirligi siyosiy tuzumini, davlat ma'muriyatiga ilg'or yoshlardan kiritish va shu yo'l bilan davlat siyosiy tuzumida ilg'or o'zgarishlar yasash ko'zda tutilgan edi.

Milliy uyg'onish harakati Buxoro amirligida Turkiston o'lkasiga nisbatan kech vujudga keldi. Buning obyektiv sabablari bor. Buxorodagi mutaassiblik va uni rag'batlantirgan mustamlakachilar o'lka taraqqiyotining dushmanlari edi. Shunga qaramasdan, jadidchilik harakati Buxoroda shiddat bilan rivojlandi, hatto uning siyosiy bosqichga ko'tarilishi Turkiston jadidlariga nisbatan oldinroq kechdi. Bu jarayonda, ayniqsa, Abdurauf Fitrat va Fayzulla Xo'jayevlar katta faoliyat ko'rsatdilar. Shu ma'noda, Buxoro amirligida jadid maktablarining keng quloch yozishida Fitratning "Munozara", "Hind sayyohi bayonoti" asarlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Vatanimiz tarixida XIX asrning ikkinchi yarmida hukmronlik qilgan xonlar orasida hech biri adabiyot va san'at, ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, mamlakat

obodonchiligi sohasida Muhammad Rahimxon Feruzchalik faoliyat ko'rsatgan emas. Ma'rifatparvar hukmdor 47 yil xonlik qildi, dastlabki o'n yil mustaqil xon sifatida, ammo Rusiya mustamlakachilik siyosati eng yuqori bosqichga ko'tarilgan bir davrda, 37 yil Rusiya imperiyasining vassali sifatida faoliyat ko'rsatdi. U butun hukmronligi davrida ulug' ustoz, Turonzaminning buyuk mutafakkiri Muhammad Rizo Ogahiyning raiyatni ma'rifat nuridan bahramand qilish haqidagi o'gitlariga izchil amal qildi;

Bu so'zlarnikim, men bayon ayladim,

Necha bayt birla ayon ayladim.

Bularga sayu shahki qilsa amal,

Oning mulkiga yetmas aslo xalal.

Hukumat binosi bo'lur ustuvor,

Oning xonadonida tutg'ay qaror.

Shaho, olam ichra bugun shohsen,

Burundin bu so'zlarga ogohsen.

Umidim budurkim, amal qilg'aysen,

Amal aylamakda jadal qilg'aysen.

Muhammad Rahimxon Soniy o'zbek xonlari orasida birinchi bo'lib Xivada 1873-yilda litografiya tashkil qildi, ulug' mutafakkirlar Alisher Navoiy, Abulg'oz Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy asarlarini chop ettirdi. O'lkada mavjud tarjima maktabini yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tardi, yosh avlod tarbiyasi masalasiga katta ahamiyat berdi. Feruzning bevosita rahnamoligida Muhammad Rizo Ogahiy Sharqning buyuk mutafakkirlari Unsurulmaoliy Kaykovusning "Qobusnoma", Shayx Muslihiddin Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", Zayniddin Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe" kabi pedagogikaga oid asarlarini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qildi. Ogahiy "Qobusnoma" tarjimasi muqaddimasida Muhammad Rahimxonning bunday rahnamoligi haqida quyidagilarni yozadi: "Amir Unsurulmaoliy Kaykovus binni Iskandar binni

Vushmagirning o‘z o‘g‘li Gilonshoh uchun jam qilg‘on nasihatnomasi ul shahzodayi ozodaning nazari anvori mutolaasig‘a yetishdi va musaffo xotirig‘a uni turkiy til bila tarjima qildirmoq tamannosi tushdi. Bu bandayi faqir Muhammad Rizo mirob Ogahiy bir kuni ul janob majlisig‘a borib, duo sharoitin taqdimig‘a yetkurdim va ul janobning lozimul bashorati bila ham ul majlisning bir go‘shasida o‘ltirdim. Darhol menga necha turlik mehribonliklar ko‘rguzib, mazkur “Nasihatnoma”ni ilkimga berib dediki: “Bu nusxani turkiy til bila tarjima qil, toki turk tavoyifining avomi ham bu pandlardin bahra olg‘ay va bizning otimiz, sening so‘zing olam inqirozig‘acha zamon avroqida boqiy va yodgor qolg‘ay”.

XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva xonligida ham Buxoro va Qo‘qon xonliklaridagi kabi ibtidoiy maktablarning ahvoli juda nochor edi. Bu maktablarda 4-5 yil o‘qib, hatto savod chiqara olmas edilar. O‘zbek pedagogikasi tarixida nihoyatda mushkul bo‘lgan bu masalaga qo‘l urgan va muvaffaqiyatli hal qilgan mutafakkir Shermuhammad Munis bo‘ldi. Uning “Savodi ta’lim” asari 1804-yilda yaratilgan bo‘lib, XX asr boshlarida A.O.Porsev tipolitografiyasida “Savodi ta’lim ma’guldastai rayohin” nomi bilan bir necha marta nashr etildi. Ushbu asar bolalarni husnixatga o‘rgatish maqsadida yaratilgan bo‘lsa-da, bir necha o‘n yillar davomida “usuli savtiya”, hatto ilg‘orroq bo‘lgan “usuli qadimiya” maktablari uchun yaratilgan alifbo darsliklari bilan birga savod chiqarish bo‘yicha qo‘llanma sifatida foydalanib kelindi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Buxoro amirligiga nisbatan Xiva xonligida Muhammad Rahimxon Soniy va mirzaboshi Komil Xorazmiy rahnamoligida usuli jadid maktablari ancha erta ochila boshladi. 1891-yildayoq ulug‘ mutafakkir Komil Xorazmiy tashabbusi bilan Urganchda birinchi usuli jadid maktabi ochildi. Ushbu maktab xalq o‘rtasida katta e’tibor qozondi, unda dastlab 25 o‘quvchi ta’lim oldi.

Xivada ochilgan ushbu “Maktabi mahramiy” va “Maktabi jadida”da 113 nafar talaba 1907-yil 28-mayda valiahd Asfandiyor va devonbegi huzurida, 31-mayda esa qozilar, oxund (mudarris)lar, muftiylar huzurida imtihon topshirdilar. Imtihon ahli Xiva va Urganchda yana ikki usuli jadid maktabi ochish va Qozondan yana ikki muallim taklif qilishga qaror qildilar. Xonlikdagi yangi maktablar noziri Ramazon Muhammad Karimzoda bu qarorni barchaga e’lon qildi.

Muhammad Rahimxon Feruz vafotidan keyin taxtga o'tirgan Asfandiyor ham usuli jadid maktablari rivojiga katta hissa qo'shdi. Ayniqsa, devonbegi Said Islomxo'ja bunday ma'rifiy ishlarga bosh bo'ldi. Qozondan muallimlar taklif qilish, ular yordamida usuli jadid maktablari ochish davom etdi. XX asr tongidayoq Islomxo'ja zamona talablariga hamohang holda o'z hisobidan ikki qavatli usuli jadid maktabi qurdirdi, rus, tatar muallimlarini jalb qildi. U bunday faoliyati tufayli "Vaziri akbar" degan sharaflı unvonga musharraf bo'ldi. Uning bu faoliyati "Tarjimon" gazetasi e'tiborini o'ziga qaratdi: "Islomxo'ja iqtizoyi zamonaga ko'ra ilm va ma'rifat nashrini daxi lozim ko'rub, Xivaya ruscha va tatarcha muallimlar keltirmish va bir qoch adad usuli jadida maktablari ochdirmish edi. O'z masorifindan bir maktab bino qildirdi. Maktab islohina so'nggi yillarda cho'x xidmat etdi... Xivada ba'zi ilmlarning Buxorodan ilgarida o'lmasinda Islomxo'janing ta'siri o'ldi, demak mumkindir".

Sayid Islomxo'ja bilan Asfandiyorxon taraqqiyparvarlikda fikran bir-birlariga juda yaqin edilar, buning ustiga Asfandiyorxon Islomxo'jaga kuyov ham edi. Bunday fikriy yaqinlik natijasida xonlikning Xiva va Urganch shaharlarida zamonaviy shifoxonalar, pochta-telegraf, maorif-madaniyat maskanlari barpo etildi va ularga xonlik xazinasidan mablag' ajratildi.

Jadid maktablarining Xorazm xonligi bilan Buxoro amirligida shakllanish va rivojlanish jarayoni bir-biridan tubdan farq qiladi. Buxoro amirligida usuli jadid maktablarining keng ko'lamda tarqalishiga yuqori tabaqa - amir, qushbegi, qozikalon va mutaassib ulamolar keskin qarshilik ko'rsatgan bo'lsalar, Xiva xonligida, aksincha, bu masalada xon boshchiligidagi yuqori tabaqa farmonbardor bo'ldi, pastki tabaqa, hatto mahalliy muallimlar ancha sustlik qildi. Shuning natijasi o'laroq jadidchilik, jadid maktablari keng quloq yoza olmadi. Jadid maktabdorlari, usuli jadid pedagoglari, muallimlari xalq orasidan yetishib chiqmadi, xonlik, asosan, Qozon tatarlaridan, Turkiyadan, Boqchasaroydan darsliklar, turli o'quv kitoblari olish, muallimlar jalb qilish masalasi bilan mashg'ul bo'ldi. Bu yo'l bilangina xonlik maorifini tubdan isloh qilish mumkin emas edi. Xiva xonligidagi mavjud ahvolga "Tarjimon" gazetasi ham taassuf bildirdi: "Boqchasaroydan olingan dars kitoblari,

Qozondan chaqirilan muallimlar Xivaya yarashmayur, kelishmayur esa xivalidan muallimlar yetishdirmali va Xivada tab' o'linajoq alifbolari vujudga keltirmali. Bunda hech bir kimsa zarar ko'rmaz. Toshkand bo'yla bir chora bo'ldi".

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Yangi jadid maktablaridagi takomil bosqichlari haqidagi qarashlaringizni bayon eting.
2. "Usuli jadid", "Usuli savtiya" maktablari "Usuli qadim", "Rus-tuzem" maktablaridan uslubiy-metodik jihatidan qanday farqlanadi?
3. Xayriya jamg'armalarining yangi jadid maktablari rivojidadagi o'rni qanday bo'lgan?
4. Yangi jadid maktablarining hududiy taraqqiyot bosqichi haqida ma'lumot bering.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

5. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik – T.: Ma'naviyat, 2002.
6. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. –T.: Universitet 2006.
7. Dolimov U. Milliy uyg'onish pedagogikasi. –T.: Noshir, 2012.
8. Dolimov U. Jadidchilikning tamal toshi. // Jahon adabiyoti. 2010. №1
9. Jabborov N. Ma'rifat nadir. -T.: Ma'naviyat, 2010.
10. Baubekova G. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik g'oyalari. Ped. fan. doktori... diss. – T., 2000.
11. Behbudiy Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi: B.Qosimov). To'ldirilgan 3-nashri. – T.: Ma'naviyat, 2005.
12. Gasprinskiy Ismoilbek. Hayot va mamot masalasi – T.: Ma'naviyat, 2006.
13. Edib Halid. Usuli Jadid Akimi Jadidchiligin Kokleri. – Yedi iklim. Atalik, 2003.
14. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma'naviyat. – T.: Ma'naviyat, 2015.
15. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – T. Universitet, 1999.
16. Jadidchilik va milliy istiqloq tantanasi. – T., 2002.
17. Zunnunov va b. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2002.

3-MAVZU:
JADID - ZAMONAVIY MILLIY OLIY TA'LIM G'OYASINING
NAZARIYOTCHISI VA AMALIYOTCHISI

REJA:

- 1. Jadidlarning zamonaviy milliy oliy ta'lim tizimi haqidagi g'oyalari.*
- 2. Zamon talablari darajasidagi oliy ma'lumotli milliy kadrlar tayyorlash borasidagi amaliy harakatlar.*
- 3. Turkiston yoshlarining rivojlangan xorijiy mamlakatlarga yuborilishi.*
- 4. Munavvarqori boshchiligida Turkiston musulmon xalq dorilfununining tashkil etilishi, dorilfunun va uning Samarqand sho'basi faoliyatining yo'lga qo'yilishi.*
- 5. Ma'rifatparvar jadidlar zamonaviy oliy ta'limga doir faoliyatining tugatilishi.*

Tayanch tushunchalar: *milliy oliy ta'lim tizimi, Turkistonning tanazzuli, milliy kadrlar, xorijiy mamlakatlarga yuborish, xalq dorilfununi, Samarqand sho'basi, o'qitish tizimi.*

Jadidlarning zamonaviy milliy oliy ta'lim tizimi haqidagi g'oyalari. Ma'lumki, madrasalar qadimdan oliy o'quv yurti maqomida bo'lgan. Ularning paydo bo'lishi o'qitishda yangi usullarning vujudga kelishi bilan uzviy bog'liqdir. VIII-IX asrlarda, talabalar asosan, masjidlarda o'qitilar, ularda musulmon dini aqidalari, islomiy ilmlar (naqliy ilmlar) bilan bir qatorda, aniq fanlar (aqliy ilmlar) o'qitilar edi. Talabalarga o'qitish jarayonida aytib turilgan, ular yozganlar. Bu usul imlo usuli deb yuritilgan. X asrdan boshlab o'quv muassasalarida "imlo" usulidan voz kechildi. Shvetsariyalik arabshunos olim Adam Mess quyidagilarni yozadi: "O'qitishda yangi usullarning vujudga kelishi, o'z navbatida, yangi turdagi o'quv muassasalarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Avval aytib turib yozdirish, ya'ni "imlo" usuli o'qitishda eng yuqori daraja hisoblangan bo'lsa, X

asrdan boshlab, “tadris” (“sharh” “izoh”) usuli yetakchi bo‘lib qoldi. “Tadris” usuli o‘sha davrda qabul qilingan ilmiy munozara bilan uzviy bog‘liq edi. Natijada, bu davrga kelib madrasa vujudga keldi”.

“Usuli tadris” ko‘proq madrasalarda qo‘llangan. Natijada, yangicha o‘qitish usullari: munozara, tafsir, sharh usullari talablariga javob beradigan madrasa vujudga keldi va masjiddan ajralib chiqdi, maktablar esa masjidlarda qoldi. Madrasalar uchun maxsus binolar qurila boshlandi. Musulmon shaharlaridagi eng yirik madrasalar amirlar, shohlar, xonlar, beklar yirik mulkdorlar, shariat, din peshvolari tomonidan qurdirilgan, sharq me‘morchilik san’atining eng go‘zal an‘analari madrasalarda o‘z ifodasini topgan.

Samarqanddagi Ulug‘bek, Sherdor, Tillakori; Buxoradagi Mir Arab, Abdullaxon; Toshkentdagi Ko‘kaldosh; Xivadagi Olloqulixon, Islomxo‘ja madrasalari va minoralari musulmon sharqi me‘morchilik san’atining eng noyob namunalari. Madrasalar va masjidlariga yopishtirib nihoyatda baland va salobatli minoralar ham qurilgan. Mullavachchalar yashab o‘qishi uchun 2-4 kishilik hujralar, mudarrislar, mutavali, masjid imomi uchun xona va bir necha darsxonalar mavjud bo‘lgan. Davlat ahamiyatiga molik katta madrasalar qoshida boy kutubxona, qiroataxona, ularning ishini nazorat qiluvchi lavozim ham bo‘lgan. Masalan, Buxorodagi Mir Arab madrasasida yuzdan ortiq talaba yashashi uchun hujralar bo‘lgan. Davrning eng ulug‘ ulamolari uchun ham madrasadan bir xona (hujra) berilgan. Buyuk mutaffakkir Ahmad Donishning Mir Arab madrasasida, xorazmlik shoir, tarjimon Muhammad Yusuf Rojiyning Olloqulixon madrasasida o‘ziga alohida hujrasi bo‘lgan.

Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi Mavarounnahr va Xurosonning eng e’tiborli madrasalaridan biri bo‘lgan. U ikki qavatli bo‘lib, 55 nafar hujrasi bo‘lgan. Har bir hujra 2 nafar talaba uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uch xonadan yotoqxona, darsxona, qaznoq (oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar uchun xona) dan iborat bo‘lgan. Ulug‘bek madrasayi oliysida 100 nafar talaba ta’lim olgan. Talabalarga Samarqandning deyarli hamma ulug‘ olimlari Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug‘bek, Shamsiddin Muhammad Havofiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Alovuddin Ali

Qushchi, aniq fanlar (ilmi aqliya)dan dars berganlar va Ulug‘bek rasadxonasida ham ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar. Umuman, Ulug‘bek madrasasi bilan rasadxona faoliyati o‘rtasida yaqin aloqa bo‘lgan. Mantiq, fiqh, adabiyotshunoslik, tilshunoslik tafsir hadis ilmlaridan Fazlulloh Abulaysiy, Abulqosim Samrqandiy, Abdurahmon Jomiyilar dars bergan.

O‘qitiladigan ilmlar tasnifi, o‘qitish saviyasi, mudarrislar mavqeyiga ko‘ra madrasalar ikki bosqichga bo‘lingan: birinchisi umumiy ta‘lim beruvchi o‘quv maskani, u **madrasa** deb yuritilgan. Ushbu guruh madrasalarda ilmi naqliya - diniy ilmlar ancha chuqur o‘rganilgan, shu bilan birga, ilmi aqliya – tabiiy fanlardan umumiy ma‘lumot berilgan. Bunday madrasalar kichikroq shaharlarda, tumanlarda, ba‘zan katta mahallalarda ham bo‘lgan. Umumiy ta‘lim madrasalarini bitirgan talabalar, asosan, ibtidoiy maktablarda o‘qituvchi, masjidlarda imom, qozixonalarda mufti va boshqa lavozimlarda ishlaganlar, ba‘zan qobiliyatli, iqtidorli yoshlar madrasayi oliyda o‘qishni davom ettirganlar.

Ikkinchisi madrasayi oliya deb yuritilgan va ta‘lim tarbiyaning eng oliy bosqichi hisoblangan. Unda yuksak ilmiy maratabaga erishgan allomalar faoliyat ko‘rsatgan, bunday madrsalar asosan poytaxtlarda, ilm-fan, madaniyat rivojlangan, Bag‘dod, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda bo‘lgan. Bunday madrasalar haqida ulug‘ mutaffakkir Mahmudxo‘ja Behbudiy, “Oyna” jurnalida e‘lon qilgan maqolalarida ham ma‘lumot bergan.

Madrasalarning har ikkala guruhida arab tili sarfi (morfologiyasi), nahvi, (sintaksisi) ancha chuqur va uzoq vaqt o‘qitilgan. Chunki madrasalarda boshqa fanlar bo‘yicha o‘qitiladigan asarlar va ularning sharhlari deyarli hammasi arab tilida bitilgan va arab tilini mukammal bilish talab etilgan. Madrasalarning qanday fanlarga mo‘ljallanganligidan qat’iy nazar, ulumi naqliya (Qur’on, hadis, fiqh, tasavvuf) va u bilan bog‘liq bo‘lgan ilmlar ta‘lim dasturining asosini tashkil etgan. Ba’zi madrasalarda, ularning ixtisosiga ko‘ra, ulumi aqliya, ulumi ma‘muriya, ulumi harbiya ilmlari o‘qitilgan. Chunki ularda, asosan, davlat ma‘muriyatida xizmat qiluvchi, elchilik ishlari bilan shug‘ullanuvchi davlat arboblari yoki lashkarboshilar tayyorlangan. Shunga ko‘ra, bunday madrasalarda Unsurulmaoliy Kaykovusning

“Qobusnoma”, Nizomulmulkning “Siyar ul-muluk” (“Siyosatnoma”), Shayx Sa’diyning “Guliston” va “Bo’ston” asarlarini ancha chuqur o’rganganlar.

Zamon talablari darajasidagi oliy ma’lumotli milliy kadrlar tayyorlash borasidagi amaliy harakatlar. Madrasa ta’limining o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda arab va fors tillarini o’qitish masalasiga alohida e’tibor berilgan. Maktablarda tushunmasdan quruq yodlash asosiy o’rinni egallagan bo’lsa, madrasalarda esa o’qilgan asarni chuqur tahlil qilish, idrok qilish, mantiqiy fikrlash birinchi o’ringa ko’tariladi. Buning uchun, avvalo, arab va fors tillarini, mantiq ilmini mukammal bilish talab qilinardi. Shu nuqtayi nazardan, hozirda umumta’lim maktablari, kollej va akademik litseylar o’quv rejasiga mantiq ilmini asosiy o’quv predmeti sifatida kiritish maqsadga muvofiqdir.

Madrasalarimiz tarixidagi bunday nurli sahifalar XVI asrgacha davom etdi, temuriylar saltanatining parokandalikka yuz tutushi madrasalar hayotiga ham kuchli salbiy ta’sir ko’rsata boshladi. To’g’ri, Samarqandda Sherdor, Tillakori; Toshkentda Ko’kaldosh; Buxoroda Abdullaxon; Xivada Islomxo’ja madrasa va minoralari kabi salobatli, muhtasham madrasalar qad ko’tardi, ammo ularning dasturida naqliy ilmlarni o’qitish yetakchilik qildi. Bu davrda aqliy ilmlar Yevropani yuksaklikka olib chiqayotgan edi. Ayniqsa, o’lka chor Rusiyasi tomonidan bosib olingach, boshlang’ich va oliy ta’limdagi inqiroz yanada chuqurlashdi. Maktab va madrasalarni asrlar davomida iqtisodiy jihatdan ta’minlab kelayotgan vaqf mulklari mustamlakachilar tasarrufiga o’tdi. Maktab-madrasalarda faqat diniy ilmlargina o’qitilib, aniq fanlardan ibtidoiy bilim olmoqchi bo’lganlari uchun rus-tuzem maktablarida o’qish joriy etildi. Natijada, milliy ta’lim yo’qqa chiqarildi, bu hol uzoqni ko’ra oladigan o’zbek ziyolilarining noroziligiga sabab bo’ldi. Ular general-gubernatorlik ma’murlari ta’qib va tazyiqlari ostida inqiroz botqog’iga botgan ibtidoiy maktablar o’rnida “usuli savtiya” metodiga asoslangan “usuli jadid” maktablari tashkil qilish, madrasalarni zamonaviy ilmlar zaminida qayta tiklash, zamonaviy oliy o’quv yurtlari - universitetlar tashkil qilish uchun kurash olib bordilar. Bu ishlarning tepasida Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Saidahmad Vasliy, Abdurauf Fitrat kabi istiqlol fidoyilari turdilar.

Madrasalar islohi masalasini ham Rusiya musulmonlari orasida birinchi bo'lib kun tartibiga qo'ygan mutaffakkir Ismoilbek Gasprinskiy bo'ldi. U 1881-yilda nashrdan chiqargan "Rusiya musulmonligi" asarida, "Tarjimon" gazetasida e'lon qilgan turkum maqolalarida bu masalaga alohida e'tibor qaratadi. Avvalo, u arab tili, fiqh va aqoid kabi fanlarni ona tilida o'qitish masalasini qo'yadi: "Ona tilimizda dars o'tilmagani holda juda og'ir bo'lgan arabiy darslar fors tilida o'tilib, yana mushkul bir ahvolga qo'yilgandir. Bu ahvolda ilm tahsili va taraqqiyoti bo'ladimi? Albatta bo'lmaydi. Yilda olti oy, kunda uch soat, nazoratsiz, imtihonsiz, bir nizom va intizomsiz tahsil albatta 15-20 yil umr talab qiladi va shuncha umr ketgandan keyin ham na arab tili bizga boylik berar, na turk tilida kamolat berar".

Madrasalarda muddati tartib-intizom, belgilab qo'yilgan ma'lum o'quv muddati kerak. Darhaqiqat, islohotni madrasa tartib-intizomidan, hamma talabalar ham, domlalar ham bo'ysunishga majbur bo'lgan qonun-qoidalaridan boshlash kerak. Avvalo, talabalarni oziq-ovqat, oshpazlik, o'tin-ko'mir, umuman, tirikchilik mashaqqatlaridan ozod qilish kerak, toki ular butun imkoniyatlarini, vaqtlarini ilm olishga safarbar qilsinlar. Buning uchun madrasalarda hamma talabalar uchun umumiy oshxonalar tashkil qilish, ma'lum bir vaqtda hamma talabalar ovqatlanishi, darsga kirishi, dam olishi va ma'lum bir vaqtda darslar tugashi belgilab qo'yilishi kerak, bir so'z bilan aytganda, hamma talabalar sinf-sinflarga bo'linib, yagona jadval asosida dars olib borilishi kerak. Ismoilbek Gasprinskiy dars kunlarini ham tartibga solish, haftaning 6 kunida dars jadvali asosida 8-9 soatdan dars o'qish, yillik o'qishni 9-10 oy uzluksiz qilib belgilash va har yil oxirida yillik imtihon o'tkazish, shu yo'l bilan madrasada o'qish muddatini 5 yil qilib belgilash masalasini qo'yadi. Shu bilan birga, islohotchi mudarrislarga ham katta ma'suliyat yuklaydi. Ularning talabalarga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish uchun boshqa xizmatlardan imomlik, xatiblik ishlaridan ozod qilish, ularning iqtisodiy ta'minotini yaxshilash masalasiga alohida e'tibor beradi. Uning fikricha, o'qituvchilar va talabalar davlat tomonidan iqtisodiy jihatdan to'la ta'minlanishi kerak.

Aksincha, gubernatorlik ma'muriyati esa milliy ta'lim muassasalarini barbod qilish yo'lidan bordi. Ismoilbek Gasprinskiy so'zlariga e'tibor bering: "Nima qilmoq

kerak? Islohoti mulohaza va g'ayrat. Bugungi kunda tahsilni kengaytirmoq, maydonlashtirmoq hech mumkin emasdir. Lekin bir qancha islohotlar orqali amalga oshirish mumkin, deb o'ylaymiz. **Eng avvalo**, to'qqiz oylik tahsil yo'lga qo'yilishi kerak. **Ikkinchidan**, talabani oziq ovqat tadorigidan bo'shatib, har kuni 8-9 soat dars bilan mashg'ul bo'lishini ta'minlash kerak. **Uchinchidan**, madrasa va hujralarning sharoitlari yaxshilanib, talaba u yerda hordiq chiqarmog'i lozim. **To'rtinchidan**, talabaning osh-ovqatini tayyorlab berish kerak. Sinf-sinf qilib dars bermoq uchun guruhlarni 2-3 turli mullalarga topshirib, ular talaba va madrasa sharoitidan xabardor bo'lib, nazorat qilishlari kerak. **Beshinchidan**, har bir madrasada bir oshpaz va bir xizmatchi bo'lishi kerak. Ular ovqat tayyorlash va boshqa shu turdagi ishlar bilan band bo'ladilar. **Oltinchidan**, mudarris afandilar imomlik va xatiblik kabi ma'muriyatlardan ozod qilinib, yashashlari uchun yetarli darajada maosh va vaqf tayin qilinishi kerak. **Yettinchidan**, dars davomida ona tilimizda o'qish, yozish va ilmi hisobga biroz ko'proq e'tibor qaratish lozim. Haftada 1-2 kun arab tilida gaplashadigan kunlar madrasada boshqa tilda so'zlashish ta'qiqlanishi kerak. **Sakkizinchidan**, barcha talabalarning dars, ovqat va dam olish vaqtlari belgilanib, sinf-sinf bo'lib ma'lum vaqtlarda barchalari darsga va ovqatga borishlari lozim. Bu kabi va shunga o'xshash tartiblar bilan 10 yillik darslar 5 yilda tamomlanishi kerak. Yana boshqa islohotlar undan keyin mulohaza qilinaveradi.

Ismoilbek Gasprinskiy ushbu maqolasida madrasalarning faqat ma'muriy jihatlariga – tartib intizomigagina e'tiborni qaratadi, ularda qanday fanlar o'qitilishi, o'qitish usullari kabi asosiy masalalar haqida o'quv muassasida tartib-intizomni qonunlashtirgandan keyingina fikr yuritish mumkin bo'ladi. Umuman, madrasalarda odatda o'qish bir yilda olti oy bo'lib, o'qish davomida ro'za kunlari, Ramazon va Qurbon hayitlaridan bir hafta oldin va bir hafta keyin darslar to'xtatilgan, bu ham 6 oylik, o'qish muddatini yanada qisqartirgan. Chuqurroq e'tibor beriladigan bo'lsa, Gaspralining madrasalar islohi munosabati bilan o'rtaga qo'yayotgan talablari hozirgi zamon oliy o'quv yurtlaridagi talabalar uchun maxsus umumiy yotoqxonalar, oshxonlarni eslatadi. Talabalarga biriktirib qo'yilgan domlalar yotoqxonlarda maxsus

tarbiyaviy ishlarni olib boradilar. Yotoqxona va talabalar yashash sharoitni yaxshilashda ma'lum ishlarni amalga oshiradilar.

Turkiston o'lkasida madrasalar islohi mahalliy maktablarga nisbatan bir muncha kech boshlandi. Buning asosiy sabablaridan biri mustamlakachi ma'murlarning madrasalar islohotiga keskin qarshilik ko'rsatishi edi. N.Ilminskiy 1879-yil 29-sentabrda shogirdi N.Ostroumovga yo'llagan xatida madrasalarni aslo isloh qilmaslik, ularning dasturiga, dunyoviy, amaliy va ilmiy fanlarni kiritishga yo'l qo'ymaslikni maslahat beradi. Uning fikricha, bunday fanlar mahalliy yoshlar milliy ongining uyg'onishida asosiy vosita bo'ladi, bu esa Rusiyaning o'lkadagi hukmronligiga qarshi kurashda ular uchun qurol bo'ladi.

O'lka madrasalarining bunday parokandaligi, tartibsizligi o'zbek ma'rifatparvarlarini ancha tashvishga solayotgan edi. Aniq fanlarni egallash orqaligina o'lkani qoloqlikdan, xalqni jaholatdan qutqarish mumkinligiga o'zbek mutaffakkirlari ishonar edilar. 1880-yillardayoq Shayxovand Tahur dahasi qozisi Sharifxo'ja Poshshoxo'ja o'g'li madrasalarda fizika fanini o'qitish masalasini general-gubernator oldiga olib chiqqan edi. Sharifxo'ja va Sebzor dahasi qozisi Muhiddinxo'ja Hakimxo'ja o'g'li Toshkentning ruslar yashaydigan qismiga yaqin bo'lgan Eshonqulidodxoh madrasasida rus tilini o'qitish masalasini ko'tardilar. Ammo Ilminskiy g'oyalariga amal qilgan gubernatorlik ma'murlari ularning bu talablariga tish-tirnoqlari bilan qarshi chiqdilar.

Turkiston o'lkasi madrasalari ahvoli Orenburgda atoqli mutaffakkir Rizo Faxriddin muharrirligida chiqadigan "Sho'ro" jurnalida qizg'in muhokama va munozara mavzusi bo'ldi. Shu ma'noda, Sadriddin Ayniyning "Buxoro shahrinda tahsil", N.Yovushevning "Samarqand madrasalari", "Turkiston madrasalarinda dars programi" , A.Asmoniyning "Xiva mamalakatinda madrasalar", S.Mustafoning "Buxoro madrasalari" kabi maqolalarini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Bu maqolalarda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Qo'qon madarasalari haqida fikr yuritilib, ularning tashqi ko'rinishi me'moriy san'atning go'zal namunasi sifatida baholandi. Ammo madrasalarning ichi, ya'ni ulardagi o'quv dasturlari, darsliklari, o'qitish usullari-umuman pedagogik texnologiya tamoman yaroqsiz, zamon

talablariga javob bermaydi, deb tanqid qilindi, bor haqiqat aytili. Buxoro madrasalaridagi 18-20 yillik o'quv dasturi, talabalar umrining bekor o'tishi, o'qitilayotgan fanlarning davr ehtiyojlariga mos kelmasligi ko'p afsus bilan tilga olinadi.

XX asr boshlariga kelib, madrasalar islohoti haqida "Turkiston viloyatining gazeti" sahifalarida ham maqolalar tez-tez ko'rina boshladi. O'zbek mutaffakkirlari orasida madrasalar faoliyati, uni isloh qilish masalalari bilan ko'proq mudarris Saidahmad Vasliy Samarqandiy shug'ullandi. Uning madrasalar islohiga bag'ishlangan maqolalari "Turkiston viloyatining gazeti", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" gazetalarida, "Oyna", "Al-isloh" jurnallarida anchagina chop qilingan.

Turkiston yoshlarining rivojlangan xorijiy mamlakatlarga yuborilishi. Yuqorida keltirganimiz jadidlarninig ma'rifiy sohadagi ikkinchi vazifasi xayriya va maorif jamiyatlarini tuzish edi. Bu borada "Turon", "Jamiyati xayriya", "Tarbiyai atfol" kabi jamiyatlar ochildi. 1909-yil 12-mayda Toshkentda tuzilgan Turkiston jadidlarinig "Jamiyati xayriya" tashkiloti mahalliy yoshlarni chet ellarga o'qitish, homiylik qilish ishiga rahbarlik qildi. Uning yordami bilan yoshlar Rossiyaning Peterburg, Saratov, Qozon, Ufa, Orenburg shaharlaridagi oliy maktab va madrasalarga, shuningdek, Istambul, Qohira kabi xorijiy shaharlar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga yuborila boshladilar. Shuningdek, 1909-yil 18-iyulda Buxoro shahrida jadidlar tomonidan tuzilgan "Tarbiyai atfol" jamiyati shu yilning o'zida Fitrat, Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, Atoxo'ja, Mazhar Burxonov kabi yoshlarni Istanbulga o'qishga yo'llagan edi. Ushbu jamiyat orqali o'qishga jo'natilganlar soni 1911- yilda 15 nafar, 1912-yilda 30 nafarga yetgan.

Munavvarqori boshchiligida Turkiston musulmon xalq dorilfununining tashkil etilishi. Madrasalar islohoti masalasi zamonaviy oliy ma'lumotli mutaxassislar tarbiyalab yetishtirish masalalari bilan bog'lanib ketdi. Bu ishda, ayniqsa, Munavvarqori Abdurashidxonov, Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlar katta faoliyat ko'rsatdilar, ko'plab iqtidorli yoshlarni taraqqiy etgan davlatlar oliy o'quv yurtlariga o'qishga yuborishni rejalashtirdilar.

Ammo ular bu yo‘l bilangina Vatanni chuqur bilim va malakaga ega bo‘lgan milliy kadrlar bilan ta’minlash masalasini hal qilib bo‘lmasligini yaxshi bilar edilar. Aslida, chet ellarda o‘qib kelgan yoshlar o‘lkada ochilajak oliy o‘quv yurtlarining birinchi o‘qituvchilari bo‘lishlari kerak edi. Jadid mutaffakkirlarining ulug‘ orzusi o‘z oliy o‘quv yurtlariga ega bo‘lish edi. Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniylar tomonidan ochilgan “Jamiyat xayriya”, “Turon” jamiyatlari nizomida “ovrupocha o‘quv muassasalari ochish” moddasi mavjud edi. 1917-yil fevral voqealari, ayniqsa, 1918-yilda Toshkentning yangi shahar qismida A.V. Popov boshchiligida rus xalq universiteti (rus bolalari uchun) tashkil qilish harakatlari Munavvarqori boshchiligida musulmon yoshlari uchun ham xalq dorilfununi tashkil qilish ishlarini tezlashtirib yubordi. 1918-yil 9-aprelda Munavvarqori eng faol safdoshlari – jadid maorifparvarlarini o‘z hovlisida to‘playdi va 9 kishidan iborat “Musulmon xalq dorilfununi tashkilot komissiyasi”ni tuzadi. Ular hammasi “Muallimlar jamiyati” ning (bu jamiyat Munavvarqori tomonidan 1916-yilda tuzilgan) faollari edilar. Bu haqda “Xalq dorilfununi” gazetasi quyidagilarni yozadi: “Shu vaqtda bu tarafda musulmon ziyolilaridan bir necha zotlar haqiqatda vaqtning muhimligini, fursatning g‘animat ekanligini e’tiborga olib, musulmon xalqi uchun bir umumiy o‘quv yurti ocharg‘a kerakligi haqida mushovara qildilar ham xudoga shukr qilib, ishga kirisharg‘a qaror berdilar va birinchi o‘laroq 9-aprelda Munavvarqori Abdurashidxon afandining hovlisida yig‘ilib, musulmon xalq dorilfununi ochmoqg‘a sa’y etar uchun bir tashkilot hay’atini ta’sis etdilar”.

9 kishidan iborat tashkiliy hay’at ishni boshlab yubordi. Ular Munavvarqori Abdurashidxonov, Burhon Habib, Muxtor Bakir, Murod Xo‘ja, Abdusame’ qori Ziyoboyev, Iso To‘xtaboyev, Sodiq Abdusattarov, Haydar Shavqiy, Kamol Shams edilar. Ushbu hay’at bir oy ichida o‘n marta yig‘ilish o‘tkazdi. Yig‘ilish hisobotlari “Xalq dorilfununi” gazetasining 1918-yil may-iyul sonlarida berilgan. Tashkilot hay’atining 3-may kuni bo‘lib o‘tgan majlisida dorilfunun rahbariyatiga saylov o‘tkaziladi. Unda Munavvarqori rais (rektor) Iso To‘xtaboyev raisning birinchi muovini, Burhon Habib ikkinchi muovini, Abdusame’qori Ziyoboyev xazinachi, Muxtor Bakir sarkotib etib saylanadilar. Munavvarqori va tashkiliy hay’atning jiddiy

va tinimsiz mehnati natijasida 1918-yil 12-may kuni Musulmon xalq dorilfununi (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Dorilfunun millat ehtiyojlaridan, uning bilim saviyasidan kelib chiqqan holda uch: quyi, o‘rta, yuqori bosqichli bo‘lib, besh yillik o‘qituvchilar tayyorlaydigan dorilmuallimin ham mavjud edi.

Dorilfunun va uning Samarqand sho‘basi faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi. Tez orada viloyatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan jadid pedagoglari boshchiligida xalq dorilfununining sho‘balari ochildi. Bunday ishlarda, ayniqsa, Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Namanganda Is‘hoqxon Ibrat, Qo‘qonda Ashurali Zohiriylar katta faoliyat ko‘rsatdilar. Dorilfunun ishiga qisqa muddatda 299 muallim jalb etildi. Hatto 1918-yil 31-maydan “Xalq dorilfununi” (hozirgi “O‘zbekiston Milliy universiteti) nomida Muxtor Bakir muharrirligida muntazam gazeta chiqarila boshlandi.

Ma‘rifatparvar jadidlar zamonaviy oliy ta‘limga doir faoliyatining tugatilishi. Zamonaviy o‘qituvchilarga ehtiyoj juda katta edi, shuning uchun ham Munavvarqori dorilmuallimin faoliyatiga e‘tiborni kuchaytirdi, unga rahbarlikni o‘zining sobiq o‘quvchisi, jadid pedagogi Shokirjon Rahimiy zimmasiga yukladi. Dorilmuallimin qoshida o‘nlab zamonaviy maktablar tashkil etildi. Ammo Turkiston maorif komissari Uspenskiy kabi shovinistik ruhdagi arboblardan Xalq dorilfununi faoliyatiga katta to‘siq bo‘ldilar: dorilmuallimin 1918-yilning sentabridayoq tugatildi. Buning ustiga, 1920-yil 7-sentabrda Turkiston o‘lkasida universitet ochish haqida (universitet 1918-yildan faoliyat ko‘rsatmoqda) sho‘ro hukumatining rahbari Lenin dekretga imzo chekdi va butun dunyoga jar soldi. Bu bilan Turkiston xalq dorilfununi faoliyatini yo‘qqa chiqardi, hamma lavozimlar markazdan kelgan mutaxassislar tomonidan egallandi. Rus tilini talab darajasida bilmaydigan mahalliy millat yoshlari oliy ta‘limdan mahrum bo‘lib qolaverdilar. Munavvarqori Abdurashidxonov 1918-yilda bir yilga yetar-yetmas dorilfunun rektori vazifasini bajardi, 1921-yilning 31-martida safdoshlari bilan birga sho‘ro hukumatiga qarshi kurashda gumon qilinib, qamoqqa olinadi va yil oxirida ayblov tasdiqlanmagach, ozod qilinadi. Uni va safdoshlarini endi universitet ishga


yaqinlashtirmaydilar. 1923-yilda universitetning besh fakultetida 2453 talabaning 50 nafarigina, ya'ni ellikdan bir-ikki foizga yaqini o'zbek bolalari edi. Amalda mazkur universitet ruslar va rusiy zabonlar uchun xizmat qildi. Bu holga partiya va davlat arbobi Akmal Ikromov ham qattiq taassuf bildirgan edi. Bunday sharoitda Munavvarqori umidni yana chet el oliy o'quv yurtlariga talabalar yuborishda ko'rdi. 1920-1923-yillarda uning tashabbusi bilan 70 ga yaqin talaba Germaniyaga o'qishga yuborildi. Bu ishda Munavvarqori, Abdurauf Fitrat va Fayzulla Xo'jayevlar bilan birgalikda faoliyat ko'rsatdi. Chet el oliy o'quv yurtlarini bitirib kelgan yoshlar taqdiri jadid mutaffakkirlari qismati kabi fojia bilan yakunlandi: ularning hammasi sovet hukumati tomonidan mahf etildi. Xalqimizning ulug' farzandlari sho'rolar hukmronligining hamma bosqichlarida ham Millat, Vatan istiqboli uchun kurashganlar. Bu sohada Habib Abdullayev, Ibrohim Mo'minov, Obid Sodiqov, Sa'di Sirojiddinov kabi mutaffakkirlarning hayot yo'li va faoliyati yoshlarimiz uchun hayot maktabidir.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Jadidlarning zamonaviy milliy oliy ta'lim tizimi haqidagi g'oyalari qanday bo'lgan?
2. Zamon talablari darajasidagi oliy ma'lumotli milliy kadrlar tayyorlash borasidagi amaliy harakatlar haqida fikr bildiring.
3. Turkiston yoshlarining qachon va qaysi rivojlangan xorijiy mamlakatlarga o'qishga yuborilgan?
4. Munavvarqori boshchiligida Turkiston musulmon xalq dorilfununi qanday tashkil etildi?
5. Dorilfunun va uning Samarqand sho'basi faoliyatining yo'lga qo'yilishi borasida so'zlang.
6. Ma'rifatparvar jadidlarning zamonaviy oliy ta'limga doir faoliyati qanday tugatildi?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik – T.: Ma'naviyat, 2002.
2. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. –T.: Universitet 2006.
3. Dolimov U. Milliy uyg'onish pedagogikasi. –T.: Noshir, 2012.
4. Dolimov U. Jadidchilikning tamal toshi. // Jahon adabiyoti. 2010. №1
5. Jabborov N. Ma'rifat nadir. -T.: Ma'naviyat, 2010.
6. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: O'zbekiston, 2008.
7. Lazzerini E. Ismail Bey Gasprinskiy and Muslim Modernizm in Russia, 1878-1914. – University of Washington. PhD, 1973
8. Mehmet Saroy. Turk dunyosida ta'lim islohoti va Gasprali Ismoil. – Anqara, 1987.
9. Mirzaeva Z. Jadid adabiyotining Amerikada o'rganalishi. –T., 2007.
10. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2003.
11. Musurmonov R., Usarboyeva D., Otaqulov A., Kurbanbayeva N. Zamonaviy ta'lim metodlari - ta'lim samaradorligi kafolati. International scientific-practical conference on the topic of "Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages". 2022-yil fevral. 182-187 b.
12. Qosimov B., Dolimov U. Ma'rifat darg'alari. – T.: O'qituvchi, 1990.
13. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. va b. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Universitet va pedagogika inst. uchun darslik. – T.: Ma'naviyat, 2004.
14. Hamza. To'la asarlar to'plami. Besh tomlik. T.5 – T., 1989. Mirzaeva Z. Jadid adabiyotining Amerikada o'rganalishi. –T., 2007.
15. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2003.
16. Musurmonov R., Usarboyeva D., Otaqulov A., Kurbanbayeva N. Zamonaviy ta'lim metodlari - ta'lim samaradorligi kafolati. International scientific-practical conference on the topic of "Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages". 2022-yil fevral. 182-187 b.
17. Qosimov B., Dolimov U. Ma'rifat darg'alari. – T.: O'qituvchi, 1990.
18. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. va b. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Universitet va pedagogika inst. uchun darslik. – T.: Ma'naviyat, 2004.
19. Hamza. To'la asarlar to'plami. Besh tomlik. T.5 – T., 1989.



IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1 - AMALIY MASHG'ULOT:
“USULI JADID” VA “USULI QADIM” O‘RTASIDAGI KURASH VA UNING
MILLIY METODIKA RIVOJIGA TA’SIRI

REJA:

1. *“Usuli jadid” maktabi g‘oyasining shakllanishi va Turkiston hayotiga kirib kelishi omillarini o‘rganib chiqish.*
2. *“Usuli qadim”ning mohiyati va uni isloh qilish zaruratini tahlil etish.*
3. *“Usuli jadid” nazariyasining asoschilarini aniqlash.*
4. *Milliy metodika rivojining ijtimoiy-tarixiy, metodik-texnologik asoslarini tushuntirish.*
5. *“Usuli jadid”ning zamonaviy o‘qitish tizimi yuzaga kelishidagi o‘rnini muhokama etish.*

Tayanch tushunchalar: *usuli jadid maktabi g‘oyasi, usuli qadimning mohiyati, usuli jadid nazariyasi, milliy metodika, axloqiy darslar, “Usuli jadid”ning o‘qitish tizimi.*

“Usuli jadid” maktabi g‘oyasining shakllanishi va Turkiston hayotiga kirib kelishi omillarini o‘rganib chiqish. Jadid va qadim o‘rtasidagi kurashda vaqtli matbuot muhim minbar vazifasini o‘tadi. “Turkiston viloyatining gazetasi” keyinchalik, “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Samarqand”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” gazetalarida, “Oyna”, “al-Isloh”, “al-Izoh” jurnallarida keskin tortishuvlar, kurashlar uzluksiz davom etdi. Jadidlar sharq tillari bilan bir qatorda rus, ingliz, nemis, fransuz kabi g‘arb tillarini o‘rganishgan yoshlar edilar. Taraqqiyotga g‘ov bo‘layotgan qadimchilarni, ilm-ma‘rifat taraqqiyot sarchashmasi bo‘lmish Qur‘oni karim kitobini to‘g‘ri idrok va talqin qilishdan mahrum bo‘lgan mutaassiblarni keskin fosh etish bilan barobar va taraqqiy etgan Yevropa va Sharq davlatlari tomon izlandilar. XX asr tongidayoq o‘nga yaqin Sharq va G‘arb tillarini ancha mukammal bilgan Is‘hoqxon Ibrat 6 tilni o‘z ichiga olgan “Lug‘ati sittati al-sina” lug‘atini yaratdi. Is‘hoqxon Ibrat xalqni G‘arb ma‘naviyati, ilm-fan taraqqiyotidan bahramand

etish uchun “Millatni kim isloh etar?” maqolasida odob-axloq tarbiyasi din ulamolari zimmasida ekanligini ta’kidlaydi.

“Usuli qadim”ning mohiyati va uni isloh qilish zaruratini tahlil etish.

“Usuli jadid” va “Usuli qadim” o’rtasidagi kurash haqida gap ketganda, Is’hoqxon Ibrat bilan toshkentlik maktabdor mulla Xusanxo’ja o’rtasida kechgan munozaralarni eslab o’tish maqsadga muvofiqdir. Mulla Xusanxo’ja va Is’hoqxon Ibrat o’rtasidagi kechgan munozara “Turkiston viloyatining gazetisi” sahifalarida e’lon qilindi. Mulla Xusanxo’ja domla o’z maktabini yengil-yelpi isloh qilib “Jadid maktabi” deb e’lon qiladi va xalq bolalarini maktabiga tashviq qiladi. Mulla Xusanxo’ja eshon o’g’li 1907-yilning 1-sentabrdan biz sartiya bolalariga o’qitadurxon usuli qadimiyamizni usuli jadid tartibiga olib jamoa-jamoa qilib o’qitadur. Choraki, mazkur tariqa tartibida maktab bolalarining tez fursatda savodlari chiqib, ko’p narsaga foydalar hosil bo’lur ekan. Birinchi jamoa “Haftiyaki sharif”, ikkinchi jamoa “Kamoloti sharif”, uchinchi jamoa “Chahor kitob” bilan “Fuzuliy” yoki “Navoiy”, to’rtinchi jamoa “Ilmi Faroyiz” o’qib, tamom qilib, muddati 2 yil yoyinki 3 yil mo’ynasida madrasalarda o’qimoqni xohlaganlari madrasalardan chiqib o’qimoqqa qodir bo’lur ekanlar”. Yuqoridagilardan ma’lum bo’ladiki, mulla Xusanxo’ja o’z maktabini “isloh” qilib, katta ijobiy o’zgarishlar kiritgani yo’q (Jamoa-jamoa bo’lib o’qitishdan tashqari). Xalq farzandlarini savodli qilishdan shuhrat qozongan “usuli savtiya” metodi asosida Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval”, Munavvar qorining “Adibi avval” alifbo darsliklari nashr qilingan, yangi o’qitish metodlari vujudga kelgan bir paytda ushbu domla yosh bolalar psixologiyasiga, bilim saviyasiga, yoshiga hech mos kelmaydigan “Haftiyak”, “Kalomi sharif” kabi bir qancha kitoblarni o’qitadi. Mulla Xusanxo’ja domla o’zining “Toshkent musulmonlari haqida” maqolasida yangi usul savtiya maktablarini tanqid qiladi va eski maktablarni yengil-yelpi isloh qilish, ya’ni o’quvchilarni kaltak bilan jazolash usullarini bekor qilish, ularni jamoa-jamoa qilib o’qitish va davomatini tartibga solish bilan kifoya qiladi degan shior bilan chiqadi. Bu gaplardan so’ng Is’hoqxon Ibrat bunday maktablarni xalq bolalari umrini barbod qilishiga qalbdan achinadi: “Muallim bechora aziz farzandlarimizni kaltak-qamchi

yo‘q bahonasi-la besh-o‘n sanalar osmonga qaratib, “Alif bezavar, alif bezavar” deb, shovqin qildirib-qildirib, bir harf ham o‘quv yozuv bildirmayincha umrlarini barbod qilib yotmoqqa taqviyatgina bo‘ladur”.

Is‘hoqxon Ibrat eski ta‘lim-tarbiya, o‘qituv tizimiga qarshi yozgan maqolasida eski maktablarni hasharot uyalariga o‘xshatadi: “Bolalarni eski maktablar ila jamoag‘a taqsim qilib, kelish-ketish, kaltak ila qamchi masalalarini isloh qilmoqda, albatta, lozimdur. Lekin o‘qilajak kitoblar – mazkur eski kitoblar, o‘qitajak domlalar – eski domlalar maktablarida – eski hasharot uyalari bo‘lg‘ondin bu masalalarning martabalar isloh etilsa-da bekor, behudadur”.

Is‘hoqxon Ibrat eski maktab o‘qituvchilarini chalasavodligini, johilligini, xalq farzandlarini tarbiyalashga, ularga bilim berishga qodir emasligini ochib tashladi va ularni ta‘lim-tarbiya sohasiga yaqinlashtirmaslik, jismoniy mehnatga majbur qilish talabi bilan chiqdi: “Agar vijdon, insof ila muhokama qilsak, tavaquvsiz va taraddudsiz eski maktablarimizni asoslaridan yiqib, joylariga tartib va intizom bilgan yangi usul domlalarining himoyasida bo‘lgan maktablar va‘z etmak lozimdur. Eski maktabdorlarimizni dehqonchilik hunarlariga sahv etmak muvofiqi haqiqatdur. Bu so‘zim janobi mullalarga, eski va yangi domlalarimizga oxirgi so‘zim”

Is‘hoqxon Ibrat usuli savtiya maktablarida rus tilini o‘qitish uchun rus tili o‘qituvchilarini yoki rus tilini mukammal biladigan kishilarni o‘qituvchi qilib tayinlashni maqsadga muvofiq deb bildi: “Agar Rusiya ilmlarini bilmoq darkor bo‘lgan holda o‘shal maktablarda Rusiya muallimlaridan saqlab, biror dars Rusiya ilm zabonidan ta‘lim berilgan holda ancha naf olur edilar”

“Usuli jadid” nazariyasining asoschilarini aniqlash. Is‘hoqxon Ibrat o‘zi ochgan maktabga, ilg‘or pedagog rus va nemis tillarini mukammal biluvchi tatar maorifchisi Abdulrauf Shahidiy va Husayn Makayevni taklif qildi va ular bilan yonma-yon turib xalqni ilm-ma‘rifatli qilish yo‘lida xizmat qildi. Is‘hoqxon Ibrat birinchilardan bo‘lib maktabiga badantarbiya darsini kiritdi. Bu dars “Is‘hoqiya bog‘i”da harakatli o‘yinlar sifatida olib borildi. 20 yil davomida To‘raqorg‘on tumani xalq qozisi lavozimida ishladi. Shoir va pedagog Muhammadsharif So‘fizoda faoliyati ham mutaassiblar bilan “usuli qadim” tarafdorlari bilan keskin kurashlarda

o‘tdi. Faoliyatining ilk bosqichlaridayoq “Vahshiy” taxallusida bitilgan, jaholat va jaholatparastlikni fosh etuvchi asarlari uchun mutaassiblar uni “dahriy”, “beadab”, “badasl” deb e‘lon qilgan edilar. 1913-yilda o‘z vatani Chustga qaytib kelgach mahalliy matkabdorlardan tubdan farq qiluvchi “usuli jadid” maktabini ochadi unda jug‘rofiya, handasa, hisob kabi zamonaviy fanlar ona tilida o‘tiladi.

Shu bilan birga, o‘z vaqtida o‘qiy olmagan kattalar uchun kechki maktab, Kamarsadada yetim-yesirlarni tarbiyalash uchun “Dorul-aytom” (Yetimlar uyi) ochadi. So‘fizoda tabiatan tikso‘z, o‘ta jasoratli, betga chopar bo‘lgan. So‘fizoda o‘z maktabi peshtoqida shunday so‘zlarni shior sifatida yozib qo‘ydi: “Men bo‘yoqchimanki, maktab xumida rang berib, qora chapanilarni o‘n ikki oyda oq qilaman”. Qattiq taqib va qutqulardan so‘ng, “Turkiston viloyatining gazetisi” quyidagi xabarni e‘lon qildi: “Chust shahrida bir mulla shoir usuli jadid maktabini ochgan ekan. Chust aholilari aning axloqi buzuvchi deb tarqatib, o‘zini Chustda haydab yuborgan ekanlar” .

So‘fizodaning she‘rlarini jaholatparastlar tanqid qilib uni oyoq-qo‘lini bog‘lab sazoyi qildilar va shunday fatvo e‘lon qildilar: “Vahshiy” uchun baqqol mol sotmasun, sartarosh sochini olmasun, choyxona va yig‘inlar uni takjoydan mahrum qilsinlar”. Ushbu mash‘um voqeadan keyin So‘fizoda yashirinchalik Namanganning Shahand qishlog‘iga keladi va Xo‘jamatvali (Xo‘ja Muhammad Vali bog‘i – hozir Respublika miqyosidagi shifoxona – Sanatoriy) xonaqohiga joylashadi. U bu yerda ham o‘z hayotini bag‘ishlagan muallimlik bilan shug‘ullanadi. So‘fizoda ikkinchi bor o‘z vatanidan chiqib ketishga majbur bo‘ldi. Hindiston, Afg‘oniston mamlakatlarida yashadi, u yerlarda ham maktablar ochdi, muallimlik qildi. Samarqandagi “usuli jadid” maktablarining rivojlanishi Mahmudxo‘ja Behbudiy, Siddiq Ajziy, Abduqodir Shakuriy, Sayidrizo Alizoda, Sayidahmad Vasliy, Hoji Muinlarning jonbozliklari bilan uzviy bog‘lanadi.

Ammo bular orasida Abduqodir Shakuriyning pedagog sifatidagi o‘rni alohida, u haqiqiy ma‘noda tug‘ma pedagog edi. Madrasalarni tugatgach, 1901-yilda butun faoliyatini, hayotini o‘qituvchilikka bag‘ishladi. Bir kuni mulla Badriddin Shakuriyni yangi maktab ochishga undaydi. Shakuriy 1321-savr oyida (1903-yil) Ho‘qandga

jo'nadi. Unda Beshquduq mahallasida Umar Hoji Munavvar o'g'lining himoyasi va muallim Salohiddin Majidiy qo'li ostida uning otasidan qolgan mayda bir shiypinning ostida 3 arshinlik partali 25 talabali bir maktab ochildi". U kuniga 18-20 soatlab ishladi, dars berdi, maktab uchun yangi jihozlar, o'quv qurollari tayyorladi. U Ismoilbey Gaspirinskiyning "Tarjimon", Fotih Karimiyning "Vaqt" gazetalari, Rizo Faxriddinning "Sho'ro" jurnalini, ayniqsa, ulardagi "usuli tadris"ga bag'ishlangan maqolalarni muntazam kuzatib bordi. Shakuriy bir necha marta o'ldirish tahdidi bilan yozilg'on xatlar oldi. Shakuriy maktabida 140-150 nafargacha o'quvchi muntazam ta'lim olgan. 1904-yilda Abduqodir Shakuriy ulug' mutafakkir, Turkistonda jadidchilik harakatining karvonboshisi Mahmudxo'ja Behbudiy bilan tanishadi va ular o'rtasida hamkorlik vujudga keladi.

Jadidchilik harakatining yirik namoyandasi, otashin publitsist Mirmuhsin Shermuhammedov "Afandim Samarqandliklar!" deb boshlanuvchi maqolasida maorif fidoyilarini mutaassib ulamolardan himoya qilishga da'vat etdi. Unda shunday chaqiriq bor edi: "Afandim Samarqandliklar! Bugun behamiyatligingiz maydoni jaholatda muboriz talab qilur. Yo'q esa, zo'rgina jamiyat orasinda bir xoini millat islomg'a haqorat zabonini tebratib, otig'a mag'oyir nuqtalar so'zlab sizlarning nomusimizni hoki mazlatg'a qo'shibdur..." Shu kabi gaplar maqoladan o'rin olgan edi. Jadid mutafakkirlari bilan kurashda ulardan ustomonlik bilan foydalangan Rossiyaning Turkistondagi mustamlakachilik siyosatining ustunlari N.Ostromov boshchiligidagi missionerlar edi. Jadid shoiri To'lagan Xo'jamiyrov – Tavallo ilk teatr truppasi a'zolariga nisbatan "Kimni sahnada ko'rsang, ani jasorati bu" deb yozgan so'zlari bevosita usuli jadid maktablari ochgan pedagoglarga ham to'la taalluqli bo'lib, bu ish chinakam jasorat va fidoyilik edi.

Milliy metodika rivojining ijtimoiy-tarixiy, metodik-texnologik asoslarini tushuntirish. 1905-yil siyosiy voqealar jadidchilik harakatining yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilishiga, ko'lamining kengayishiga, milliy ong, milliy tafakkurning rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Turk, tatar, ozarbayjon, boshqird mutafakkirlari bilan aloqalar yanada mustahkamlandi. Yangi "usuli jadid" maktablari soni mahalliy maktabdorlar, hur fikrli ziyolilar sa'y-harakati hisobiga ancha ortdi. Bu hol

mustamlakachilarning yanada qattiqroq qarshiligiga duch keldi. Farg‘ona viloyati xalq o‘quv yurtlari inspektori O.Yegorov 1909-yilda Turkiston o‘lkasidagi rus-tuzem maktablarining ahvoliga bag‘ishlangan maxsus kengashda kuyunib shunday degan edi, “Yaqin kelajakda yangi metoddagi mahalliy maktablarning keng yoyilishi va ularga nisbatan mahalliy aholi e’tiborining keskin ortib borishi bilan rus-tuzem maktablari tamom xarob bo‘ladi”.

“Usuli jadid” maktablarini butunlay yopib qo‘yish yoki ta’qiqlashdan gubernatorlik ma’muriyati qo‘rqar edi, chunki bunday maktablarni yashirin ravishda tashkil qilishga, ayniqsa, mahalliy xalqning qattiq norozilik harakatiga olib kelar, ko‘plab yoshlarning chet elga, birinchi navbatda, Turkiyaga borib o‘qishiga yo‘l ochilar edi. Mahalliy pedagoglarning jadid maktablarini ochishi gubernatorlik ma’muriyati tomonidan qattiq nazorat ostiga olindi. Shu munosabat bilan 1909-yilda Turkiston o‘quv okrugi qoshidagi maxsus komissiya “Farmoyish” ishlab chiqdi. Farmoyishning hamma moddasi mahalliy millat farzandlari uchun ochiladigan maktablarga bir katta to‘siq vazifasini bajaradi. Bu bilan ichki Rusiyadan kelgan tatarlar tomonidan ochilgan va ochilayotgan “usuli jadid” maktablarining faoliyati to‘xtatildi. Natijada, “usuli jadid” maktablarining soni keskin kamaya boshladi. Endi dunyo yuzini ko‘rayotgan “usuli jadid” maktablarida qo‘llash uchun mahalliy mualliflarning darsliklari hali yo‘q darajada yoki yetarli emas edi. Atoqli maorifchi Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval” alifbo darsligi nihoyatda kam miqdorda nashr qilinib, hatto rus-tuzem maktablari uchun ham yetishmas edi. “Usuli jadid” maktablarida Majid Qodiriy tomonidan yaratilgan va 1910-yilda nashr etilgan “Hisob” darsligiga qadar Qozon va Turkiyada nashr qilingan matematika bo‘yicha turli darsliklardan foydalanilar edi.

Jadid mutafakkirlariga qarshi olib borilayotgan ta’qiblar haqida Sadri Maqsudiy 1912-yilda uchinchi chaqiriq Rusiya Davlat dumasi minbaridan quyidagilarni bayon qilgan edi: “Har bir millatning o‘ziga xos muqaddas, qadrlil odatlari mavjud. Adolatli davlat xalqlarning bunday qadriyatlariga qarshi hech qanday dahl qilmaydi. Bular millatning tili, badiiyati, maktabi va boshqalardir. Bizning hukumatimiz esa turkiy millatlarning muqaddas odatlariga qarshi muntazam

ravishda tajovuz qilib turadi: maktablarimiz, adabiyotimiz, badiiyatimiz ta'qib ostiga olinadi. Faqat bir yil davomida 150 dan ortiq eng e'tiborli o'qituvchilar, mullalarning uylari tintuv qilindi. Qo'qon shahrida mahalliy inspektor (nazoratchi) farmoyishi bilan 20 ga yaqin maktab yopildi va o'qituvchilari haydab yuborildi. Toshkentda Munavvarqoriga Madrasa qoshida rus sinfi ochishga ruxsat berilmadi, Namanganda Husayn Makayev o'qituvchilik ishidan chetlashtirildi". Ammo gubernatorlik jadid maktablarining keng quloch yoyishiga qarshi qanchalik to'siqlar qo'ymasin, tabiiy-tarixiy jarayonni to'xtata olmadi.

Ismoilbek Gasprali 1891-yilda Turkiston general-gubernatori A.Vreveskiyga o'lkadagi maktab va madrasalarni tubdan isloh qilishga qaratilgan maktub bilan murojaat qiladi. U ushbu maktubida mahalliy maktablarda o'qitish tartiblarini soddalashtirish, 6 yilda ibtidoiy maktabda beriladigan bilimni, xat-savod o'rgatishni 2 yilda amalga oshirish ana shu yo'l bilan iqtisod qilingan 3-4 yilni musulmonlar turmush sharoitini, maktabini buzmagani holda rus tilini o'qitishga sarflash masalasini qo'yadi. Buning uchun ba'zi bir ilg'or madrasalarni oliy darajada qayta qurib, islohot o'tkazish orqali "oliy Madrasa" tashkil qilib, ona tili va adabiyot, rus tili, rus qonunshunosligi va pedagogika fanini asosli o'rgatib, mahalliy millat farzandlaridan o'qituvchilar tayyorlash kerakligini ta'kidlaydi. Bu yo'l bilan Milliy metodika rivojining ijtimoiy-tarixiy, metodik-texnologik asoslarini ochib beradi.

Jadidchilik harakatining mohiyatiga e'tibor qilib qaralsa: u ma'rifatparvarlik emas, balki ma'rifatchilik edi. "Ma'rifatchilik" iborasiga iste'dodli olim Sh.Rizaev alohida urg'u berib, uni atroflicha tahlildan o'tkazgan. Darhaqiqat, ma'rifatparvarlar, asosan, ma'rifat homiylari tarzida, "tashqaridan" turib, ya'ni xalqning iste'dodli farzandlarini qo'llab - quvvatlash orqali va o'z asarlari yordamida bilvosita faoliyat ko'rsatgan bo'lsalar, ma'rifatchilar bir paytning o'zida ham homiylar, ham ma'rifatning qora mehnatchilari edi. Nazariy yo'nalish bilan amaliyotning ana shunday chambarchas bog'liq holda olib borilishi jadid ma'rifatchilari uchun Ovro'pa ma'rifatparvarlari asrlar mobaynida bosib o'tgan yo'lni bir necha o'n yil ichida "kesib chiqish" imkonini yaratdi. U fidoyilik evaziga bunyodga keldi.

Jadidlar xalqning fikrlash darajasini oshirish ularni mustaqillikka yetaklaydi deb o'ylashardi. Bu esa, albatta, yangi usuldagi maktablarni ochish orqali amalga oshirilardi. Lekin podsho hukumati bunday usuldagi maktablar faoliyatiga tazyiq o'tkazardi. Har qanday ta'qib va tazyiqlarga, mutaassib ulamolarning dashnomlariga, bo'htonlariga qaramay, jadid maktablari xalq e'tiborini qozonishi, ayniqsa, musulmon qardoshlarning bu boradagi hamjihatliklari, hamkorliklari general-gubernatorlik siyosatdonlari, mafkurachilari faoliyatini yanada kuchaytirdi. 1909-yilda Nikolay Ostroumov "Туркистанский вѣдомости" gazetasida maqolasini e'lon qildi. Unda muallif quyidagilarni yozadi: "Rus ma'muriyatining yerliklar eski maktablariga nisbatan qo'llagan mensimaslik, nazar-pisand qilmaslik siyosati o'lkadagi hukmronligimizning dastlabki o'n yilligida o'zini oqlagan bo'lishi mumkin. Ammo keyingi uch o'n yillikda bu siyosat o'zini oqlamaganini hech narsa bilan yashirib bo'lmaydi. Mana, chindan ham pushaymon bo'ladigan voqea sodir bo'ldi. Biz o'lkada katta qiyinchiliklar bilan bir necha rus-tuzem maktabi ochganimizda, boshqalar tashqaridan (Qrimdan) katta g'ayrat bilan o'lka maorifi uchun boshqa bayroq ostida mustaqil faoliyat olib bordi. Bu yangi usul maktablari ma'muriyatning hech qanday ruxsatisiz ochila boshladi va ajablanarli, yo'l qo'yib bo'lmaydigan tomoni shundaki, hozir ham bunday holat oblast, uyezd ma'muriyatlari, hatto hukumat maktablar inspeksiyasi nazoratisiz davom etmoqda". Bunday maktablar dastlabki vaqtlarda hukumat ruxsatisiz ochila boshlagan edi, keyin ularning ochilishi, butun faoliyati to'la gubernatorlik nazoratiga o'tdi. Jadid maktablarining faoliyati endi nihoyatda og'ir kecha boshladi. Bir tomondan, mutaassib ulamolar, "usuli qadim" tarafdorlari "usuli jadid" maktablariga qarshi turli-tuman bo'htonlar uyushtirdilar, muallimlarini esa hatto kofirlikda aybladilar, xalq bolalarini bunday maktablardan qaytarishga harakat qildilar. Shu o'rinda Samarqandning Ulug'bek madrasasi jomesida 5-6 ming namozxon o'rtasida mutaassiblarning shoir va pedagog Siddiqiy-Ajziy va Abduqodir Shakuriylarni kofirga chiqarishlarini, Mirmuhsin Shermuhamedov va So'fizodalarni sazoyi qilib, o'z Vatanidan quvg'in qilishlarini esga olish o'rinlidir. Mutaassiblarning bunday hatti-harakatlari, ikkinchi tomondan, bundan ham dahshatliroq kuch bo'lmish

mustamlakachi ma'murlarning ta'qib va tazyiqlariga katta yo'l ochib berdi. Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li siyosiy tashkilotlarning uzluksiz so'rovlariga javob berishga, do'q-po'pisalariga, qamoqlariga chidashga majbur bo'ldi. Shuning uchun ham "usuli jadid" maktablarining taraqqiyoti va ko'lamining kengayishi, ayniqsa, mustamlaka Turkiston o'lkasi sharoitida ancha og'ir kechdi. Bu haqda Munavvarqorining sobiq o'quvchisi, Anqara universitetining professori Ibrohim Yorqin (Ibrohim Orifxon o'g'li – 1902-1993) xotiralarida quyidagilarni yozadi: "1913 yilda Eshonxo'ja Xoniyning maktabini bitirgach, Munavvarqorining ikki sinfli rushdiy maktabida o'qigan yillarimizda Rusiya idorasi o'quv inspektorlari maktabimizga to'satdan kelib, foydalanayotgan kitoblarimizni tekshirardi. Ularning maqsadlari bizning maktabda mavjud bo'lgan darslik va boshqa o'quv kitoblarining Rusiya idorasi nuqtayi nazaridan zararlimi yoki yo'qmi, shularni tekshirish edi". Generalgubernatorlik ma'murlari usuli jadid maktablarining keng quloch yozishiga qanchalik to'siqlar qo'ymasin, tabiiy-tarixiy jarayonni to'xtata olmadi.

1909-yilda Rossiya Davlat dumasida – "G'ayri ruslarning davlat tasarrufidagi maktablarda ta'lim-tarbiya qaysi tilda olib borilishi kerak?" degan mavzu yana muhokama etiladi. Unga binoan "turkistonliklarning adabiy tili yo'qligi" sababli ta'lim-tarbiya faqat rus tilida olib boriladi, agar mahalliy so'zlarga ehtiyoj tug'ilgan taqdirda esa arab yozuvida emas, faqat kirill yozuvida ta'lim beriladi, degan farmoyish e'lon qilinadi. Bu farmoyish turkiyzabon ziyolilarning, pedagoglarning qattiq noroziligiga sabab bo'ldi. Unga qarshi "Tarjimon" gazetasida e'lon qilingan "Chig'atoy tili" sarlavhali maqolada quyidagilarni o'qiymiz: "Samarqand, Farg'ona, Sirdaryo qit'alarining shevalari eski chig'atoy shevasidur. Bu sheva adabiy o'ldig'i butun jahona ma'lumdur. Hatto turk shevayi adabiyalarining eng qadimi va mabdayi o'ldug'i lisoniyun (tilshunoslar) oldida masdaq (tasdiqlangan)dur. Taftazoniylar, Ahmad Yassaviylar, Ali Qushchi, Alisher Navoiy va boshqalar vujudida keltirmish Turkiston tili nechuk "tilsiz", "adabiyotsiz" ot o'linur?! Rus millatining lisoni adabiy o'lmadig'i zamonda Lomo'no'suf, Pushkin kabi rus adiblarining vujudidan uch va to'rt yuz sana muqaddam Chig'atoy, ya'ni Turkiston tili forsiyya foyiq (g'olib) bo'lindig'i da'vo o'linur-da, bugun Turkiston belisondur, deyu nasil (qanday) hukm

o‘linur?! Kiyev va Mo‘sqva baldalarinda rum va lotin lisoninda biror rahbon (rohiblar) shqolasi ta’sis edilmasdan muqaddam Buxoro va Samarqandda ilmi tib, hay’at, falsafa, ta’rix, jug‘rofiya, xandasa va soira dars va tahsil edilur. Ulug‘beklar, Forobiyalar, Ibn Sinolar kabi turk hukamosi yetishurda, buyuklarning ahfodi (avlodi) bu kun nechuk tilsiz ot o‘linur?!”.

Mana shunday og‘ir sharoitda o‘zbek jadid pedagoglari ona tili hamda milliy adabiyotni o‘qitishga millatning hayot yoki mamoti masalasi sifatida qaradilar, ona tili va adabiyot o‘qitishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqdilar. Bunday masalalar ularning darsliklarida o‘z ifodasini topdi. Milliylik va milliyat masalasi Behbudiy, Munavvarqori, Avloniy, Fitrat kabi mutafakkirlar faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning bu haqdagi so‘zlariga e’tibor bering: “Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib taraqqiyni boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning darvozasidur. Har millat, eng avvalo, makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko‘payturmaguncha, taraqqiy yo‘lig‘a kirub, madaniyatdin foydalanmas. Binoan alayh, yer yuzidagi barcha millatlar o‘z bolalarini ibtidoiy tarbiyasig‘a va maktablarining har jihatdan intizom va akmolig‘a ahamiyat berib, bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suratda yetushdururlar. Aning uchundurki, o‘zga millatlar diniy va milliy hissiyotg‘a molik bo‘lub, har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutarlar”.

Jadidlar yurt istiqloli va taraqqiyotini zamonaviy mutaxassisiz tasavvur qila olmadilar. Shu munosabat bilan jadidlar asosiy e’tiborni mahalliy xalq bolalaridan kuchli kadrlar tayyorlashga kirishdilar. Ular bu vazifani amalaga oshirish uchun maktab-maorif tizimini takomillashtirish kerak ekanligini anglab yetdilar. Shu maqsad yo‘lida yangi usul maktablarini yaratishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Yangi usul maktablarining boshqa maktablaridan farqi va yutuqlari shundaki, bu maktablarda sinf dars tizimiga o‘tildi. Ko‘rgazmali materiallardan foydalanish ancha samarali usul ekanligi isbotlandi. Sinf xonalarning toza va yorug‘ligi, partalarda o‘tirib o‘qitilishi, dars tanaffuslarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Jadid maktablari ortib borgan sari ularning dars berish tizimi takomillashib boraverdi. O‘rta Osiyo jadidchilik harakatining yoyilishida

Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘rni beqiyosdir. Behbudiya maktabida har yilning oxirlarida tanatanali imtihonlar o‘tkazilib turilardi. Imtihonlarga, albatta, ota-onalar va boshqa mehmonlar ham taklif qilinardi. Bu birinchidan: “usuli jadid” maktablarini ko‘proq targ‘ib qilish va uning o‘qish tartiblarini ko‘rsatish bo‘lsa; ikkinchidan maktabni hayotiyroq qilish, ya’ni bola va maktab birligini amalga oshirish edi. Sakkiz sinf, ya’ni birinch bosqichni tugatgan shogird arabcha, forsha va turkchada bemalol so‘zlab, yozardi. Ruschani ham o‘qib, bemalol gaplasha olardi. Turkistoning boshqarma mahkamalarining barchasida ishlashga qurbi yetardi. Bu shogird maktabda muallimlik ham qila olardi, tijorat bilan ham shug‘ullanar, hatto muharrirlik ham qo‘lidan kelardi. Har yilgi imtihonlarga barcha joydagi vakillarga xat yuborilib taklif etilardi. Lekin ko‘pchilik maktabning yutuqlarini ko‘ra olmaganlar kelmasdi. Behbudiy aytar ediki: “Kelib ko‘rsunlar, durust bo‘lsa, rivoj bersunlar, nodurust bo‘lsa, dalil ila isbot qilsunlar... maqsadimizda xizmatdan va millatdan boshqa narsa yo‘qdur”.

Topshiriq:

**KOMPITENTLILIK TARMOQLARIDAN KELIB
CHIQIB, HAR BIR KOMPETENTLILIKNI *“Usuli
jadid”ning zamonaviy o‘qitish tizimi yuzaga kelishidagi
o‘rni*” MAVZUSI MISOLIDA IZOHLAB BERING.**

- ✓ *bilish kompetentliligi;*
- ✓ *ijtimoiy-fuqarolik kompetentliligi;*
- ✓ *mehnat kompetentliligi;*
- ✓ *iste’molchilik kompetentliligi;*

2 - AMALIY MASHG'ULOT:

“USULI JADID” MAKTABLARI RIVOJINING HUDUDIIY O‘ZIGA XOSLIGI

REJA:

1. *Qo‘qon xonligida va Toshkentda usuli jadid maktablarining yuzaga kelishi va xususiyatlari.*
2. *Buxoro amirligida jadid maktablari rivojining o‘ziga xosligi.*
3. *Xiva xonligida usuli jadid maktablari.*
4. *Usuli jadid maktablarining har bir hududga xos xususiyatlari to‘g‘risida munozara tashkil etish.*

Tayanch tushunchalar: *Qo‘qon xonligi, Toshkent, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, jadid maktablari, hududiy o‘ziga xoslik, “Usuli jadid”ning o‘qitish tizimi.*

Qo‘qon xonligida va Toshkentda usuli jadid maktablarining yuzaga kelishi va xususiyatlari. Asr boshida jadidlar ziyolilarning butun bir vatanparvar avlodini tarbiyalab berishdek og‘ir ishga fidoiylilik bilan kirishdilar. Ularning boshida M. Behbudiy, A. Avloniy, S. Ayniy, A. Fitrat, Munavvar Qori, Boboovxon Salimov va boshqa ko‘plab taraqqiyotparvar insonlar turgan edi. Ular doimo quvg‘in, qamoq, surgun kabi xavf-xatarlar boshida charx urib turgan holda ish olib borishga majbur bo‘ldilar.

Shulardan Toshkent jadidlarining otasi sifatida ziyolilar orasida katta obro‘-e’tibor qozongan Munavvar Qori Abdurashidxonovning xizmatlari juda katta bo‘ldi.

XX asr boshlarida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi shaharlarida o‘nlab “usuli jadid” maktablari ochildi. Uni bitirganlar orasida Turkiston ma’naviy-ma’rifiy dunyosini milliy uyg‘onishiga kuchli ijobiy ta’sir qiladigan zabardast namoyondalar ajralib chiqdi. Uning birinchi qaldirg‘ochlari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Siddiqiy Ajziy, Munavvar Qori Abdurashidxonov,

Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Lutfulla Olimiy, Muhammadsharif So‘fizoda, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, H.H. Niyoziy kabi o‘nlab ulug‘ zotlardir. Jadidlar maktab va ma‘rifatdan boshlangan faoliyatini siyosiy qiyofa kasb etgunga qadar davom qildirib, Turkistonda milliy mustaqil davlat barpo etishga urinish bilan eng yuqori pog‘onaga ko‘tarildilar.

Turkistonda yangi usul maktablari ochilib, ma‘rifatparvar, ilg‘or pedagoglar bu maktablar uchun turli darsliklar, o‘qish kitoblari, qo‘llanmalar yarata boshladilar. Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Abdulla Avloniy, Ibrat, Hamza kabilar bu sohada jonbozlik ko‘rsatdilar va bu ishda faol ishtirok etdilar. Jadidlar boshqa o‘lkadagi ma‘rifatparvarlik harakatlari bilan ham aloqa o‘rnata boshladilar.

Buxoro amirligida jadid maktablari rivojining o‘ziga xosligi. Darhaqiqat, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Buxoroyi sharifning ma‘rifat tarqatish borasidagi mavqeyi butunlay inqirozga yuz tutgan, maktab-madrasalar dasturidan aniq fanlar olib tashlangan, mutaassiblik hukmron edi. Bir so‘z bilan aytganda, Buxoro ilm maskanlari tubdan islohga muhtoj. Nafaqat ta‘lim-tarbiya tizimini, birinchi navbatda, feodal-davlat tizimini tubdan o‘zgartirish kerak edi.

1904-yilda Rossiyaning Yaponiya bilan bo‘lgan urushda yengilishi mustamlaka Turkiston o‘lkasida ham ham xalq ahvolining keskin og‘irlashuviga sabab bo‘ldi. 1905-yil Russiyadagi inqilobiy voqealar Buxoro amirligiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. 1908-yilning yoz faslida Ismoilbek Gasprali ikkinchi marta Buxoroga keladi. Bu safar ziyolilar bilan uchrashdi, maktab va madrasa islohati masalasiga alohida e‘tibor berdi. Buxoro amrligi hududida ham “Tarjimon” gazetasi keng tarqala boshladi, “usuli savtiya” metodiga asoslangan maktablar ham birin-ketin ochila boshladi. Shu paytdan boshlab Buxoroda ham “jadid” va “qadim” nizolari boshlandi.

Ahmad Donish vafotidan keyin uning shogirdlari va hammaslamlari Sadri Ziyo, Inoyat mahzum, Abdulmajid qori, Zufunun, Abdulvohid Munzim, Sadridin Ayniy va boshqalari maktab va madrasa islohati borasidagi qarashlarini amaliyotda davom ettirdilar. Buxoro amrligi hududida dastlabki “usuli savtiya” – usuli jadid maktablarining ochilishi Sadridin Ayniy va Mirza Abdulvohid Munzim nomlari bilan bog‘liq. Sadridin Ayniy ma‘lumotlariga ko‘ra, Buxoroda tatar muallimlari

ochgan usuli jadid maktablari mavjud edi. Ayniy va Munzim ushbu tatar maktablaridagi o'qitish usullarini o'rganadilar va o'z maktablariga tatbiq qildilar: "Shunday qilib, 1326-yil hijriyda shavvol oyining o'nida (1908-yilning oktabrida) Buxoro shahrining ichida Darvozayi Sallohxona guzarida Mirza Abdulvohid uyida tojik tilida birinchi martaba buxoroliklarga maxsus usuli jadida maktabi ochdik. Bu maktabda ikki oy muddatida o'quvchilarning adadi 12ga yetishdi. Lekin ta'lim tartibi nihoyat darajada buzuv va bizning barchamiz usul va yangicha qoidadan xabarsiz edik. Ichimiz ta'lim va isloh o'ti bilan yonmoqda edi".

Maktablarda Mirza Abdulvohid Munzim, Sadridin Ayniy, Ahmadjon Hamdiy Buxoroda faoliyat ko'rsatayotgan tatar muallimi Holid Burnashev maktabiga boradilar, ta'lim qoidalaridan tortib, kitob va darsxona tartibigacha, o'qiladigan ilmlardan tortib, kitob va darsliklargacha tanishadilar, ma'lumotlar oladilar. 1908-yilda Buxoroda ilk bor tashkil etilgan "Birodari Buxoroyi sharif" hayriya shirkatining topshirig'iga binoan Sadridin Ayniy Samarqandga keladi va bir necha yillardan beri jadid maktabi ochib, faoliyat ko'rsatayotgan Abduqodir Shakuriy maktabi, uning o'qitish usullari bilan tanishadi. S. Ayniyning bu tashrifi A. Shakuriyni hayratga soldi, chunki "usuli jadid"ni - "usuli savtiyai tadrijiya" metodini o'rganish maqsadida Shakuriy undan uzoqroqqa - Qozon, Bog'chasaroy, Istanbulga borgan Ismoilbek Gaspirali bilan tanishgan va bir qancha o'quv darsliklarini, "Xo'jayi sibyon", "Rahbari muallimin" yoki "Muallimlarga yo'ldosh" alifbo va metodik qo'llanmasidan bir necha nusxa olib kelgan edi. A. Shakuriy S. Ayniyga usuli savtiya maktablari uchun Ismoilbek Gaspiralinig "Xo'jayi sibyon"iga o'xshagan darslik-alifbo yaratishni maslahat beradi. Ushbu usuli savtiya maktablari uchun kitoblar - darslik va qo'llanmalar juda zarur edi. S. Ayniy A. Shakuriy taklifiga amal qilib, "Birodari Buxoroyi sharif" shirkatining muassisligida usuli jadid maktablari uchun "Tahzib us-sibyon" ("Pokiza bola") qiroat darsligi (o'qish kitobi)ni yaratdi. Kitob 1909- va 1917-yillarda ikki qatla nashr qilindi. S. Ayniy va A. Munzim maktabi ancha muvaffaqiyat qozondi. O'quvchilar soni kun sayin ortib bordi. 1909-yilning oktabrida Buxoro tarixida birinchi marta ushbu maktabda o'quvchilardan imtihon olish tantanasi bo'lib o'tdi. Yosh-yosh bolalar berilgan matnlarni burro-burro

o'qidilar, domlalarining savollariga bulbulday javob berdilar. O'quvchilarning bilimidan, maktabning tartib-qoidalaridan imtihonda qatnashganlar juda mamnun bo'ldilar, ma'rifatli boylar maktabni durustroq binoga ko'chirish haqida fikr bildirdilar. Hatto, mufti domla Ikrom mudarrisilarni, eski va yangi maktabdorlarni, imtihon ahlini, mullalarni bu ulug' voqea bilan tabrikladi. Buxoroning ochiq fikrli keksa ziyolilaridan to'qson yoshli Bo'riboy afandi ko'ziga yosh olib, majlis ahliga shunday murojaat qildi: "Men umidvormanki, o'n yilgacha Buxoroda inqilob voqe' bo'lur, vatan avlodi bu kungi razolat va safolatlardan qutulur. Esizki, u kunni men ko'ra olmayman, siz yoshlar ko'rasiz. Ming qatla shukurkim, ishning boshlanganini ko'rdim".

Bu ulug' xayrli ish ham necha-necha o'n yillar davomida taraqqiyot ildiziga bolta urib kelayotgan millatni jaholatda qorong'ulikka sudrayotgan, mustamlakachilar qo'lida qo'g'irchoq bo'lib qolgan mutassiblar – "qadimchi"larning keskin qarshiligiga uchradi. Birinchi usuli jadid maktabi Buxorodagi Rossiya elchixonasi xodimlarining aralashuvi bilan yopildi. Bu ishda Rossiya hukumati oxrankasining yashirin a'zosi, qozonlik tatar Mulla Qamar domla hamda Russiyaning Buxorodagi agentligi xodimi, poraxo'rlikda nom chiqargan Shul'ga ismli kimsa katta faoliyat ko'rsatdi. E'tiborli tomoni shundaki, birinchi usuli jadid maktabining Buxoroda ta'qib ostida olinishi, uning yopilishi, maktabdorlarning quvg'in qilinishi Rossiya imperiyasidagi turkiy qardoshlar gazeta va jurnallarida aks sado berdi. "Mulla Nasriddin" hajviy jurnali Buxoro mutaassiblarini fosh etuvchi hajviy rasmlar va maqolalar e'lon qildi.

Usuli jadid maktablari bunday to'siqlar, ta'qib va tazyiqlardan cho'chimadilar, ular o'z faoliyatlari doirasini kengaytirib bordilar. Toshkent, Samarqand, Farg'ona vodiysi shaharlarida faoliyat ko'rsatayotgan mutafakkirlar bilan aloqa bog'ladilar, Qrim, Turkiyaga talabalar yuborish, o'z saflarini o'sib kelayotgan bilimli yoshlar hisobiga mustahkamlashga kirishdilar. Buxoroning ilg'or kuchlarini birlashtirish uchun jamiyat kerak edi. 1909-yilda Buxoro jadidlari "Tarbiyai atfol" ("Bolalar tarbiyasi") nomli yashirin jamiyat tuzdilar. Bu jamiyatning sa'y-harakati bilan usuli jadid maktablari yana birin-ketin ochila boshladi. Jamiyat nizomida siyosiy masalalar

o'z ifodasini topmagan bo'lsa-da, unda Buxoro amrligi siyosiy tuzumini isloh qilish, davlat ma'muriyatiga ilg'or yoshlardan kiritish va shu yo'l bilan davlat siyosiy tuzumida ilg'or o'zgarishlar yasash ko'zda tutilgan edi. Jamiyatning birlamchi masalasi Buxoro o'quv muassasalarini tubdan isloh qilish edi. Buxoro eski maktablarini isloh qilish ishi amalda boshlangan bo'lsa-da, oliy o'quv yurti hisoblangan madrasalar islohi boshlanmagan, ular ilmiy, malakali mutaxassislar tayyorlashdan yiroq edi. Shuning uchun "Tarbiyai atfol" jamiyati iqtidorli yoshlarni Orenburg, Ufa, Qozon, Bog'chasaroy, Istanbul kabi shaharlarga o'qishga yuborishni birinchi vazifa sifatida belgiladi. Buning uchun mablag' kerak edi. Xalq istiqboli, ma'rifati uchun jon kuydirguvchi mulkdorlar ham iqtisodiy yordam beruvchi ziyolilar, davlat arboblari ham topildi. Jamiyatning katta sa'y-harakati natijasida uning dastlabki yilidayoq bir guruh yoshlar Istanbulga o'qishga yuborildi. Sadriddin Ayniy bu haqda quyidagilarni yozadi: "Ikmoli tahsil uchun Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li (1878-1968), uning birodarlari Atoxo'ja (1894-1938), Mazhar Mahzum, Burhon Mahzum o'g'li, Abdurauf Fitrat, Muqimbek Istambulga safar qildilar. Fitrat mazkur talabalarning eng iste'dodlisi, eng fozili edi".

Buxoro jadidlarining, "Tarbiyai atfol" jamiyatining o'z oldiga qo'ygan ulug' maqsadlardan yana biri o'z matbuot organiga ega bo'lish edi. 1905-yilgi rus inqilobi Rossiya imperiyasini larzaga soldi, Nikolay podshoh biroz chekinib, 17-oktabrda manifest e'lon qilishga majbur bo'ldi. Ushbu manifestga binoan ba'zi bir demokratik islohatlar bilan bir qatorda, matbuot erkinligi rasman e'lon qilingan edi. Bundan foydalangan Turkiston jadidlari "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Tujjor", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" kabi gazetalar nashr qildilar. Ular Buxoro mutafakkirlariga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan edi. Jamiyatning harakati bilan 1912-yil 11-martdan tojik tilida "Buxoroyi sharif", 1912-yil 14-iyuldan o'zbek tilida "Turon" nomli gazeta nashr qilina boshladi. Bu ikki gazeta nafaqat Buxoroda, balki butun Turkiston o'lkasida ham katta e'tibor qozondi. Maktab va madrasalar islohati, "usuli savtiya" maktablarini targ'ib-tashviq qiluvchi o'nlab maqolalar e'lon qilindi. 1912-yil sentabrdan "Turon" gazetasi muharririyati Istanbul dorilfununini bitirib kelgan G'iyos mahzum Husayniy qo'liga o'tdi. Gazeta endi haftada 3 marta

muntazam chiqib turdi. Bu ikki gazeta ma'rifat ahliga kuchli ta'sir ko'rsatdi, ilm-ma'rifat yo'lini mash'al kabi yoritdi. Buxoroning hamma guzarlarida yangi maktablar qayta ochila boshladi, bunga asosiy sabab shu ikki gazeta bo'ldi. Ularning mushtariylari kun sayin butun Turkiston o'lkasida ham ko'payib bormoqda edi. Bu hol mustamlakachi ma'murlarga ma'qul emas edi, gazetalarni yopish uchun esa sabab topa olmas edi. Bunday vaziyatlarda ular mahalliy hukumat nomidan ish ko'rar edilar. 1913-yil 2-yanvarda Buxorodagi rus elchixonasida kichik amaldor Petrov imzosi bilan shunday farmoyish keldi: "Buxoro amiri janobi oliyning xohishlari bilan ushbu kundan e'tiboran "Buxoroyi sharif" va "Turon" gazetalari nashri to'xtatildi".

Russiya hukumati Buxoroda nafaqat amrlik davlat tuzumi islohatiga, hatto maktab va madrasa islohatiga ham tish-tirnog'i bilan qarshi edi, shu bilan birga, omma o'rtasida amirga qarshi nizo uyg'otish uchun kurashar va bu bilan o'zini "oppoq" qilib ko'rsatishga urinar edi.

1913-yilning bahorida Istanbulda o'qiyotgan bir guruh yoshlar – Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, Atoxo'ja, Fitrat, Homidxo'ja vatanlariga qaytib keldilar. Ular ham Buxoroda "usuli jadid" maktabi ochib ishga kirishdilar. Ularning katta harakati bilan "Ma'rifat kutubxonasi" va "Barakat shirkati" ochildi. Bu kutubxonalarning asosiy maqsadi "usuli savtiya" maktablarini kitoblar, darsliklar bilan ta'minlash edi. Shu maqsadda jadid ziyolilari Turkiyada tahsil ko'rayotgan buxorolik yoshlar bilan aloqa bog'ladilar: har bir yangi chiqqan kitoblar, darsliklar, Tatariston, Qrim, Ozarbayjonda chiqadigan nashrlar kutubxonaga kelib turdi. 1913-yilda Homidxo'ja va Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li Buxoroda, Atoxo'ja va Fitrat Shaxrisabzda maktab ochdi, maktab ishlari ancha rivoj topdi. Usmonxo'ja maktabida 100 dan ortiq o'quvchi ta'lim ola boshladi. O'qituvchilarga, ayniqsa, "usuli savtiya" metodini biladigan o'qituvchilarga ehtiyoj nihoyatda oshdi. Samarqand, Toshkentdan muallimlar olib olib keldilar, usuli ta'lim va tadrisni o'rganmoq uchun yashirin jamiyat Hoshimqorini Bog'chasaroyga, yosh o'qituvchilardan Ziyoiddin mahzumni Ufaga, Zahiriddin Faxriddinzodani Oranburgga yubordi. Jadid mutafakkirlari ilm-ma'rifat yo'lida qanchalik harakat qilmasinlar, ularning faoliyati Buxoro sharoitida shunchalik qattiq qarshiliklarga uchradi, hatto ular aziz hayotlarini xavf ostiga

qo'yib, islohat ishlarini amalga oshirdilar. Jadidchilik harakatining ashaddiy dushmanlaridan bo'lmish Burhoniddin Buxoro qozikaloni mansabini egallagach, dastlabki harakati "usuli jadid" maktablarini yopish bo'ldi. "Usuli jadid" maktablarining birinchi bor 1909-yilda yopilishida va bu maktablarning bunyodkorlari Sadriddin Ayniy va Abdulvohid Munzimning Buxorodan quvg'in qilinishida ham shu Burhoniddin bosh-qosh bo'lgan edi.

Buxoro hududida usuli jadid maktablarining keng quloch yozishida, ayniqsa, Mulla Ikrom domla (1848-1928)ning xizmatlari katta bo'ldi. Bu inson hali jadidchilik harakati Buxoroga kirib kelmasdan ancha oldin Ahmad Donishning islo hatchilik g'oyalari ta'sirida bo'lgan, bir necha bor Turkiyada bo'lib, u yerdagi ta'lim-tarbiya tizimi bilan chuqur tanishgan, usuli savtiya metodini o'rgangan, Buxoro ulomosi o'rtasida katta mavqega ega bo'lgan mudarris edi. U bilan hatto usuli jadid maktablarining ashaddiy dushmani, 1910-1920-yillarda Buxoroda qozikalon vazifasini bajargan Burhoniddin ham hisoblashishga majbur edi. 1914-yilda Buxoroning mashhur eshonlaridan Shoyaxsiyning payg'ambar yoshiga to'lishi mubosabati bilan katta marosim o'tkaziladi. Unda amirlikning deyarli hamma kazo-kazolari ishtirok etadi. Ushbu yig'inda Mulla Ikrom bilan qozikalon Burhoniddin o'rtasida "usuli jadid" maktablari xususida katta to'qnashuv bo'lib o'tadi. Albatta, hamma yig'inlarda hoziru nozir chor amaldorlaridan Buxoro politsiyasi boshlig'i Vilman ham bo'ladi va 1914-yil 14-iyunda siyosiy agentlikka bu yig'in haqida batafsil raport yo'llaydi. Eski maktab tizimini himoya qilib chiqqan Burhoniddinga qarshi Mulla Ikrom munozara so'ngida quyidagi otashin so'zlarni bayon etdi: "Hozir ham Buxoro o'z olimlariga ega. Ammo bular o'z hayotini butunlay ilm-fanga bag'ishlagan o'n minglab kishilar orasidan chiqqan baxtli insonlardir. Nima uchun biz Buxoroning gullab-yashnashi va ravnaqi uchun hukumatdan eski usulni yangisi bilan almashtirishni talab qildik? Agar Buxoroda boshqa sharoit bo'lganda, bunday olimlar soni minglarga ham yetgan bo'lardi. Men amaldorlar bilan ruhoniylar orasida o'zimga madad topmasam, muqaddas ish uchun ochiq kurash maydoniga kirib jabr chekishga va o'z o'limini qabul qilishga ham tayyorman".

1914-yil 4-iyulda Burhoniddin qozikalon jadid maktablarini badnom qiluvchi va bu maktablarni tezda yopishga qaratilgan quyidagi mazmunda amir Olimxonga ariza yozadi: “Amiri marhum (amir Abdulahad koʻzda tutilmoqda) davrlarida ulamoning fatvolari bilan usuli jadid maktabining harom va bidʼatligi sobit boʻlib, janobi oliyning amrlari bilan yopilgan edi. Bir necha vaqtdan beri yana musfid jadidlar bosh koʻtarib, shaharning har tarafida maktablar ochib, xalqning bolalarini buzib, fitna va fasod qoʻzgʻatib yuribdilar, Agar janobi oliyning amrlari bilan ushbu maktablar tezlik bilan bogʻlanmasa, mullavachchalar bu bidʼatni barham bermoq uchun oʻzlari qoʻgʻalishlari aniqdir, U holda mamlakatda fitna va fasodlar koʻpayib, davlati oliyga zarar yetishi ehtimoldir”.

Shu tariqa usuli jadid maktablari ikkinchi marta yopildi. Birinchi jahon urushi yillarida “usuli savtiya” maktablari soni yana bir muncha koʻpaydi, maktablar islohati masalasi yana koʻtarildi.

Milliy uygʻonish harakati Buxoro amrligida Turkiston oʻlkasiga nisbatan kech vujudga keldi. Buning obyektiv sabablari bor. Buxorodagi mutaassiblik va uni ragʻbatlantirganga qaramasdan, jadidchilik harakati Buxoroda shiddat bilan rivojlandi, hatto uning siyosiy bosqichga koʻtarilishi Turkiston jadidlariga nisbatan oldinroq kechdi. Bu jarayonda, ayniqsa, Abdurauf Fitrat va Fayzulla Xoʻjayevlar katta faoliyat koʻrsatdilar. Shu maʼnoda, Buxoro amrligida jadid maktablarining keng quloch yozishida Fitratning “Munozara”, “Hind sayyohi bayonati” asarlari muhim ahamiyatga ega boʻldi.

Xiva xonligida usuli jadid maktablari. Vatanimiz tarixida XIX asrning ikkinchi yarmida hukmronlik qilgan xonlar orasida hech biri adabiyot va sanʼat, ilm-maʼrifat, taʼlim-tarbiya, mamlakat obodonchiligi sohasida Muhammad Rahimxon Feruzchalik faoliyat koʻrsatgan emas. Maʼrifatparvar hukmdor 47 yil xonlik qildi, dastlabki oʻn yil mustqil xon sifatida, ammo Rossiya mustamlakachilik siyosati eng yuqori bosqichga koʻtarilgan bir davrda, 37 yil Rossiya imperiyasining vassali sifatida faoliyat koʻrsatdi. U butun hukmronligi davrida ulugʻ ustoz, Turonzaminning buyuk mutafakkiri Muhammad Rizo Ogahiyning ruhiyatini maʼrifat nuri bilan bahramand qilish haqidagi oʻgitlariga izchil amal qildi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva xonligida ham Buxoro va Qo‘qon xonliklaridagi kabi ibtidoiy maktablarning ahvoli juda nochor edi. Bu maktablarda 4-5 yil o‘qib, hatto savod chiqara olmas edilar. O‘zbek pedagogikasi tarixida nihoyatda mushkul bo‘lgan bu masalaga qo‘l urgan va muvaffaqiyatli hal qilgan mutafakkir Shermuhammad Munis bo‘ldi. Uning “Savodi ta’lim” asari 1804-yilda yaratilgan bo‘lib, XX asr boshlarida A.O.Portsev tipolitografiyasida “Savodi ta’lim ma gultastai rayohin” nomi bilan bir necha marta nashr etildi. Ushbu asar bolalarni husnixatga o‘rgatish maqsadida yaratilgan bo‘lsa-da, bir necha o‘n yillar davomida “usuli savtiya”, hatto ilg‘orroq bo‘lgan “usuli qadimiya” maktablari uchun yaratilgan alifbo darsliklari bilan birga savod chiqarish bo‘yicha qo‘llanma sifatida foydalanib kelindi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Buxoro amrligiga nisbatan Xiva xonligida Muhammad Rahimxon Soniy va mirzaboshi Komil Xorazmiy rahnamoligida usuli jadid maktablari ancha erta ochila boshladi. 1891-yildayoq ulug‘ mutafakkir Komil Xorazmiy tashabbusi bilan Urganchda birinchi usuli jadid maktabi ochildi. Ushbu maktab xalq o‘rtasida katta e’tibor qozondi, unda dastlab 25 o‘quvchi ta’lim oldi. Diniy ilmlar bilan bir qatorda jug‘rofiya, tarix, hisob kabi aniq fanlar hamda rus tili alohida o‘quv predmeti sifatida o‘qitildi. Qozondan maxsus o‘qituvchi chaqirilgan edi. An’anaviy mahalliy maktablardan farqli ravishda dars jadvali, har bir dars 50 minut davom etib, 10 minutlik tanaffus joriy qilindi. Bu maktabni hatto Muhammad Rahimxonning o‘z ham kelib ko‘rdi, o‘g‘li Asfandiyorni shu maktabda o‘qishga berdi, maktabning kerakli jihozlari, o‘quv qurollari uchun davlat xazinasidan mablag‘ ajratdi. Ma’lumotlarga qaraganda, bo‘lg‘uvsi devonbegi, Xiva xonligida jadidchilik harakati rahnamolaridan Sayid Islomxo‘ja ibn Sayid Ibrohimxo‘ja, shoir va mutafakkirlar Yusufbek Bayoniy, Muhammad Rasul Mirzo (Komil Xorazmiyning o‘g‘li), Ahmad Tabibiy, Avaz O‘tar o‘g‘li shu maktabda rus tilini o‘rganganlar.

1898-yili Xivada orenburglik muallimlar Mahmud Vafo va Abdurahmon afandilar tomonidan “usuli savtiya” maktabi ochildi. Ammo bir oylik faoliyatidan keyin “taassufning ziyoda o‘ldig‘ini anglab, Urganch shahrina ketdilar va u yerda “usuli savtiya” maktabi kushod etdilar”.

Xiva xonligida jadid maktablari taraqqiyotining oldini olish maqsadida 1894-yildan boshlab Turkiston general-gubernatorligining faol aralashuvi bilan dastlab Xivada, keyinroq Urganchda rus-tuzem maktablari ochila boshladi. Bunday maktablarni o'z homiyligiga olgan Sayid Islomxo'ja millat ma'naviyatidan kelib chiqqan holda ular dasturiga rus tili, riyoziyot, jug'rofiya, handasa kabi fanlar bilan bir qatorda, ona tili va adabiyot hamda musulmon dini qonunlarini kiritadi, ularning o'qitilishini o'zi nazorat qiladi. Chunki u "Turkiston viloyatining gazetasi", "Tarjimon" gazetalarida rus-tuzem maktablari mohiyati haqida kechayotgan munozaralarni kuzatib borar, bunday maktablardan general-gubernatorlik ko'zlagan maqsadlarida milliy til, adabiyot va islom ma'naviyatining o'qitilishga katta e'tibor berdi.

Komil Avaz "Garchi erurman tole'yi Feruz" maqolasida alohida ta'kidlaganidek, Feruz xonlikda ta'lim-tarbiya, maorif sohasida ham katta islohatlarni amalga oshirgan. 1904-yil noyabr oyida Muhammad Rahimxon farmoniga muvofiq Urganch shahrida "usuli savtiya" metodiga asoslangan jadid maktabi ochildi, Qozondan taklif etilgan pedagog Husayn Kushayev muallimlik qildi, o'quvchilar soni 45 nafarga yetdi. 1906-yilda esa ota-onalar, maorifparvarlarning taklifiga muvofiq Urganchda xuddi shunday maktab qiz bolalar uchun ham ochildi. Muallim etib uning rafiqasi Komila Kushayeva tayinlandi. Ushbu maktabni Muhammad Rahimxon borib ko'radi, ta'lim-tarbiya ishlarining yangicha yo'lga qo'yilganidan mamnun bo'ladi, Husayn Kushayev boshdan oyoq sarpo bilan taqdirilanadi va xonlik xazinasidan maktabga iqtisodiy yordam ko'rsatishga qaror qiladi.

Asfandiyor valiahdlilik vaqtidayoq "usuli savtiya"ga asoslangan yangi maktablarning usuli qadim maktablaridan afzalliklarini tushunib yetgan, islohatchilik faoliyati bilan ancha e'tibor qozongan yangilik tarafdorlaridan edi. 1907-yil fevralda Xiva aholisining arziga binoan Qozon shahrining mashhur Olimjon Barudiy madrasasidan ikki nafar usuli jadid muallimini taklif etadi. Bu muallimlar ishtirokida yangi maktab ochadi, shu bilan birga, maktabi rushidiya (o'rta maktab) ochish ishlarini boshlaydi: "Kelajak may oyida, inshooloh, maktabi rushidiya ochilajakdur. Maktabning sohibi vuzaroyi kiromdan Islomxo'ja janoblari o'lub, muallimi daha Ahmad Nuriddin afandidir".

Xivada ochilgan ushbu “Maktabi mahramiy” va “Maktabi jadida”da 113 nafar talaba 1907-yil 28-mayda valiahd Asfandiyor va devonbegi huzurida, 31-mayda esa qozilar, oxund (mudarris)lar, muftiylar huzurida imtihon topshirdilar. Imtihon ahli Xiva va Urganchda yana ikki usuli jadid maktabi ochish va Qozondan yan ikki muallim taklif qilishga qaror qildilar. Xonlikdagi yangi maktablar noziri Ramazon Muhammad Karimzoda bu qarorni barchaga e’lon qildi.

Muhammad Rahimxon Feruz vafotidan keyin taxtga o’tirgan Asfandiyor davrida ham usuli jadid maktablari o’z faoliyatini davom ettirdi. Ayniqsa, devonbegi (bosh vazir) Sayid Islomxo’ja bunday ma’rifiy ishlarga bosh bo’ldi. Qozondagi muallimlar taklif qilish, ular yordamida usuli jadid maktablari ochish davom etdi. XX asr tongidayoq Islomxo’ja zamona talablariga hamohang holda o’z hisobidan ikki qavatli usuli jadid maktabi qurdirtdi, rus, tatar muallimlarini jalb qildi. U bunday faoliyati tufayli “Vaziri akbar” degan sharaflı unvonga musharraf bo’ldi. Uning bu faoliyati “Tarjimon” gazetasi e’tiborini o’ziga qaratdi: “Islomxo’ja iqtisodi zamonaga ko’ra ilm va ma’rifat nashrini daxi lozim ko’rib, Xivaya ruscha va tatarcha muallimlar keltirmish va bir qoch adad usuli jadida maktablari ochdirmish edi. O’z musorifinda bir maktab bino qildirdi. Maktab islohina so’nggi yillarda cho’x xidmat etdi... Xivada ba’zi ilmlarning Buxorodan ilgarida o’lmasinda Islomxo’ja ta’siri o’ldi, demak mumkindir”.

Sayid Islomxo’ja 1907-1910-yillarda qurdirgan madrasa (Islomxo’ja madrasasi va minora Xivadagi eng ko’rkam va eng e’tiborli o’quv muassasi va tarixiy obidasi hisoblanadi. Uning xonlikda, shariat – din peshvolari, ruhoniylar orasida ham e’tibori katta edi. U, ayniqsa, maktab va moarif sohasida katta faoliyat ko’rsatayotgan bir paytda 1913-yil 9-avgustda xonning “Nurillaboy” saroyidan chiqib, o’z foytunida ketayotgan bir vaqtda sirli ravishda o’ldiriladi.

Jadid maktablarining Xorazm xonligi bilan Buxoro amirligida shakllanish va rivojlanish jarayoni bir-biridan tubdan farq qiladi. Buxoro amirligida usuli jadid maktablarining keng ko’lamda tarqalishiga yuqori tabaqa – amir, qushbegi, qozikalon va mutaassib ulomalar keskin qarshilik ko’rsatgan bo’lsalar, Xiva xonligida, aksincha, bu masalada xon boshchiligidagi yuqori tabaqa farmonbardorlar

bo'ldi, pastki tabaqa, hatto mahalliy muallimlar ancha sustlik qildi. Shuning natijasi o'laroq jadidchilik, jadid maktablari keng quloq yoza olmadi. Jadid maktabdorlari, usuli jadid pedagoglari, muallimlari xalq orasidan yetishib chiqmadi, xonlik, asosan, Qozon tatarlaridan, Turkiyadan, Bog'chasaroydan darsliklar, turli o'quv kitoblari olish, muallimlar jalb qilish masalasi bilan mashg'ul bo'ldi. Bu yo'l bilangina xonlik maorifini tubdan isloh qilish mumkin emas edi. Xiva xonligidagi mavjud ahvolga "Tarjimon" gazetasi ham taassuf bildirdi: "Bog'chasaroydan olingan rus kitoblari, Qozondan chaqirilgan muallimlar Xivaya yarashmayur esa xivalidan muallimlar yetishdirmali va Xivada tab' o'linajoq alifbolari vujudga keltirmali. Bunda hech bir kimsa zarar ko'rmaz. Toshkand bo'yla bir chora bo'ldi".

Topshiriq:

**USULI JADID MAKTABLARINING HAR BIR HUDUDGA
XOS XUSUSIYATLARI TO'G'RISIDA "DAVRA STOLI"
METODI ASOSIDA MUNOZARA TASHKIL ETING.**

3 - AMALIY MASHG'ULOT:

ONA TILI VA ADABIYOT O'QITISHDA YANGI USUL VA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI

REJA:

1. *Usuli maddiyaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.*
2. *Usuli savtiya – zamonaviy o'qitish usuli ekani.*
3. *Tahlil va tarkib usullarining o'ziga xosligini muhokama qilish.*
4. *Usuli jadid maktablari uchun Munavvarqori tuzgan yo'riqnomaning ahamiyati.*
5. *Darslarning turlari: axloqiy va fanniy darslar.*

Tayanch tushunchalar: *usuli maddiya, usuli savtiya, zamonaviy o'qitish, tahlil va tarkib usullari, Munavvarqori yo'riqnomasini, axloqiy darslar, fanniy darslar.*

Usuli maddiyaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash. Usuli jadid maktablarida Fanlarni o'qitish metodikasiga oid birorta ilmiy-uslubiy asar yaratilgan emas, yaratilgan bo'lsa ham bizgacha yetib kelgan emas. Jadid pedagoglarining dars berish usullari, o'qitish uslubiyatiga munosabatlari haqida munosabatlar juda kam saqlangan. Ammo ushbu masalalarga munosabat ular yaratgan darsliklarida, o'quv qo'llanmalarda turli shakllarda o'z ifodasini topgan.

Usuli maddiya - dastlab XIX asrning boshlarida olmoniyalik pedagog Iogann Gerbert (1776-1841) tomonidan yaratildi. Bu usul o'qish va yozishga o'rgatishda hijo usuliga nisbatan bir muncha qulayliklarga ega edi. Bu usulga, asosan, so'zlarni harflarga bo'lib, bu harflarni so'zning eng kichik juz'i deb qaralgan va undosh harflarning nomlari aytilib, shakllari ko'rsatiladi. Alifbo tartibidagi undosh harflarning nomiga unli tovushlar qo'shib, turli bo'g'inlar hosil qilinadi. Be+o bo, te+u tu, mim+u mu va boshqalar. Muallim bu bo'g'inlarni o'qiydi, uning ortidan o'quvchilar bir necha marta, to yod bo'lib ketguncha takrorlaydilar. Shu tariqa undosh tovushga unli tovush qo'shish bilan 130 dan ortiq hijo hosil qilish mumkin. Bu bo'g'inlarni yodlab, esda saqlash o'quvchilar uchun ancha qiyinchilik tug'diradi.

Usuli maddiyaning yana bir xususiyati shundaki, unda undosh tovushlarning nomlari bir-biriga qo'shilmaydi, balki bir undosh tovushning nomiga turli undosh tovushlar qo'shib, ochiq bo'g'in hosil qilinadi. Shunga ko'ra "maddiya" "mad" so'zidan olingan bo'lib, "cho'zish", "cho'ziq" ma'nolarini bildiradi. Bu usulning idrok qilish, tushunish asosiga emas, balki ko'rish va ko'r-ko'rona yodlash asosiga qurilganligi uchun usuli savtiya metodidan ancha zaif hisoblanadi.

Shularga qaramasdan, usuli maddiyaning hijo usuliga nisbatan ijobiy tomonlari ham mavjud: o'quvchilar hijo hosil qilish yo'llarini tushunib yetadilar va keyinchalik yod olgan hijolari ishtirokida so'zlarni o'qishda qiynalmaydilar. Usuli maddiya metodi asosida Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", Abdulvahob Ibodiyning "Tahsilul alifbo", Muhammadamin ibn Muhammadkarim Hojining "Rahbari avval" Mulla Rustambek ibn Yusufbek Hojining "Ta'limi avval" alifbo darsliklari usuli maddiya asosida tuzilgan. Ular "usuli qadim", "usuli jadid" maktablarida keng qo'llangan.

Usuli maddiya metodining barcha xususiyatlari, ayniqsa, Rustambek ibn Yusufbek Hojining "Ta'limi avval" alifbo darsligida yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Masalan, alifbo muallifi darsligida (yo) unlisini olib, undosh harflar bilan qo'shib, hijolar hosil qiladi: bi, ni, di, ri, zi, ki, ub, yoki bo, to, ro, do, zo va boshqalar.

Ushbu alifbo darsligi ham Munavvarqorining "Adibi avval" alifbosi kabi o'zidan keyingi harflarga qo'shilmaydigan munfasil harflarni o'rgatishdan boshlanadi. Bu, albatta, to'g'ri yo'l edi. Chunki, bu harflar so'zning boshida ham, o'rtasi va oxirida ham bir xil shaklga ega, boshqa harflar esa turli shakllarga o'zgaradi. Buni maktabga endi qadam qo'ygan bola idrok qilishi ancha mushkul. Dastlab alif ishtirokida turli ochiq va yopiq bo'g'inlar, keyin bir-ikki bo'g'inli so'zlar hosil qilinadi.

Munfasil harflarning so'z boshida, o'rtasida va oxirida qo'llanishlari o'tib bo'lgandan keyin yozuvda so'z boshida va o'rtasida bir xil ko'rinishga (nuqtalarning soni va o'rnidan tashqari) ega bo'lib, b, p, s, t, n, i harflar ishtirokida ochiq va yopiq bo'g'inlar, bir-ikki bo'g'inli so'zlar hosil qilish o'rgatiladi. Shuni unutmaslik kerakki, A.Avloniy, Munavvarqori alifbolarida bo'lgani kabi Rustambek domla darsligida

ham berilgan ko'p so'zlar ma'no bermaydi. Ular faqat harflarning yozilishini, qo'shilishdagi ko'rinishini tushuntirishga qaratilgan. Bunday ta'limiy kamchiliklar XX asr boshlarida yaratilgan hamma alifbo darsliklariga xosdir. Buni darslikning boshida hali ko'p harflar o'rganilmagani, o'rganilgan ikki-uch harf ishtirokida so'z topish ancha murakkablikni vujudga keltirishi bilan izohlash mumkin.

Hamma harflar, ularning turli o'rinlardagi shakllari o'rganilib bo'lingandan keyin fatha, kasra, zamma, tashdid kabi harakatlar va ularning qo'llanishi tushuntiriladi. Alifbo qismining oxirida yozilishi bilan o'qilishi o'rtasida farq qiluvchi so'zlar beriladi.

Ushbu usuli maddiya Qozon tatarlari tomonidan tuzilgan alifbo darsliklari orqali o'zbekcha o'qitish tizimiga ham kirib keldi.

Usuli savtiya – zamonaviy o'qitish usuli ekani. Ismoilbek Gaspiralining yaqin hamkori, "Tarjimon" gazetasida ham faoliyat ko'rsatgan "usuli savtiya" maktablarining Qrimdagi tashkilotchilaridan Hasan Sabriy Ayvazov 1906-yilda "Usuli tadris va ta'lim-tarbiya" nomli metodikaga oid asar yaratdi. U "Usuli savtiya" ismindanda anglashildig'i kabi savtiy usul demakdur. "Qor" kalimasini chujuqlara go'stirajaqda" "qof", "alif", "ro" demayub, "q", "o", "r" deya go'stirmalidur. "Usuli savtiya"ya daha ziyoda bilmak orzu edan afandilar "atarjimon" muharriri Ismoil Bek ta'lifkardasi o'lan "Xo'jai Sibyon"a murojaat etmalidurlar. "Xo'jayi sibyon"da har darsning avvalinda "Muallimlarga nasihat" sarlavhasi ostinda bir toqim ma'lumot va ixtiro go'stirilmishdur. Orzu edanlar tadoruk etsunlar. "Xo'jayi sibyonning qoidalaridan birisida o'ttiz ikki harf bir karrada go'stirmiyub, harflari bir toqim darslarga taqsim edilur. Bu soyada muvtadiy chujuqlar 32 harfi o'n darsda harflarning qochar shaklda yozildig'ini va qulayliqla o'qilmasini o'rganiyilur.

Asl "usuli savtiya" ila harf go'stirmek Imom A'zam Abu Hanifa hazratlari ila islom muarrix, mashhur Abdurahmon ibn Xaldun o'lmishlar esa-da, madrasalarimizdan usuli tadris raf'i o'lindig'i kabi maktablarimizdanda "usuli savtiya" g'oyib edilmishdir. Oxiran, yana ashobi aql va g'ayrning sa'yila maydona gelmish esa-da, hanuz lozimi kabi ta'lim va intishor edilmadigina jiddiyad taassuf edilur" deydi.

Ushbu soʻzlardan maʼlumki, “usuli savtiya” metodi uzoq tarixga ega. Ammo XVI asrdan boshlab usuli savtiya metodi oʻqitish tizimidan olib tashlangan, faqat quruq yodlashga asoslangan usuli hijo asosiy oʻqitish metodi sifatida qolgan.

Usuli savtiya - tovush metodi tovushning grafik belgisi harf yordamida savodga oʻrgatiladi. Shuning uchun u tovush-harf metodi deb yuritiladi. Ushbu metodda dastlab soʻz tovushlarga, harflarga boʻlinib, tahlil qilinadi. Soʻzni tovushlarga boʻlish va ularni oʻqish orqali oʻrganilayotgan tovush - harflar oʻquvchilarga tanishtiriladi. Bu metod Yevropada birinchi bor XVI asrda polyak pedagogi Valentin Ikalzamer tomonidan ishlab chiqildi. Ammo katolik mutaassibli bu metodning amalda qoʻllanishiga imkon bermadi. Ikki asr oʻtgach, Shvetsariyalik pedagog Iogann Genrix Pestolitstsi (1746-1827) tovush metodini amaliyotga tatbiq etdi. Bu usul talabiga koʻra oʻquvchilarga dastlab harflarning “alif, be, te, se, jim..” tarzidagi nomlari emas, balki harflarning “a, b, t, s, j, q)” tarzidagi savtlari, yaʼni ular ifodalaydigan tovushlari oʻrgatiladi.

Bu usulda oʻqitishga oʻrgatishdan oldin oʻquvchilarni bir oz tayyorlash kerak boʻladi. Buning uchun jummalarni soʻzlarga, soʻzlarni hijolarga va hijolarni tovushlarga ajratishga oʻrgatiladi. Masalan, oʻqituvchi “Men kitob oʻqidim” jumlasini har bir soʻzdan keyin toʻxtab-toʻxtab oʻqiydi va bu jumlada 3ta soʻz borligini tushuntiradi. Soʻngra oʻqituvchi “men”, “ki-tob”, “oʻ-qi-dim” tarzida ushbu jumladagi soʻzlarni hijolarga ajratdi. Keyin har bir hijoda nechtdan tovush borligini tushuntiradi. Shu zaylda soʻzlarni hijolarga, hijolarni tovushlarga ajratib, tovushlarning yozuvdagi belgilari - harflar bilan ifodalashni tushuntiradi. Soʻzlarni hijolarga, hijolarni tovushlarga ajratishni usuli savtiyada “tahlil usuli” deb yuritiladi.

Bu oʻrinda 6-7 yoshli bolaning tushunishi ancha qiyin boʻlgan bir jarayon mavjud: arab yozuvidagi oʻzbek imlosida harf bilan ifodalanmaydigan juda koʻp qisqa unlilar mavjud, ular koʻp hollarda harakatlar bilan ifodalanadi, nastaʼliq xatida esa harakatlar umuman qoʻyilmaydi.

Oʻquvchilar tahlil usulini yaxshilab oʻrganib, olganlaridan keyin tovushlardan hijolar, hijolardan soʻzlar yasashga oʻrgatiladi. Shunday qilib, tovushlarni harflar

savtiga qo'shib hijolar va hijolarni bir-biriga qo'shib, so'zlar hosil qilishga o'rgatiladi. Bu usuli savtiyada "tarkibi usuli" deb yuritiladi.

Dars davomida o'rgatilgan harflar bilan tuzilgan har bir so'z, albatta, o'quvchilarga yozdiriladi va shu bilan o'quvchilarni yozuvga ham o'rgatib boriladi. Demak, usuli savtiya metodida o'qish va yozish bir-biri bilan bog'liq holda baravar olib boriladi. Shuning uchun yozilishi osonroq harflar mumkin qadar oldinroq hamda shakllari bir-biriga o'xshash harflar ketma-ket darslarda o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi qaysi harfni tushuntirayotgan bo'lsa, keltirilgan so'zlari oldin o'tilgan harflardan tashkil topgan bo'lishi kerak. O'quvchilar lug'at boyligini yangi so'zlar bilan mukammallashtirish jarayonida har bir o'rganilayotgan so'zning ma'nosini, qo'llanish o'rnini puxta o'zlashtirishga alohida e'tibor beriladi.

Tahlil va tarkib usullarining o'ziga xosligini muhokama qilish. Yangi usul maktablari – musulmon maktablarining ta'lim usuli va dasturlarini isloh qilib, bolalarga ona tilida xatsavod o'rgatgan va yangilik g'oyalarini ilgari surgan o'quv yurtlari, dastlab Qrimning Boqchasaroy shahrida 1884-yil ma'rifatparvar Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan tashkil etilgan va u "usuli savtiya tadrijiya" ("rivojlanuvchi tovush usuli") maktabi bo'lgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda tijorat va sanoatning rivojlanishi bu sohalarni boshqara oladigan shaxslarni yetishtirish ehtiyojini tug'dirdi. Ko'p asrlik maktabxonalar yoshlarga zarur dunyoviy bilim va ko'nikma bermas edi. Shuning uchun yangi usulda ta'lim beradigan maktablar ochila boshladi. 1893-yil Buxoro amiri Abdulahadxon ruxsati va Mo'minxo'ja Vobkendi va g'ijduvonlik Domla Fozil sa'y-harakati bilan dastlabki yangi usul maktabi ochildi. O'zbekiston hududida keyingi Yangi usul maktablari 1898-yil Qo'qonda Salohiddin domla va Samarqanddagi paxta zavodi huzurida tatar muallimlari tomonidan ochilgan (o'zbeklar bu davrda bunday maktablarni "no'g'oy maktab" deb atagan). 1900-yildan boshlab Toshkentda jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Munavvarqori Abdurashidxonov, Samarqandda Abduqodir Shukuriy (Shakuriy) tashkil qilgan Yangi usul maktablari ish boshlagan. Bunday maktablar Andijon va Namanganda, Xiva xonligida ham ochilgan. 1908-yil Buxoroda A. Burhonov tomonidan tashkil etilgan boshqa yangi usul maktabi ko'p o'tmay yopib qo'yilgan.

Yangi usul maktablarida maktabxonadagi yakka o'qitish usulidan sinfda dars berish usuliga o'tildi, sinflarda geografiya xaritalari, globus va boshqalar ko'rgazmali qo'llanmalar paydo bo'ldi. Yangi usul maktablarida xatsavod bolalarning ona tilida tovush usuli – usuli savtiya o'rgatilgan. Maktablar asosan 1-, 4 – sinfdan iborat boshlang'ich maktablar bo'lgan. 1913-1914-o'quv yilidan ayrim joylarda 2 bosqichli tizim joriy qilina boshlandi. Bu tizimdagi maktablar namuna maktablari deb atalib, ularning 1-bosqichi tahziri (boshlang'ich) sinflar, 2-bosqichi rushdiy (yuqori) sinflar deyilgan. Xususan, M.Abdurashidxonovning namuna maktabi, A. Shukuriyning Samarqanddagi va A. Ibodiyevning Qo'qondagi maktabida rushdiy (yuqori) sinflar (5 – 6 sinf) ham ish boshlagan.

Yangi usul maktablari uchun maxsus binolar qurilmagan. Ular xususiy bo'lib, ko'p hollarda maktab uchun muallimning o'z uyidan yoki biron bo'sh turar joy binolaridan hamda ba'zi shaxslarning tashqi hovlilaridan foydalanilgan. Chor hukumati amaldorlari bunday maktablar milliy madaniyatning o'sishiga yordam berishidan cho'chib, podsho hokimiyati uchun xatarli deb hisobladilar. Shuning uchun ularning faoliyatini bo'g'ib qo'yadigan turli tadbirlar ko'rildi. Xususan, 1911-yilda mahalliy millat maktablarida (rus-tuzem maktablaridan tashqari) o'quvchilar qaysi millatdan bo'lsa, muallimlar ham shu millatdan bo'lishlari lozim degan qaror qabul qilindi. Shu qaror asosida tatar muallimlari ishdan bo'shatilib, bir necha o'nlab yangi usul maktablari yopib qo'yildi. Yangi usul maktablarining biron joyda rasmiy tasdiqlangan yagona o'quv rejasi, dasturi bo'lmagan. Darslar muayyan maktab rahbari va muallimlari tomonidan tuzilgan o'quv rejasi va darsliklar asosida olib borilgan. Masalan A. Shakuriy o'z maktabining 1- va 2- bosqich sinflari uchun o'quv dasturi va rejasini Behbudiy bilan birgalikda tuzgan. Yangi usul maktablarida dunyoviy fanlar bilan bir qatorda diniy darslar ham o'qitilgan. Alifbe kitobi bilan "Alifboyi Qur'oniy" ham o'rgatila boshlangan. Dunyoviy fanlardan fizika, kimyo, geometriya, arifmetika, geografiya, ayrim maktablarda 4-sinfdan rus tili ham o'qitilgan. Rus tilidan imtihonlar Toshkentdagi 2 bosqichli rus-tuzem maktabida o'tkazilgan va o'quvchilar bilimi 5 balli tizim asosida baholangan. Yangi usul maktablarimda yuqori sinflar uchun fizika, kimyo, geometriya kabi o'quv fanlaridan

o‘zbek tilida darslik, o‘quv qo‘llanmalari bo‘lmagan. Muallimlar bu fanlar bo‘yicha tatar, turk tillarida nashr qilingan qo‘llanmalardan foydalanishga majbur bo‘lganlar. Ayrim muallimlar o‘zlari darsliklar yozib, shu asosda ta’lim berganlar. Saidrasul Saidazizov “Ustodi avval” (1902), Behbudiy “Risolayi asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiya umroniy” (1905), Munavvarqori “Adibi avval”, “Adibi soniy” (1907), Abdulvohid Burhonov “Rahbari xat” (1908), Avloniy “Birinchi muallim” (1910), “Ikkinchi muallim” (1912), Rustambek Yusufbek o‘g‘li “Ta’limi avval”, A.Ibodiyev “Tahsilul alifbo” darsliklarini yozib nashr etishdi.

Yangi usul maktablari uchun hukumat hech qanday yordam bermagan. Maktablar bolalarning ota-onalaridan har oyda olinadigan mablag‘ hisobiga ishlagan, muallimlarga ham shu hisobdan maosh to‘langan. Yangi usul maktablarida may oyi oxirlarida ota-onalar va mehmonlar ishtirokida imtihonlar o‘tkazilgan. Imtihonda bolalar Qur‘on suralarini yod aytishni, o‘zbek tilidan o‘qish va yozishni, hisobdan 4 amalni o‘rganganliklarini namoyish qilganlar. Yangi usul maktablari zamonaviy o‘zbek milliy maktablarining ilk bosqichi bo‘lgan. Bu maktablar tajribasi asosida faqat alifbe va o‘qish kitoblarigina emas, o‘zbek tilining qonun qoidolari yoritilgan “Turkcha qoida” va “Imlo” kabi dastlabki o‘quv qo‘llanmalari yaratilgan. 1918-yilgacha O‘zbekiston hududida 104ta Yangi usul maktablari bo‘lib, ularda 10343 nafar bola o‘qigan. Yangi usul maktablari 1918-1919-o‘quv yilidan davlat maktablariga aylantirilib, xalq maktablari nomini olgan.

Usuli jadid maktablari uchun Munavvarqori tuzgan yo‘riqnomaning ahamiyati. Munavvarqori Abdurashidxon o‘gli usuli jadid maktablari muallimlari uchun maxsus yo‘riqnoma ishlab chiqdi. Unda:

1. Maktabga qabul qilingan bola 8-1- yoshda bo‘lishi kerak.
2. Ibtidoiy sinfga yilda bir marta - o‘quv yili boshida qabul qilinadi.
3. Muallimlar har bir sinf uchun talabalarning ismi shariflari yozilgan maxsus daftar yurgizmoqlari kerak.
4. Muallim har bir talaba ismi sharifi ro‘parasiga mavjudlik, mavjudmaslik, darsni qay darajada o‘zlashtirishi, tartibni buzganligi haqida maxsus belgilar qo‘yib borishi lozim.

5. Har kuni ertalab dars soat 8. 30 da boshlanib, soat 15.00 da tugatilishi kerak.
6. Muallimning ruxsatisiz, yoki uzrli sababsiz dars qoldirilmasin.
7. Har soat darsdan so‘ng o‘n daqiqalik tanaffus zarur.
8. Har soatlik darsni 50 daqiqa qilib belgilash maqsadga muvofiqdir kabi 16ta talablar berilgan.

Bundan tashqari talabalar bo‘ysunushi shart bo‘lgan 11ta moddadan iborat “Nizomnoma”ni ham ilova qildi. Ulardan ba’zilari quyidagilar.

1. Shogirdlar o‘z vaqtida maktabga kelishlari shart.
2. Bemorligi yoki biror uzrli sabablari bo‘lmagan hollarda dars qoldirish man etiladi.
3. Maktabda, darsda va darsdan tashqari vaqtlarda ovozini ko‘tarib gapirish ta’qiqlanadi.
4. Muallimning ruxsatisiz biror tarafga ketish yoki biror ish bilan mashg‘ul bo‘lish man e‘tiladi kabi.

Har bir o‘quv yili uchun maxsus darslik kitoblar belgilangan: 1- o‘quv yili uchun Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval”, ikkinchi sinfda Ali Asqar Bayramali Kalininning “Adibi Soniy”, 1907-yildan e’tiboran Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi Soniy” darslik kitoblari; 2-o‘quv yilida Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi Soniy”, A.Avloniyning “Ikkinchi muallim”; 3-o‘quv yilida Mo‘minjon Muhammadjon o‘g‘lining “Nasoyih ul-atfol” (“Bolalarga nasihatlar”) biri juzi o‘qitilgan. 4-o‘quv yilida Mulla Ahmadxo‘ja Eshonning “Nasoyih ul-atfol”, ifodali o‘qish, qiroat darslari uchun A.Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” o‘qish kitobining birinchi va ikkinchi juzlaridan foydalanilgan. 5-o‘quv yilida A.Avloniyning “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” o‘qish kitobining uchinchi va to‘rtinchi juzlari, ”Sabzavor” majmuasida, “Turkiston viloyatining gazetasi”, ”Sadoyi Turkiston” gazetalarida faol ishtirok etgan, jaholatni, mutaassiblikni keskin fosh qiluvchi, zamonaviy ilm-ma’rifatga da’vat etuvchi Kamiy, Avloniy, Tavallo, Sidqiy, Miskin, Fikriy, Hamza kabi zamonaviy shoirlarning sara she’rlaridan foydalanilgan. Shu nuqtayi nazardan Munavvarqori yuqorida nomlari tilga olingan jadid shoirlarini birinchi bo‘lib, maktab darsliklariga olib kirdi.

Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li ham ba'zi hollarda, mutaassiblar, eski maktab tarafdorlari - qadimchilarning ta'qib va tazyiqlariga yon berishga majbur bo'lgan. U maktabiga bir muncha vaqt asosiy o'quv predmeti sifatida gimnastika-badantarbiya predmetini kiritgan. Ammo ba'zi bir mutaassiblar qutqusiga berilgan ota-onalar "o'g'limizni soldatlikka tayyorlayabdi" degan qo'rquv bilan bolalarini maktabdan qaytib ola boshlaydilar. Munavvarqori ushbu predmetni jadvaldan vaqtincha olib tashlashga majbur bo'ladi.

Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan tuzilgan yo'riqnoma nafaqat talabalar uchun, balki jadid pedagoglari uchun ham tuzilgan o'z davrining mukammal yo'riqnomasi edi. Bu bilan Turkistondagi jadid maktablarida tartib-qoida, ilm olish va berish mashg'ulotlari tartibga solindi.

Darslarning turlari: axloqiy va fanniy darslar. XX asr boshlarida jadid maktablari uchun ham ko'proq Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li zimmasiga tushdi. Darsliklar yaratish pedagogika ilmini chuqur bilish, o'qitish metodlaridan keng ko'lamda ma'lumotga ega bo'lish bilan birga, ilmning turli sohalaridan, ayniqsa, psixologiya ilmidan katta bilimga ega bo'lishni talab qilar edi. Munavvarqori aynan shunday pedagoglardan edi. U 1907-1920-yillar orasida o'nga yaqin turli fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratdi.

Munavvarqorining "Adibi soniy" darsligi "usuli jadid" maktablarining ikkinchi sinflari uchun o'qish kitobi sifatida yaratildi. Muallif darslikning muqaddimasida quyidagilarni yozadi: "Maktabi ibtidoiyya shogirdlarina alifbodan so'ng (ikkinchi sinfda) o'qitmak uchun mumkin darajada ochiq til va oson tarkiblar ila yozilmish qiroat kitobidir". Ushbu darslik 1907-1916-yillar oralig'ida besh marta nashr qilindi. Darslik ikki yo'nalishdan tashkil topgan.

1. Ahloqiy darslar. 2. Fanniy darslar.

Har qaysi "fanniy dars"ga muallif metodik tavsiyalar, ko'rsatmalar beradi, ko'rgazmali vositalardan foydalanish masalasiga o'qituvchilar e'tiborini qaratadi. "Ushbu darslarni bir kurrayi masna" yoki xaritalardan ko'rsatub, dengiz va qit'alarni tushundurmak muallim afandilarining vazifayi lozimalaridir" ("Adibi soniy" 10-bet) deydi.

Munavvarqori har bir dars uchun berilgan nasriy matndan keyin qissadan hissa chiqarib, nazm rukni ostida, axloqiy mazmundagi nasriy matnga mos keladigan she'rlar beradi. Masalan, 3-darsda "Ilm" nasriy matnda ilmning inson hayotidagi ahamiyati, bolalarning ilm egallashi shart ekanligi haqida gapirib, shunday she'riy hissa beradi:

Ilmdur dunyoda eng yaxshi hunar,
Ilmsizdan yaxshidur gung ila kar.

Har kishi ilm-la bo'lsa oshni,
Izzat-u davlatda bo'lg'ay doimo.

Ilmsiz odam zalil-u xor o'lur,
Ilmsizdin hama bezor bo'lur.

(“Adibi soniy”, 5-bet)

“Ahloqiy darslar” rukni ostida ta'lim-tarbiyaga oid bir qancha bolalarbop matnlar berilgan.

“Adibi soniy” o'qish kitobidagi “Fanniy darslar” uchun berilgan matnlar bir muncha siyrakroq bo'lib, ilm-fan haqidagi bolalarbop matnlar berilgan. “Ahloqiy darslar” bilan “Fanniy darslar” almashinib turadi. Muallif fanga oid hodisalarni o'quvchilarbop misollar bilan tushuntirishga alohida e'tibor beradi. Masalan, “fanniy darslar” rukni ostida berilgan “Havo” matnida havoni shunday tushuntiradi. Dunyo yuzi “havo” ismlik bir jism ila to'la bo'ladur. Suv ila to'lg'on bir hovuz ichida suv kirmag'on hech bir o'rin qolmaydir. Shunga o'xshash dunyo yuzida ham havo kirmagan bo'sh o'rin yo'qdir. Havo o'zi rangsiz, tiniq, yumshoq bir jism bo'lg'onlig'i uchun bizim ko'zimizg'a ko'rinmaydur. Bir yelpig'ich ila kishi o'zini yelpisa, yuzig'a sovuq bir narsa kelib tegadur. Mana shu yuzga tekkan narsa yelpig'ichning harakati ila qimirlag'an va to'lqinlang'an havodur. Bir olmaning dumidan ip boylab, boshdan tez aylanturulsa, “g'uv-g'uv” degan bir tovush chiqadur. Mana bu tovush olmadan chiqqani yo'q. Balki shul olma ila havoning bir-biriga

tegmoq va suykalmog‘idan paydo bo‘lg‘on tovushdir..” (“Adibi soniy”, 46-bet).

“Ahloqiy darslar” rukni ostida ta’lim-tarbiyaga oid bir qancha bolalarbop darslik kitoblar yaratishda Abdulla Avloniyning ham xizmati katta bo‘ldi.

A.Avloniy 1906-yildayoq Mirobid mahallasida yangi usuldagi maktab ochadi. uning bu maktabida diniy bilimlar bilan bir qatorda bir qator amaliy fanlardan ham saboq berilardi. A.Avloniy bolalarning axloqiy tarbiyasiga alohida e’tibor beradi va shu sababdan o‘z maktabida “axloq” darsini o‘ta boshlaydi. Avloniy Turkiston maktablarida axloq – odob to‘g‘risidagi bilimlar berilishi lozimligini quyidagicha tushuntiradi: “...Turkiston maktablarida o‘z shevamizda yozilishi mukammal “axloq” kitobining yo‘qligi ofrodi millatining shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanligi o‘zim muallimlar jumlasidan bo‘lganligimdan manga ham ochiq ma’lum bo‘ldi. Shuning uchun ko‘p vaqtlar tajriba so‘ngidan adibi muhtaram shayx Sa’diy usulida yozmoqni, garchi og‘ir ish bo‘lsa–da o‘zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq va bu kamchilikni orodin ko‘tarmakni munosib ko‘rdim”.

Pedagog maktablarda “axloq” darslarini tashkil qilishni o‘z zimmasiga olgan holda, 1913-yilda “Turkiy guliston yoxud axloq” nomli ta’lim – tarbiya masalalarini chuqur bayon qiluvchi asar yaratadi. Uning bu asarida xulqiga qarab kishilarning ikkiga bo‘linishlari (“yaxshi xulq” va “yomon xulq”), tarbiya turlari, tarbiyani to‘g‘ri tashkil etish va boshqa qimmatbaho fikrlar berilgan. Jumladan, A.Avloniy tarbiya sarlavhasi ostida tarbiya turlariga alohida to‘xtalib, tarbiyani to‘rt turga bo‘ladi: tarbiyaning zamoni; badan tarbiyasi; fikr tarbiyasi (aqliy tarbiya); axloq tarbiyasi.

Abdulla Avloniy tomonidan tarbiyaning yuqoridagi tartibda aniqlanishi uni bolalarga xos xususiyatlardan chuqur xabardor ekanligidan darak beradi. U “Tarbiyaning zamoni” mavzusidagi bolalarga tug‘ilgan kunidan boshlab tarbiya berish zarurligini hamda tarbiyani to‘g‘ri tashkil qilish uchun tarbiyachi, ota – ona, muallimlarning o‘zlari ham tarbiyalangan kishilar bo‘lishi lozimligini qayd qilib o‘tadi. “Badan tarbiyasi” mavzusida insonning salomat bo‘lishi uchun hamisha badan tarbiyasi zarurligini ko‘rsatib, “... o‘qimoq, o‘qitmoq va o‘rganmoq uchun insonga kuchlik kasalsiz jasad lozimdur”, – deydi. Qolgan ikki – aqliy va axloqiy tarbiya mavzularida esa A.Avloniy o‘qitishda ta’lim – tarbiyaning birligiga, tarbiyada esa

o'qituvchilarning ibrat – namunasiga ahamiyat berish shartligini ta'kidlab o'tadi.

A.Avloniy ham o'sha davriy faoliyat ko'rsatgan boshqa ziyolilar qatori tashkil qilgan maktablari uchun darsliklar ham yozadi. Uning "Birinchi muallim" va "Ikkinchi muallim" kabi darsliklari shular jumlasidandir. Bundan tashqari A.Avloniy o'z zamondoshlari orasida pedagogika fanini birinchi bo'lib tilga olgan va o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida pedagogika "Pedagogika" – bola tarbiyasining fani demakdir, deb to'g'ri ta'rif bera olgan buyuk pedagog hamdir. Shu jihatdan ham uni o'zbek pedagogikasi taraqqiyotini yuqori bosqichga ko'targan olimlar qatoriga kiritisa bo'ladi.

Jadidlar orasida dastlabki paytlarda sovet hokimiyatiga xayrixoh bo'lib, lekin tez orada o'zlarining bu hokimiyat to'g'ridagi fikrlari xatoligiga iqror bo'lishib, to'g'ri yo'lga kirib olgan ziyolilar ham mavjud edi. Bunday ziyolilarga Xo'ja Xoniy, Hasan Qori, Salimxon Tillaxoniy, Mir Geydilarni kiritish mumkin.

Jadid maktablarning vujudga kelishi. Jadidlar tuzgan maktablarda aholiga ilmiy – ommabop bilim berish muhim pedagogik vazifa hisoblanar edi. Shu bilan birga bu maktablardagi bilimlar sodda va tushunarli holda ifoda etilardi. Bu maktablarda diniy bilimlar bilan birga hayotda eng zarur bo'ladigan ilmiy bilimlar, ya'ni ona tili, riyoziyot, jug'rofiya fani, asosan o'lkashunoslik materiallari asosida o'rganilardi. Bolalar intizomiga jadid maktablarida alohida e'tibor berilar, bolalarga ta'lim – tarbiya berishda dinning tarbiyaviy ahamiyatidan samarali foydalanilar edi. Katta moddiy qiyinchiliklarga qaramasdan iqtidorli bolalar tahsil olish uchun chet ellarga yuborilardi.

Jadid maktablarida amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya ishlari milliy maktab yaratish va unda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishda bo'lajak o'qituvchilarimiz uchun dasturul amal vazifasini bajaradi.

4- AMALIY MASHG'ULOT:
JADID PEDAGOGIKASINING YETAKCHI NAMOYONDALARI VA
ULARNING TA'LIM ISLOHIGA DOIR FAOLIYATI

REJA:

1. *Ismoilbek Gasprinskiy va Turkistonda jadid maktablari.*
2. *Is'hoqxon To'ra Ibrat va So'fizodaning "usuli jadid" rivojiga qo'shgan hisssasi.*
3. *Jadid pedagogikasining Samarqandda rivojlanishi: Siddiqiy-Ajziy, Saidahmad Vasliy, Hoji Muin va Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati.*
4. *Hamza va usuli jadid rivoji.*

Tayanch tushunchalar: *Ismoilbek Gaspirinskiy, usuli jadid, Is'hoqxon To'ra Ibrat, So'fizoda, jadid pedagogikasi, Siddiqiy Ajziy, Saidahmad Vasliy, Hoji Muin, Mahmudxo'ja Behbudiy.*

Ismoilbek Gasprinskiy va Turkistonda jadid maktablari. Jadidlar harakat ijtmoiy-tarbiyashunoslik tafakkurining alohida bir oqimi sifatida Turkistonda yashovchi xalqlar orasida shakllandi. Turkistondagi jadid (jadid so'zi arabcha "yangi usul", "yangilik", demakdir) maktablarining yuzaga kelishi mashhur qrim-tatar arbobi Ismoilbek Gaspirali nomi bilan bevosita bog'liqdir.

1851-yilda tavallud topgan Ismoilbek Gaspirali ilg'or demokratk g'oyalarni musulmonchilikning diniy asoslari bilan birlashtirish yo'lida qizg'in kurash olib bordi. Turkiy xalqlarning milliy mustaqilligi uchun kurashgan Ismoilbek Gaspirali o'z navbatda jadidchilik oqimining asoschisi sifatida dunyoga tanildi. Ko'p yurtlarda safarda bo'lgan Ismoilbek Gaspirali xalq taraqqiyoti birinchi navbatda maorifga bog'liq ekanligini anglab yetib, jamiyatdagi tub o'zgarishlarni amalga oshirishni yangi usuldagi maktab tuzishdan boshladi. Gaspirali tomonidan ochilgan yangi usuldagi maktab tez orada shuhrat qozondi. Jadid maktablarining ommaviy tus olishiga asosiy sabab I.Gaspirali tomonidan 1883-yildan boshlab nashr etila

boshlangan “Tarjimon” gazetasi bo‘ldi. Shu bilan birga Ismoilbek Gaspirali o‘zi tashkil etgan maktab uchun bir qator darslik va o‘quv qo‘llanmalari ham yaratdi.

1893-yili Ismoil Gaspirali Turkistonga kelib, chor hukumat amaldorlarini va Buxoro amiri Abdulahadni musulmon maktablarini isloh qildirishga ko‘ndirmoqchi bo‘ladi.

Ismoil Gaspirali Buxorodan so‘ng poyezdda Samarqandga borgan, undan Toshkentga kelib, Turkiston general-gubernatorligidagi, amaldorlar bilan o‘z niyat-maqсадlarini o‘rtoqlashgan. Biroq, Toshkentda uni yaxshi kutib olishmadi, loyihasi esa etiborsiz qoldirildi. 1893-yil 8-iyunda u yana Samarqand orqali Buxoroga qaytib borgan va amir bilan uchrashib, E.J.Laxzarining ko‘rsatishicha, uni yangi usuldagi bir maktab ochishga ko‘ndirgan. Ikkinchi usuli jadid maktabini 1898-yilda Qo‘qonda Salohiddin domla ochdi. Shu yili To‘qmoqda ham yangi usul maktabi paydo bo‘ldi. 1899-yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori yangi usul maktabini ochdilar. 1903-yilda, umuman, Turkistonda 102 ta boshlang‘ich va 2 ta o‘rta jadid maktabi bor edi. Bulardan 6 tasi Buxoro amirligida va 8 tasi Xiva xonligi hududida edi.

Is‘hoqxon To‘ra Ibrat va So‘fizodaning “usuli jadid” rivojiga qo‘shgan hissasi. Is‘hoqxon To‘ra Ibrat (1862-1937) - maorif va madaniyatimiz taraqqiyoti tarixida husnixatni mukammal egallagan xattot sifatida ham katta shuhrat qozondi. Bu hol uning “San’ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy” va “Jome’ ul-xutut” asarlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ibrohim Davron xabar berishicha, Is‘hoqxon zo‘r xattot, husnixatni mukammal egallagan kalligrafdir. U bu sohada yaratgan “Shoyoni bir san’ati (asari) uchun 1907-yilda katta mukofotga sazovor bo‘lgan. U (Is‘hoqxon Ibrat) ham xattoti a‘zamdur. Chunki musulmoncha xat yozmoqdin o‘n yetti nav’ yozuv birla qalam yurguzurlar. Bu osori qalamiya va aqliyasidin namunai zoti, demakki, shoyon bir san’ati o‘tgan yili 1907-yilda janob Turkiston general-gubernatoriga taqdim qilinib, shoistaligig‘a ikkinchi daraja pocho‘tnoy xalat (faxrli chopon) olgan edilar”. Mutafakkir “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat”, “Mezon uz-zamon” asarlarida ham o‘zining pedagogik ma‘rifatparvarlik qarashlarini ilgari surdi. Tarixchi olim Is‘hoqxon chet el sayohati davomida texnika va madaniyat

rivojlangan shaharlarda bo'ldi. Is'hoqxon Ibrat "jadid maktabdor" Husanxo'ja domladan qattiq ranjiydi, uning maktabini xalq bolalarini aldash uchun, ko'proq bolalarni maktabiga jalb qilib, katta daromad orttirish uchun ochilgan maktab, deb hisoblaydi. Xarakterli tomoni shundaki, Is'hoqxon Ibrat 1907-yili Toshkentga kelgan vaqtda ushbu maktabni ko'rgan va o'qituvchisi bilan suhbatlashgan. Mulla Husanxo'ja domla o'zining "Toshkent musulmon maktablari haqinda" maqolasida "usuli savtiya" metodiga asoslangan maktablarni tanqid qiladi va eski maktablarni nomiga isloh qilish — o'quvchilarni kaltak bilan jazolash usulini bekor qilish, ularni jamoa-jamoa qilib o'qitish va davomatni tartibga solish talabi bilangina chiqdi. Is'hoqxon 1886-yildayoq eski maktablarga nisbatan ilg'or bo'lgan maktab ochdi. 1906-yilda esa ikkinchi marta eski maktablardan keskin farq qilgan, qishloq bolalari uchun bepul "usuli jadid" maktabi ochdi. Bu maktabda o'z o'g'illari Abbosxon, Vaqqosxon, Fayozxonni va qizi Vasilaxonni hamda 25 nafar qishloq bolalarini o'qitdi. Maktab o'z uyida - katta, yorug', derazali xonaga joylashgan bo'lib, u yangi o'quv qurollari, asbob-uskunalari - parta, stol-stul, qora taxta (doska), bo'r, kurrai arz (globus), yangi kitoblar, darsliklar, daftar-qalamlar bilan jihozlandi, o'qish-o'qitish ishlarini o'zi tuzgan dastur asosida olib bordi. Is'hoqxon Ibrat maktabda darslik va qo'llanmalar sifatida Saidrasul Saidazizovning "Ustodi avval", Aliasqar Kalininning "Muallimi soniy", Munavvarqorining "Adibi avval", "Adibi soniy" darsliklaridan, o'zi yaratgan "Lug'ati sittati al-sina", "San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy" asarlaridan keng foydalandi. Pedagog Is'hoqxon Ibrat fikricha, maktab-madrasalarni isloh qilish bilan bir qatorda, millatni, uning ongini, tafakkurini isloh qilish kerak. Uning "Oyna" jurnalida bosilgan bir maqolasi "Millatni kim isloh etar?" deb nomlanadi.

Muhammadsharif So'fizoda faoliyatining ilk bosqichidan boshlab yangi maktablar ochdi, o'qituvchilik qildi, mutaassiblar, "usuli qadim" tarafdorlaridan bunday maktablarni mardonavor himoya qildi. U pedagogik faoliyat bilan baravar badiiy ijod bilan umrining oxirigacha shug'ullandi: unga Hamza bilan bir vaqtda - 1926-yil 27-fevralda "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni berildi. So'fizoda o'z Vataniga kelgan birinchi kunlaridanoq maorif va badiiy ijod sohasida faoliyat

ko'rsatdi. Dastlab u Namangan viloyatining Shahand qishlog'iga kelib, yana maktab ochdi va o'qituvchilik qildi. 1920-yillarning o'rtalarida So'fizoda bu maktabni shogirdi Xudoyberdi Mamanazarovga topshirib, o'zi ona shahri Chustga keladi va maorif shirkati tuzadi, badiiy ijod bilan shug'ullanadi. Vatanimiz mustaqillikka erishgach, Muhammadsharif So'fizodaning "Tanlangan asarlar"i "Istiqlol qahramonlari" rukni ostida 1999-yili "Ma'naviyat" nashriyotida bosmadan chiqarildi. Hozirda Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanidagi 1919-yilda So'fizoda tomonidan ochilgan, hozirda 33-o'rta maktab uning mo'tabar nomi bilan ataladi.

Jadid pedagogikasining Samarqandda rivojlanishi: Siddiqiy Ajziy, Saidahmad Vasliy, Hoji Muin va Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyati. **Saidahmad Siddiqiy Ajziy (1864-1927)** - 1901-yilda katta taassurot, ijodiy va ilmiy rejalar bilan Samarqandga qaytdi. U otasidan qolgan bog'ni sotib, pishiq g'ishtdan Ovrupo usulida maktab uchun maxsus bino qurdirdi. Bu jadid pedagoglari tomonidan ochilgan maktab uchun birinchi ovrupocha bino edi.

Siddiqiy-Ajziy mana shunday oliy maqead uchun 1912-yilda o'zbek va tojik tillarida "Mir'oti ibrat" ("Ibrat oynayi"), "Anjumani arvoh" ("Ruhlar yig'ini") dostonlarini yozdi. Bu asarlar usuli jadid maktablari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma sifatida yaratildi. Asarlarni Turkiston o'lkasida nashrdan chiqarish mumkin bo'lmadi, ular 1912-yilda muallifning Tiflisdagi hammaslamlari Jalil Mamadqulizoda va Aliakbar Toyirzodalarning yordamida "Mulla Nasriddin" jurnali matbaasida bosmadan chiqarildi. Har ikkala doston ilm-ma'rifatni ulug'lash, jaholatni, mutaassiblikni qoralash haqida. Saidahmad Siddiqiy o'z maktabiga mohir pedagog Ismatulla Rahmatullayev (1883-1962)ni matematika o'qituvchisi vazifasiga taklif qildi. U usuli jadid maktablari tarmog'ini kengaytirib bordi: Samarqand viloyatining turli tumanlarida yangi maktablar ochishga va o'qituvchilar tayyorlash ishlariga rahbarlik qildi.

Saidahmad Vasliy Samarqandiy - XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi Samarqand adabiy va ma'rifatparvarlik muhitining ulug' siymolaridan biri bo'lgan. Saidahmad Vasliy 1870-yil Samarqand shahar Qo'shhovuz mahallasida temirchi oilasida tug'ilgan. Yetti yasharligida otasi usta Azimdan yetim qolgan Saidahmad

onasi qo'lida tarbiyalanib, boshlang'ich ma'lumotni Mirzo Abdulhamid degan kishidan oladi va akasi usta Nurmuhammad qo'li ostida temirchilik bilan shug'ullanadi. O'tkir zehni payqagan tog'asi Abdulqosim Saidahmadni onasi bilan birga Toshkentga olib ketadi. U Ko'kaldosh madrasasida tahsil oladi.

Vasliyning ma'rifatparvar shoir bo'lib yetishishida Toshkent adabiy muhitining ahamiyati katta. Chunki u bu yerda Muqimiy, Furqat kabi shoirlarning ijodi bilan tanishadi va Toshkentdagi taraqqiyparvar shoirlar - Abdukarimbek Kamiy, Haybatulla Xislatlar ishtirok etadigan suhbatlar va mushoiralarda qatnashib, adabiy mahoratini oshirib boradi. Tog'asining vafotidan so'ng u onasi bilan birga Samarqandga qaytadi va bir yildan keyin Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasida o'qishini davom ettiradi. Vasliy Buxoroda boshqa hayot bilan to'qnashdi. O'quvchi madrasada 10-15 yillab tahsil olsa ham savodsiz bo'lib chiqardi. Chunki madrasalardagi o'qish-o'qitish ishlarida hech qanday maqsad va reja yo'q edi. Shoir ana shu muhitni o'rganib, madrasalardagi tartibsizliklar haqida maqolalar yozadi. Jumladan, "Ta'lim va bildurmakning foydaluv o'lmog'i" maqolasida "Tabiiydurkim oning (o'quvchi) aqli mushkul narsalarni bilmakdan ojizdur va qiyin so'zni anglamoqdan qosirdur. Zehni katta va og'ir iboradan shoshur, zero ki iste'dodi anga chidamas va ancha qiyin va daqiq ta'birdan qochur... Chunki maqsadi bilmak edi, bilolmadi qochdi va maqsadi bahra olmoq erdi, ololmadi. Ishda mudarris afandiga bir durust yo'l boshlamoq munosibdur, toki shogirdi andin bahra olsin..." ("Al isloh", 1917-yil, 6-son) deb mudarrislarining dars berish usullarini tahlil qilib, yo'l-yo'riq ko'rsatadi. "...Hech kim ilm holig'a boqmas, ag'niyolarga tanga va so'm bo'lsa bo'lur... Uyalmoq ham yaxshi ishdur, millat, vatan ahvolig'a boqmoq kerak", deb o'lkadagi qoloqlikdan afsuslanadi.

Vasliy Buxoroda ishlab yurgan vaqtida madrasa, maktablarning xaroblighi, mudarrislarining tajribasizligini tanqid qilgani bois tazyiqqa uchrab, Samarqandga keladi. Dastlab Shohi Zinda, keyinchalik Orifjonboy madrasalarida mudarrislik qiladi va bir vaqtda asar yozish, nashr etish bilan shug'ullanadi.

Saidahmad Vasliy taraqqiyparvar maorifchilar Abduqodir Shakuriy, Said Ahmad Siddiqiy, Qori Muhammad Rahmiy, Shokir Muxtorov va Fayoz, Ismatulla

Rahmatullayev, Hoji Muin, Orif Gulxaniy va boshqa ilg'or shoir va maorifchilar bilan ijodiy hamkorlik qilgan. Adibning Samarqanddagi hayoti eng sermahsul davrlardan hisoblanadi. U Samarqandda tanqidiy publitsistik maqolalari, she'rlari va tarjimalari bilan chiqa boshlaydi. Bunga uning "Ittihod va insof", "Madaniyat", "Bildurmak kimning gunohi?" kabi maqolalari misol bo'la oladi.

Saidahmad Vasliy o'zbek, turk, ozarbayjon, fors-tojik va arab tillarida ijod qilgan. U bu tillarda faqatgina she'r yozish bilan cheklanmaydi, balki fors-tojik, arab tillarini o'rganishga doir qo'llanmalar yozadi. Mana shuning o'zi shoirning zukko olim va zullisonayn shoir ekanligidan dalolatdir.

Shoir faqirona hayot kechirgan bo'lsa-da uning hujrasi hamisha ma'rifatparvar shoirlar, adabiyot muxlislari bilan to'la bo'lgan. U yosh iste'dodlarga ham g'amxo'rlik qilgan. Masalan, Vasliy 1918-1922-yillar Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek madrasasida muallim tayyorlash kursi ochib, unda o'zi yoshlarga dars bergan. Adabiy to'garaklar tashkil qilib, qalamkashlarga she'r yozish va adabiy mahorat to'g'risida har tomonlama ko'mak va maslahatlar berib turgan. XX asrning 20-yillarida Samarqanddagi Tillakori madrasasida uning tashabbusi bilan adabiyot to'garagi uyushtirilgan.

Hoji Muin o'z faoliyatini 1902-yilda eski an'anaviy maktabda muallimlikdan boshladi, o'qituvchilikda ancha tajriba va malaka orttirdi, lekin bu faoliyatidan qoniqish hosil qilmadi. U 1903-yili Samarqandning mashhur pedagoglari Siddiqiy-Ajziy, Abduqodir Shakuriylar yordamida Xo'ja Nisbatdor mahallasida "usuli jadid" maktabi ochdi. Xarakterli jihati shundaki, jadid maktabdorlari, shu jumladan, Hoji Muin o'z pedagogik faoliyatiga tirikchilik o'tkazish manbai sifatida qaragan emas, aksincha, hamma chiqimlar: darsliklar, o'quv jihozlaridan tortib, maktab mebeligacha maktabdorlar zimmasida bo'lgan. 1908-yilda tojik tilida "Rahnamoyi savod", o'zbek tilida Ismatulla Rahmatullayev bilan hamkorlikda "O'qitg'uvchi" nomli alifbo darsliklarini yaratdi. Har ikkala darslik o'lkaga yangi kirib kelayotgan "usuli maddiya" (cho'zish usuli) metodida yaratilgan. "O'qitg'uvchi" alifbosi 1920-yillarda savodsizlikni tugatish yillarida ham qayta nashr etilgan. Hoji Muin "Juvonbozlik qurbonlari", "Maorif qurbonlari", "To'y", "Mazluma xotin", "Qozi ila

muallim” kabi dramalarida xalqni asriy qoloqlikka, jaholatga sudrovchi, ba’zan odat tusini olayotgan ko’pxotinlilik, to’y va ma’rakalardagi isrofgarchilik kabilar va ularning fojiali oqibatlarini sahna imkoniyatlari orqali namoyish etadi. uning “Hurriyat”, “Mehnatkashlar tovushi” gazetalarida e’lon qilingan “Sho’roi islomiya va saylov”, “Kattaqo’rg’on xotiralari”, “Yurt qayg’usi”, “Namoyish to’g’risida”, “Bolsheviklar va biz” kabi publitsistik maqolalari dalildir. Hoji Muin hammaslamlari Mahmudxo’ja Behbudiy, Munavvarqori, Fitratlar kabi Turkiston Muxtoriyatini katta umid va samimiyat bilan qabul qildi.

Mahmudxo’ja Behbudiy butun faoliyatini millatni ilm ma’rifatli qilishga qaratdi, buning uchun u usuli jadid maktablari tarmog’ini kengaytirish, ular uchun o’qituvchi kadrlar tarbiyalab yetishtirish, o’quv dastur va darsliklari yaratish, o’quvchilarni o’quv qurollari bilan ta’minlash, kutubxonalar, matbaa-nashriyotlar tashkil qilish ishlari bilan muttasil shug’ullandi. 1904-1909-yillar davomida u o’zbek va tojik tillarida “Risolai asbobi savod” (1905), “Risolai jugrofiyai Rusiy” (1905), “Risolai jugrofiyai umroniy” (1905), “Kitobat ul-atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Islom tarixi” (1909) kabi darsliklarini yaratdi. Ushbu darsliklarning ba’zilari haqida qisqaroq bo’lsa-da, ma’lumot berib o’tish maqsadga muvofiqdir. Behbudiy ushbu metod zaminida Turkiston o’lkasida Saidrasul Saidazizovdan keyin birinchilardan bo’lib alifbo darsligini yaratdi va uni “Risolai asbobi savod” deb nomladi. Mahmudxo’ja Behbudiyning muhim darsliklaridan yana biri “Kitobat ul-atfol”dir. Kitobning nomlanishi haqida: ba’zi tadqiqotchilar ushbu darslikning nomlanishini “Bolalar uchun kitob”, “Bolalar kitobi”, “Bolalar uchun yozuv kitobi” shakllarda tarjima qiladilar. Bunday nomlash muallif maqsadiga ham, kitobning mazmun-mohiyatiga ham to’g’ri kelmaydi, chunki “kitobat” so’zi lug’atlarda “xat”, “maktub”, “bitik” deb tarjima qilingan. Ushbu “Kitobat ul-atfol” darsligini “Bolalar maktublari” deb tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Mahmudxo’ja Behbudiy Turkiston o’lkasida ochilayotgan usuli jadid maktablari uchun geografiya faniga oid “Kitobi muntaxabi jug’rofiyayi umumiy va namunai jug’rofiya” darsligidan tashqari yana “Madhali jug’rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”), “Muxtasari jug’rofiyai Rusi” (“Rusiyaning qisqacha geografiyasi”) darsliklarini, shu darsliklarga


ilova sifatida “Turkiston, Buxoro va Xiva xaritasi”ni bosmadan chiqardi. Behbudiyning ushbu asarlari bilan chuqurroq tanishar ekanmiz, u o‘ziga zamondosh bo‘lgan geograf olim Hoji Yusuf (1842-1924) faoliyati bilan, u yaratgan va Samarqand ko‘rgazmasida namoyish qilgan globus bilan tanishgan ko‘rinadi. Behbudiy xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni, ularning ilm olishi masalasi haqidagi fikrlarini “Samarqand” gazetasida davom ettirdi.

Hamza va usuli jadid rivoji. Hamza Hakimzoda Niyoziyning pedagogik faoliyati, u tomonidan ochilgan “usuli jadid” maktablari mustamlakachi ma’murlar - Qo‘qon uyezdi boshlig‘i Medinskiy, Farg‘ona xalq maktablari noziri Andreyev kabi kimsalarning keskin qarshiligiga uchraganidek, uning darsliklari ham senzuraning “ming bir chiyrig‘i”dan o‘ta olmagan. Bizgacha uning “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” darsliklari qo‘lyozma holida yetib kelgan. Hamza XX asr boshlarida mustamlaka Turkiston bolalarining qismati, xalqning nochor ahvoli, achchiq turmush tarzi haqida o‘ylar ekan, ularning asl sababi ilmsizlikdan, jaholatdan deb bildi: “Buxoriliklarning ilmsizlikdan kelganin shoyad o‘ylagan va aqlga solub qaragan kishi bilur”, - deydi Hamza. U “O‘qish kitobi” darsligida hamma orzu-umidlarning ro‘yobga chiqishining bosh yo‘li ilm-ma‘rifatni egalashdir, degan g‘oyani bolalar ongiga singdirishni o‘z oldiga qo‘ygan. Hamza “Qiroat kitobi” darsligining metodik tuzilishiga, bolalarbop matnlar tanlash va ularni nihoyatda sodda, jonli, obrazli ifodalar vositasida tasvirlashga alohida e‘tibor bergan, mumtoz Sharq nasriga xos saj‘dan - qofiyalashgan nasrdan keng foydalangan. Hamza o‘z faoliyatini jadid matbuoti bilan mustahkam bog‘ladi. Uning “Faqirlik nimadan hosil o‘lur?”, “Bid‘atmi, majusiyatmi?”, “Muallim afandilarimizga ulug‘ rijomiz”, “Maktabi dorul aytom”, “Iydi qurbon”, “E’tiroz” kabi maqolalari “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” gazetalarda bosildi. Ushbu maqolalarida millatni yaramas illatlardan, faqirlikdan, xurofotdan qutqaruvchi birdan-bir yo‘l ilm-ma‘rifat g‘oyasi ilgari suriladi va boy-u kambag‘al, ziyoli-yu shariat - din peshvolari qo‘lni-qo‘lga berib, yangi, “usuli jadid” maktablariga ko‘mak berishga da‘vat etadi. Hamza 1914- yilda Qo‘qonning “Shayxul islom” mahallasida yetim bolalar uchun “Dorul aytom” maktabi ochgani, maktab oldida turgan vazifalar haqida fikr yuritadi. Ushbu

maktabda o'quvchilar nafaqat bepul o'qitilgan, ular hatto hamma o'quv qurollari bilan ham maktab tomonidan ta'minlanganlar. Shuning uchun ham Hamza millatdoshlarini bu maktabga iqtisodiy yordam berishga da'vat etgan. Hamzaning bunday pedagogik faoliyati mustamlaka ma'murlarining qattiq ta'qib va tazyiqlariga qarshi kurashlar jarayonida kechdi. Hamza o'zbek adabiyoti uchun nisbatan yangi tur - nasrga qo'l urdi, «Milliy ro'mon» deb nomlangan “Yangi saodat” asarini 1915-yilda toshbosmada «Madora» kutubxonasi nashirligida bosmadan chiqardi. Hamza Hakimzoda pedagogik asarlarida o'zining ma'rifatparvarlik, maorifparvarlik qarashlarini ko'proq didaktik usullarda ifodalagan bo'lsa, “milliy ro'man” va dramalarida esa badiiy timsollar vositasida o'quvchilarga taqdim etdi.

Topshiriq:

**JADID BADIY ASARLARI TAHLILIDA TUR VA
JANRLARNING AHAMIYATINI BADIY ASARLAR MISOLIDA
TUSHUNTIRIB BERING.**



Keyslar uchun “Venn diagrammasi” asos sanaladi.

“Venn diagrammasi”

Metodning maqsadi: Venn diagrammasi-grafik ko‘rinishda bo‘lib, olingan natijalarni umumlashtirib, ulardan bir butun xulosa chiqarishga, ikki va undan ortiq predmetni (ko‘rinish, fakt, tushuncha) tahlil qilish va o‘rganishda qo‘llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylanani kesishmasidan hosil bo‘ladi.

Maqsad: ikki va undan ortiq predmet va tushunchalarni taqqoslashda, turli va umumiy tomonlarini aniqlashda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish. Venn diagrammasi-grafik ko‘rinishda bo‘lib, olingan natijalarni umumlashtirib, ulardan bir butun xulosa chiqarishga, ikki va undan ortiq predmetni (ko‘rinish, fakt, tushuncha) tahlil qilish va o‘rganishda qo‘llaniladi. Diagramma ikki va undan ortiq aylanani kesishmasidan hosil bo‘ladi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli va o‘xshash jihatlarini doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Modul bo‘yicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi:


1-keys. Jadid adabiyotidagi qaysi dramalar g‘oyaviy va badiiy jihatidan umumiylashgan?

2-keys. Mazkur dramalarning g‘oya va badiiyati jihatidan yuzaga keladigan o‘xshashlik va zidlanish o‘zida qanday pafosni namoyon etadi?

3-keys. Dramalardagi soʻz semantik strukturasidagi maʼnolarning borliqdagi narsa-hodisa, belgi va harakat-holatni qarama-qarshi tomondan atashi yoki qarama-qarshi tomondan baholashiga koʻra qanday enantiosemiya farqlanadi?

4-keys. Badiiy asar tahlilini amalga oshirilayotgan tahlilning maqsadiga koʻra necha turi bor?

5-keys. Jadid pedagoglaridan Behbudiyning: “Oʻqimoq, oʻqitmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamonaviy meros qolsun”, - degan xulosalari asoslimi?



VI. GLOSSARIY



GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Muammo Problem	(arabcha “tugun” ma’nosidagi so‘z) — bilish yoki ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelib, hal qilinishi muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan masala yoki masalalar yig‘indisi. Mavjud bilimlar bilan izohlash mumkin bo‘lmagan yangi hayotiy dalil va hodisalar majmui. Muammo kundalik hayotdagi ilmiy savol va masalalardan farq qiladi. Ilmiy masala mavjud bilimlar doirasida yechilishi mumkin. Muammoni hal qilish uchun esa yangi dalillar, ma’lumotlarni to‘plash, ularni yangicha izohlash, mavjud bilimlar doirasidan chiqib, ilmiy bilishning yuqoriroq darajasiga ko‘tarish zarur. Bilish	(Arabic for “knot”) — An issue or set of issues that arises in the process of cognition or social development and has important practical or theoretical significance to be resolved. A set of new life facts and events that cannot be explained by existing knowledge. The problem is different from the scientific question and issues in everyday life. The scientific problem can be solved within the existing knowledge. To solve the problem, it is necessary to gather new evidence, data, interpret them in a new way, go beyond the existing knowledge and raise it to a higher level of scientific knowledge. One problem in the process of learning can

	jarayonida bir muammo bir necha ilmiy masalaning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.	lead to several scientific problems.
Gipoteza Hypothesis	grekcha, "hupotesis" so'zidan olingan bo'lib, "asos", "tahlil" degan ma'noni anglatadi. Gipoteza narsa, hodisa va aloqalarning sabablari, oqibatlar haqida ilgari surilgan, ilmiy dalil va ma'lumotlarga asoslangan bo'lsa-da, haqiqatligi hali isbotlanmagan aqliy xulosadir. Gipoteza ilmiy bilish jarayonida yangi topilgan dalillar, ma'lumotlar mavjud nazariya bilan izohlab bo'lmay qolgan vaziyatda ilgari suriladi. Gipoteza ko'lamiga ko'ra umumiy va xususiy, shuningdek, qo'llanish miqyosi va hayotiy asosiga qarab, ishchi va ilmiy gipotezalarga bo'linadi.	from the Greek word hupotesis, meaning "oundation", "analysis". A hypothesis is a mental conclusion that has not yet been proven to be true, although it is based on scientific evidence and data about the causes and effects of things, events, and relationships. Hypotheses are made when new evidence is found in the process of scientific knowledge, when the data cannot be explained by existing theory. Hypotheses are divided into general and specific, as well as working and scientific hypotheses, depending on the scale of application and the basis of life.
Asosiy qism The main part	mavzu yoritib berilishi lozim bo'lgan, rejadagi asosiy	the parts where the topic should be covered and the main points

	bandlar ifoda etilishi lozim bo'lgan qismlar. U insho umumiy miqdorining 80 foizidan kam bo'lmasligi maqsadga muvofiqdir	of the plan should be expressed. It should be at least 80% of the total essay
Nazariya Theory	biror hodisani ilmiy asoslarda tushuntirib beruvchi tasavvurlar, g'oyalar va tamoyillar tizimi. Torroq ma'noda olinganda, nazariya voqelikning muayyan sohasining muhim xususiyatlari, qonuniyatlari, sababiy aloqalari, mavjudlik va rivojlanish xarakterini belgilovchi asoslar to'g'risida yaxlit, to'la-to'kis qarashni ifodalovchi ilmiy bilimlar tizimidir.	a system of assumptions, ideas, and principles that explain a phenomenon on a scientific basis. In a narrower sense, a theory is a system of scientific knowledge that represents a holistic, complete view of the essential features, laws, causal relationships, and the fundamentals that determine the nature of existence and development in a particular area of reality.
Axborot Information	xabar, ma'lumot, informatsiya.	message, information, information.
Bilim Knowledge	obyektiv borliq yoki hayotning muayyan sohasiga oid ma'lumotlar majmui	an objective being or set of information about a particular area of life
Bilimlilik Knowledge	Obyektiv borliq yoki hayotning muayyan sohasiga oid ma'lumotlarga	Possession or awareness of information about an objective being or a

	egalik yoki xabardorlik.	particular area of life.
Ilm Science	kishining o'qish, o'rganish va hayotiy tajriba asosida orttirgan bilimi, ma'lumoti.	knowledge gained through reading, study, and life experience.
Ilmiy maqola Scientific article	tanlab olingan muammoni yechishga bag'ishlangan ilmiy asar.	a scientific work devoted to the solution of a chosen problem.
Monografiya Monograph	bitta muammoni tekshirishga bag'ishlangan ilmiy asar.	a scientific work devoted to the study of a single problem.
Tezis Thesis	Ilmiy asar, maqola, doklad va shu kabilardagi asosiy g'oyalarning qisqacha va lo'nda ifodasi	A concise summary of the main ideas of a scientific work, article, report, etc.
Annotatsiya Annotation	(lotin). Kitob, maqola va shu kabilarning g'oyat qisqa mazmuni.	(Latin). Very short summaries of books, articles, etc.
Fundamental tadqiqotlar Fundamental research	tabiat va jamiyatdagi yangi hodisa va qonuniyatlarni nazariy jihatdan ochib berishga qaratilgan jiddiy ilmiy izlanishlardir.	are serious scientific studies aimed at theoretically revealing new phenomena and laws in nature and society.
Innovatsiya Innovation	ilmiy-tadqiqot yoki ixtiro natijasida yaratilgan, o'zidan oldingi shu xil tuzilmalardan ustun turadigan obyekt tushuniladi. Innovatsiya hayotiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida yuzaga kelgan yangilikdir.	an object created as a result of research or invention that is superior to similar structures before it. Innovation is an innovation that occurs in order to meet the needs of life.

Ixtiro Invention	hayot va ilmning muammolari yuzasidan taklif etilgan yangi g'oya va yechimlar majmuidan iborat bo'lib, masalani hal qilish imkonini beradi.	is a set of proposed new ideas and solutions to the problems of life and science, which allows to solve the problem.
Kashfiyot Discovery	dunyoning hodisa, xossa va qonuniyatlariga doir obyektiv mavjud, ammo mohiyati shu vaqtgacha noma'lum bo'lgan va insonning bilim darajasiga tub o'zgartirish kiritadigan qarashlar tizimi. Fan bu biz yashayotgan dunyoni anglash va uni tushunib yetishdir. Bunga muvofiq fan inson va dunyo to'g'risida obyektiv bilimlarni yaratish bo'yicha maxsus ixtisoslashtirilgan va puxta tashkillashtirilgan faoliyatni aniqlashni ham o'z ichiga oladi.	a system of views that is objective about the phenomena, properties, and laws of the world, but whose essence is hitherto unknown, and that radically changes the level of human knowledge. Science is to understand and comprehend the world in which we live. Accordingly, science includes the identification of specialized and well-organized activities to create objective knowledge about man and the world.
Adabiy quroq	bayramlar munosabati bilan amalga oshiriladigan tadbirlar sirasiga kirib, biror mavzuga bag'ishlangan asarlarni og'zaki tarzda yoddan aytish yoki biror mavzuga tegishli	as part of a series of holiday events, such as by memorizing works on a topic orally or by publishing a newspaper in a dry form from works on a particular topic.

	asarlardan quroq tarzida gazeta chiqarish yo‘li bilan yuzaga keladi.	
Ilmiy ijod Scientific creativity	obyek-tiv voqelikdagi hodisa va jarayonlar, ularning harakat va rivojlanish qonunlarining mohiyati to‘g‘risida tushuncha, ta’rif, tenglama, formula va hokazolar shaklida ifodalangan subyektiv qarashlar majmui.	a set of subjective views expressed in the form of concepts, definitions, equations, formulas, etc. about the events and processes in objective reality, the essence of the laws of their motion and development.
Fan	inson faoliyatining obyektiv borliq va inson tafakkuri hamda ruhiyat olamiga doir qarashlar tizimini ishlab chiqishga qaratilgan jabhasi.	the aspect of human activity aimed at the development of a system of views on the objective being and human thought and the spiritual world.
Ijod	insonning sifat jihatidan yangi moddiy va ma’naviy qadriyatlar yaratishga yo‘naltirilgan ruhiy va amaliy faoliyati.	the spiritual and practical activity of man aimed at creating qualitatively new material and spiritual values.
Fakultativ mashg‘ulotlar Optional classes	fransuzcha facultas – “imkoniyat”, “qobiliyat” so‘zlaridan olingan bo‘lib, umumta’lim maktablari talaba-o‘quvchilarining istak-xohishlariga muvofiq biror o‘quv fani, mavzu yoki savol yuzasidan ularning bilimlarini kengaytirish va	French facultas - derived from the words “opportunity”, “ability”, which are organized on a voluntary basis in order to expand and deepen their knowledge on a subject, topic or question in accordance with the wishes of students of secondary schools and is a non-

	chuqurlashtirish maqsadida ixtiyoriy asoslarda uyushtiriladigan va majburiy bo‘lmagan pedagogik tadbir.	compulsory pedagogical activity.
O‘quv tahlili Learning Analysis	badiiy asar matnining hayotiy va badiiy mantig‘i hamda estetik jozibasini kashf etish orqali talaba-o‘quvchilarda barkamol shaxsga xos ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyatdir.	is a scientific and pedagogical activity aimed at the formation of spiritual qualities of a harmoniously developed personality in students by discovering the vital and artistic logic and aesthetic appeal of the text of the work of art.
Adabiy konferensiya	bir yozuvchining bir yoxud bir turkum asarlari bo‘yicha alohida tayyorgarlik bilan o‘tkaziladigan adabiy tadbir	a literary event with special preparation for one or a series of works by the same author
Adabiy kecha Literary night	biror adibning tavalludi yoxud tanlangan mavzu bo‘yicha uyushtiriladigan adabiy-badiiy tadbir bo‘lib, maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Maxsus ma’ruzachilar tayin etiladi. Adabiy kechalar she’r aytish, qo‘shiq kuylash, raqsga tushish singari ko‘ngilochar ish turlari bilan birga olib borilishi mumkin.	is the birth of a writer or a literary and artistic event on a chosen topic and requires special training. Special speakers will be appointed. Literary evenings can be accompanied by recreational activities such as poetry, singing, and dancing.

Epigraf Epigraph	ijodiy ishning asosiy yo‘nalishini belgilab berishga xizmat qiladigan so‘z, ibora, jumla, maqol yoki parcha. U biror mashhur shaxsning asaridan keltirilishi ham, talaba-o‘quvchining o‘zi tomonidan aytilishi ham mumkin.	a word, phrase, sentence, proverb, or passage that serves to define the main direction of the creative work. It can be quoted from a famous person or narrated by a student.
Insho Essay	talaba-o‘quvchining muayyan mavzu yuzasidan o‘z fikr va mulohazalarini tilning grammatik qoidalariga muvofiq tarzda mustaqil yozma bayon qilish usuli.	a method by which a student independently expresses his or her thoughts and opinions on a particular topic in accordance with the grammatical rules of the language.
Tamoyil The principle	biror faoliyatning yuzaga kelishida amal qilinishi shart bo‘lgan talablarni anglatadi.	means the requirements that must be met in order for an activity to occur.
Reja Plan	insho yozishda talaba-o‘quvchining mavzu yuzasidan bilganlarini muayyan tartibga solish, ifodani chegaralash, fikrni tizim holiga keltirish vositasidir.	when writing an essay, it is a means of organizing the student's knowledge of the subject, limiting the expression, and systematizing the thought.
Dalil Evidence	talaba-o‘quvchining o‘z qarashlarini asoslash va bayon etilajak asosiy fikrning to‘g‘riligini isbotlashga	a set of data that serves to substantiate the student's point of view and to prove the correctness of the main idea to


	xizmat qiladigan ma'lumotlar yig'indisi.	be stated.
Kirish Introduction	yozma ishning zarurligi, mavzuning dolzarbligi, asosi nimadan iborat ekanligi ko'rsatilishi ko'zda tutilgan, inshoda gap nima haqda borishi izohlaniladigan ijodiy ekskurs. "Kirish" miqdori insho umumiy hajmining 10 foizidan oshmasligi kerak.	a creative excursion that explains the need for written work, the relevance of the topic, what the basis is, and what the essay is about. The amount of "introduction" should not exceed 10% of the total volume of the essay.
Ifodali o'qish Expressive reading	asarning mazmuni, muallif yoki personajlarning ruhiy holatini o'z sezimlariga ta'sir qiladigan tarzda o'qish-o'zlashtirishdir.	the content of the work is to read and master the mental state of the author or characters in a way that affects their feelings.
Xulosa Conclusion	ijodiy ish mavzusi yuzasidan bir necha fikrlarga tayanib chiqarilgan umumlashma to'xtam. Xulosa inshodagi asosiy umumlashtiruvchi fikr bo'lib, talaba-o'quvchining yozma ish faoliyati yakunini ko'rsatadi.	a generalization based on a few ideas on the topic of creative work. The conclusion is the main summary of the essay and shows the outcome of the student's written work.
Qo'pol xatolar Mistakes	talaba-o'quvchining kerakli grammatik qoidalarni bilmasligi, u yoki bu so'zning qanday yozilishi zarurligidan xabarsizligi sababli yo'l	mistakes are made because the student does not know the required grammar rules, does not know how to spell a word, and has a negative impact on

	qo'yiladigan xatolar bo'lib, inshoning bahosiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.	the value of the essay.
Qo'pol bo'lmagan xatolar Minor mistakes	talaba-o'quvchining shoshganligi, e'tiborsizligi, charchaganligi va bq. sabablar tufayli grammatik talablarga to'liq va qat'iy rioya qilolmaganligidan yuzaga kelgan xatolar bo'lib, bahoga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.	student urgency, carelessness, fatigue, etc. are errors that occur due to reasons that do not fully and strictly follow the grammatical requirements and do not adversely affect the price.
Jadid pedagogikasi Jadid pedagogy	jadid davridagi til, adabiyot va boshqa fanlarni o'qitish pedagogikasi bo'lib, o'qitishni nima uchun va qanday tashkil etishga qaratilgan, intellektual kuch va pedagogik resurs sarflagan holda, kattaroq o'quv natijalarga erishish yo'llari tadqiq etiladigan fan.	it is a pedagogy of teaching language, literature and other subjects in the modern era, focusing on why and how to organize teaching, researching ways to achieve greater educational results by spending intellectual energy and pedagogical resources.
Jadid pedagogikasining bosh maqsadi The main goal of jadidpedagogy	o'z davrining sog'lom e'tiqodli, har tomonlama yetuk, komil, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o'zga insonning tuyg'ularini anglaydigan, o'z xatti-harakatlariga javob bera oladigan shaxsini tarbiyalash.	Educating a person of his age who has healthy beliefs, is mature in all aspects, perfect, has high taste, is morally sound, mentally mature, understands other people's feelings, and can respond to his own actions.

Jadid pedagogikasining vazifalari Tasks of jadid pedagogy	talaba-o'quvchilarda o'qishga va adabiyotga mehr uyg'otish, ularni asarlarni o'qiydigan, o'qiganlarini tushunadigan va tahlil qiladigan, ularni hayot bilan bog'lab yurt taraqqiyoti uchun har tomonlama madad bo'la oladigan qilib shakllantirishdan iboratdir.	It is to instill in students a love for reading and literature, to form them in such a way that they read works, understand and analyze what they read, and connect them with life to be a comprehensive help for the development of the country.
Jadid pedagogikasining mazmuni The content of jadid pedagogy	jadid davri pedagoglarining yuksak pedagogik mahoratini o'rganish, ularning ta'lim va tarbiya borasidagi yutuqlarini sinchiklab o'rganish, bugungi kunga tatbiq etish tahlil qilish malakalarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan miqdordagi nazariy ma'lumotlardan iborat.	it consists of the amount of theoretical information necessary to study the high pedagogical skills of pedagogues of the modern era, carefully study their achievements in the field of education and training, and develop the skills of analysis of their application to today.
Ta'lim metodi Teaching methods	muayyan ta'lim mazmunining talaba-o'quvchilar tomonidan professor-o'qituvchi rahbarligida o'zlashtirilishini tashkil etishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatni anglatadi.	means a joint activity aimed at organizing the mastery of a particular educational content by students under the guidance of a professor.
Ekstrafaol usul Ekstrafaol	(extra – tashqi) axborotlar oqimi ta'lim oluvchilardan	(extra) The flow of information is outside the learner and

method	tashqarida bo‘lib, ularga yo‘naltiriladi. Talaba-o‘quvchi tom ma’noda “talaba-o‘quvchi” maqomida bo‘ladi va tashqaridan yuborilayotgan axborotlarni qabul etish bilangina shug‘ullanadi. Bu usul passiv yoki nofaoldir, negaki, unda talaba-o‘quvchi emas, balki o‘qitish tizimi faollik ko‘rsatadi	directed to them. The student is literally a “student” and is responsible for receiving information from outside. This method is passive or inactive because the teaching system is active, not the student
Interfaol usul Interactive method	(inter - aro, o‘zaro, birgalikda, act – harakat, faoliyat, tadbir) bunda axborotlar oqimini vujudga keltirish ham, yo‘naltirish ham va o‘zlashtirish ham barcha qatnashchilarning birgalikdagi faoliyati natijasida yuzaga keladi. Bu usulda talaba-o‘quvchi talaba-o‘quvchi bilan, bir talaba-o‘quvchilar guruhi boshqa guruh bilan, bularning har biri alohida yoki birgalikda professor-o‘qituvchi bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi.	(inter-, reciprocal, joint, act - action, activity, event) where the flow of information is created, directed and assimilated as a result of the joint activity of all participants. In this method, the student interacts with the student, one group of students interacts with the other group, each individually or together with the professor-teacher.
Mustaqil o‘qish	dasturda ko‘zda tutilgan,	means that the literary material

Independent study	darslikdan o‘rin olgan adabiy materialning dars vaqtida, sinfxonada talaba-o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan o‘qilishi va tahlil qilinishini anglatadi.	in the syllabus is read and analyzed by the students themselves during the lesson, in the classroom.
Sinfdan tashqari o‘qish Extracurricular activities	talaba-o‘quvchilarning o‘zlari yoqtirgan badiiy asarlarni o‘z vaqtlari hisobiga o‘qishini anglatadi.	means that students read their favorite works of art at the expense of their time.



VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қат’ият билан давом эттириб, янги босқичга кў тарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улў халқнинг иши ҳам улў, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Т.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847- sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-son qarori.

III.Maxsus adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. – T.: Ma’naviyat, 1998.
2. Antologiya pedagogicheskoy mqsl Uzbekistana. – M.: Pedagogika, 1986.
3. Axatova D.A. Prosветitelsko-pedagogicheskie vozzreniya Abduraufa Fitrata. Avtoreferat dis. kand. ped. nauk. – T., 1998.
4. Baubekova G. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi O‘rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik g‘oyalari. Ped. fan. doktori... diss. – T., 2000.
5. Baubekova G. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi O‘rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik g‘oyalari. Ped. fan. doktori... diss. – T., 2000.
6. Behbudiy Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi: B.Qosimov). To‘ldirilgan 3-nashri. – T.: Ma’naviyat, 2005.
7. Dolimov U. Jadidchilikning tamal toshi. // Jahon adabiyoti. 2010. №1
8. Dolimov U. Milliy uyg‘onish pedagogikasi. –T.: Noshir, 2012.
9. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. –T.: Universitet 2006.
10. Edib Halid. Usuli Cadid Akimi Cadidciligin Kokleri. – Yedi iklim. Atalik, 2003.
11. Gasprinskiy Ismoilbek. Hayot va mamot masalasi – T.: Ma’naviyat, 2006.
12. Hamza. To‘la asarlar to‘plami. Besh tomlik. T.5 – T., 1989.
13. Irgasheva N.A. Prosветitelsko-pedagogicheskie vzglyady Munavvara Kary Abdurashidxanova. Avtoreferat dis. kand. ped. nauk. – T., 1997.

14. Is'hoqxon Ibrat. G'azallar, ilmiy va ma'rifiy maqolalar, tarixiy asarlar (Nashrga tayyorlovchilar: Ulug'bek Dolimov, Nurboy Jabborov). – Toshkent: Zabarjad Media, 2022.
15. Ismoil Gasprinskiy va Turkiston. – T.: Sharq, 2005.
16. Jabborov N. Adabiyot va milliy ma'naviyat. – T.: Ma'naviyat, 2015.
17. Jabborov N. Ma'rifat nadir. -T.: Ma'naviyat, 2010.
18. Jadidchilik va milliy istiqlol tantanasi. – T., 2002.
19. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – T Universitet, 1999.
20. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – T.: O'zbekiston, 2008.
21. Lazzerini E. Ismail Bey Gasprinskiy and Muslim Modernizm in Russia, 1878-1914. – University of Washington. PhD, 1973.
22. Mehmet Saroy. Turk dunyosida ta'lim islohoti va Gasprali Ismoil. – Anqara, 1987.
23. Mirzaeva Z. Jadid adabiyotining Amerikada o'rganalishi. –T., 2007.
24. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2003.
25. Musurmonov R., Usarboyeva D., Otaqulov A., Kurbanbayeva N. Zamonaviy ta'lim metodlari - ta'lim samaradorligi kafolati. International scientific-practical conference on the topik of "Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages". 2022-yil fevral. 182-187 b.
26. Qosimov B., Dolimov U. Ma'rifat darg'alari. – T.: O'qituvchi, 1990.
27. Qosimov B., Dolimov U. Ma'rifat darg'alari. – T.: O'qituvchi, 1990.
28. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. va b. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Universitet va pedagogika institutlari uchun darslik. – T.: Ma'naviyat, 2004.
29. Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U. va b. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Universitet va pedagogika institutlari uchun darslik. – T.: Ma'naviyat, 2004.
30. Qosimov B.. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik – T.: Ma'naviyat, 2002.
31. Teshayev A. Boboqulov O. Yangi usul maktablarida diniy va dunyoviy fanlarning o'qitilishi (Ishoqxon Ibrat va Munavvarqori tashkil etgan maktablar misolida)// Scientific progress. 2021. № 3. 276 - 283 b.
32. Teshayev A. Boboqulov O. Turkistonda yangi usul maktablarining faoliyati (XIX asr oxiri XX asr boshlari). // Scientific progress. 2021. № 3. 270 - 275 b.

33. Zunnunov va b. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2002.

IV. Internet saytlari

1. www.ziyo-net.uz
2. www.edu.uz
3. www.litera.ru.
4. www.Philologs.narod.ru.
5. <https://majmua.tdpu.uz>
6. <https://cuberleninka.ru>



**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ulaning
malakasini oshirish tarmoq markazi "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi
kursi o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasiga**

TAQRIZ

Qayta tayyorlash va malakani oshirish kurslarining asosiy maqsadi ta'lim sifatini yanada oshirish, ta'lim jarayoniga yangi ta'lim texnologiyalarni, ayniqsa noan'anaviy ta'lim metodlarini joriy etish, jahonning yetakchi oliy ta'lim dargohlarida erishilgan yutuq va tajribalarni o'zlashtirishdan iborat.

Shu ma'noda "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi uchun tayyorlangan o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasi yuqorida sanab o'tilgan maqsad-vazifalarni to'liq qamrab olgan deyish mumkin.

"Kursning maqsad va vazifalari" qismida asosiy vazifa tarzida pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish, maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning zamonaviy usullari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish kabilarning belgilanishi diqqatga sazovordir.

O'quv dasturining 1-moduli "Lingvodidaktika" deb nomlangan. 1.1- qismida fan, fanning mohiyati, qamrovi va o'rganilish usullariga to'xtalangan. Fanning mazmuni lingvodidaktika fanining asosiy masalalari, til ta'limida innovatsion metodika, til o'zlashtirishning ijtimoiy-siyosiy va psixolingvistik omillari, til o'zlashtirishdagi muammolar, kompyuter lingvodidaktikasi kabi mavzular doirasida tushuntirilgan.

2-modul "Jadid pedagogikasi" modulida jadid pedagogikasi shakllanishining ijtimoiy-tarixiy, ma'rifiy-didaktik hamda metodik-texnologik omillari, jadid maktablarining takomil bosqichlari va tugatilish, "usuli jadid" va "usuli qadim" o'rtasidagi kurash va uning milliy metodika rivojiga ta'siri, zamonaviy milliy oliy ta'lim g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, usuli jadid maktablari rivojining hududiy o'ziga xosligi kabi mavzular doirasida modul mazmuni yoritilgan.

3- modul "Filologik ta'lim va innovatsiya" 8 ta mavzu doirasida yoritilgan: oliy o'quv yurtlarida adabiyot o'qitishning maqsadi, vazifalari va mazmuni hamda ularni innovatsion yondashuv talablariga muvofiq takomillashtirish yo'llari, jahon adabiy ta'limidagi konstruktivizm, bixevorizm, gumanizm kabi yangicha yondashuvlar, talabalarni adabiyot saboqlarida kreativ fikrlashga o'rgatish yo'llari, badiiy matn bilan ishlashning interfaol usullari, filologlarda kreativ

kompetentlikni shakllantirish kabi mavzular orqali fanning mazmun-mohiyati yoritilgan.

O'quv kursi so'ngida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, shuningdek, mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha muhim ko'rsatma va tavsiyalar o'rin olgan. O'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasini tuzishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati o'zbek olimlari qatori dunyodagi taniqli soha mutaxassislarining asarlari, shuningdek, sohaga oid internet saytlaridan foydalanilganligi ham mazkur dastur va majmuaning mukammalligini ta'minlovchi omillardandir. Xulosa qilib aytganda, "O'zbek tili va adabiyoti" o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasini ta'lim jarayoniga tatbiq etish mumkin.

*** Nejatî Demir**
G'azi universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Gazi Universitesi
Gazi Egitim Fakóltesi
Türkçe Egitimi Ana Bilim Dalı-Ankara
necatidemir522@gmail.com
Tel: 0312 2021809



**Aliisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ulaning
malakasini oshirish tarmoq markazi "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi
kursi o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasiga**

TAQRIZ

Qayta tayyorlash va malakani oshirish kurslarining asosiy maqsadi ta'lim sifatini yanada oshirish, ta'lim jarayoniga yangi ta'lim texnologiyalarni, ayniqsa noan'anaviy ta'lim metodlarini joriy etish, jahonning yetakchi oliy ta'lim dargohlarida erishilgan yutuq va tajribalarni o'zlashtirishdan iborat.

Shu ma'noda "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi uchun tayyorlangan o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasi yuqorida sanab o'tilgan maqsad-vazifalarni to'liq qamrab olgan deyish mumkin.

"Kursning maqsad va vazifalari" qismida asosiy vazifa tarzida pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish, maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning zamonaviy usullari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish kabilarning belgilanishi diqqatga sazovordir.

O'quv dasturining 1- moduli "Lingvodidaktika" deb nomlangan. 1.1- qismida fan, fanning mohiyati, qamrovi va o'rganilish usullariga to'xtalangan. Fanning mazmuni lingvodidaktika fanining asosiy masalalari, til ta'limida innovatsion metodika, til o'zlashtirishning ijtimoiy-siyosiy va psixolingvistik omillari, til o'zlashtirishdagi muammolar, kompyuter lingvodidaktikasi kabi mavzular doirasida tushuntirilgan.

2-modul "Jadid pedagogikasi" modulida jadid pedagogikasi shakllanishining ijtimoiy-tarixiy, ma'rifiy-didaktik hamda metodik-texnologik omillari, jadid maktablarining takomil bosqichlari va tugatilish, "usuli jadid" va "usuli qadim" o'rtasidagi kurash va uning milliy metodika rivojiga ta'siri, zamonaviy milliy oliy ta'lim g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, usuli jadid maktablari rivojining hududiy o'ziga xosligi kabi mavzular doirasida modul mazmuni yoritilgan.

3- modul "Filologik ta'lim va innovatsiya" 8 ta mavzu doirasida yoritilgan: oliy o'quv yurtlarida adabiyot o'qitishning maqsadi, vazifalari va mazmuni hamda ularni innovatsion yondashuv talablariga muvofiq takomillashtirish yo'llari, jahon adabiy ta'limidagi konstruktivizm, bixevorizm, gumanizm kabi yangicha yondashuvlar, talabalarni adabiyot saboqlarida kreativ fikrlashga o'rgatish yo'llari, badiiy matn bilan ishlashning interfaol usullari, filologlarda kreativ kompetentlilikni shakllantirish kabi mavzular orqali fanning mazmun-mohiyati yoritilgan.

O'quv kursi so'ngida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, shuningdek, mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha muhim ko'rsatma va tavsiyalar o'rin olgan. O'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasini tuzishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati o'zbek olimlari qatori dunyodagi taniqli soha mutaxassislarining asarlari, shuningdek, sohaga oid internet saytlaridan foydalanilganligi ham mazkur dastur va majmuaning mukammalligini ta'minlovchi omillardandir. Xulosa qilib aytganda "O'zbek tili va adabiyoti" o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasini ta'lim jarayoniga tatbiq etish mumkin.

Taqrizchilar:



P.f.d., prof. Q.Yo'ldoshev



F.f.d., prof. B.To'xliyev

**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI UCHUN
PROFESSOR NURBOY JABBOROV TOMONIDAN TUZILGAN "JADID
PEDAGOGIKASI" NOMLI FAN DASTURI VA O'QUV-USLUBIY
MAJMUASIGA**

T A Q R I Z

Oliy ta'lim kadrlarining intellektual-ma'rifiy salohiyatini va kasb malakasini oshirish, yangicha tafakkur egallashi, bugungi zamon talablariga javob beradigan mutaxassis etib tayyorlash hayotiy ehtiyojdir.

"Jadid pedagogikasi" moduli milliy ta'lim-tarbiya sohasida XX asr avvalida erishilgan yutuqlarni kompleks o'rganish, yangi usul maktablari uchun yaratilgan darsliklarni tahlil etish va ma'rifatparvar jadidlarning ilg'or tajribalaridan bugungi kun uchun zarur xulosalarni chiqarishga xizmat qiladi. Ushbu modul ta'lim-tarbiya tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishda o'qitishning milliy va xalqaro tajribasini egallash, Vatan va millat manfaatini muqaddas bilish, ilmiy-intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash masalalarini ko'zda tutadi.

"Jadid pedagogikasi" moduli uchun tuzilgan fan dasturi va o'quv-uslubiy majmuada tinglovchilarda o'qitishning eng qulay, zamonaviy metod va usullaridan ta'limning turli bosqichlarida foydalana olish bo'yicha zarur ko'rsatmalar berilgan. Jumladan, adabiyot o'qitishda kreativ yondashuvni, jadid pedagogikasini o'qitishning asoslari nimalardan iborat ekanligi, adabiy ta'limning mazmunini tashkil etadigan pedagogik unsurlar, adabiyot o'qitish samaradorligiga erishishda professor-o'qituvchining talabalar bilan, talabalarning o'zaro bir-biri bilan sherikligini yo'lga qo'yish kabi masalalar buning dalilidir.

Mazkur fan dasturi va o'quv-uslubiy majmuada "Jadid pedagogikasi"ni o'qitishda tinglovchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularni kasbiy faoliyati haqida dastlabki bilimlar bilan qurollantirish, ko'nikma va malakasini shakllantirish asoslari belgilangan.

“Jadid pedagogikasi” modulining nazariy qismida “Jadid pedagogikasi shakllanishining ijtimoiy-tarixiy, ma’rifiy-didaktik hamda metodik-texnologik omillari”, “Jadid maktablarining takomil bosqichlari va tugatilishi”, “Jadidlar – zamonaviy milliy oliy ta’lim g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi” kabi mavzular qamrab olingan. Amaliy mashg‘ulotlarda esa “Usuli jadid” va “usuli qadim” o‘rtasidagi kurash va uning milliy metodika rivojiga ta’siri”, “Usuli jadid maktablari rivojining hududiy o‘ziga xosligi”, “Ona tili va adabiyot o‘qitishda yangi usul va pedagogik texnologiyalarning qo‘llanishi”, “Jadid pedagogikasining yetakchi namoyandalari va ularning ta’lim islohiga doir faoliyati” kabi mavzular berilgan. Shunindek, tinglovchilar uchun mustaqil ta’lim mavzulari ham shakllantirilgan. Bu mavzularning qimmatli jihati shundaki, ular birlamchi manbalar asosida yoritilgan bo‘lib, tinglovchilarga yangi ma’lumotlar berishi bilan ahamiyatlidir.

Umuman olganda, Nurboy Jabborov tomonidan tuzilgan “Jadid pedagogikasi” nomli fan dasturi va o‘quv-uslubiy majmua zamonaviy adabiyotshunoslik hamda o‘qitishning ilg‘or texnologiyalari talablariga to‘liq javob beradi, uni bimalol ta’lim jarayoniga va nashrga tavsiya etish mumkin.



Ulug‘bek Dolimov,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti
professori, pedagogika fanlari
doktori

Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi uchun professor Nurboy Jabborov tomonidan tuzilgan "Jadid pedagogikasi" nomli fan dasturi va o'quv-uslubiy majmuasiga

TAQRIZ

Bugungi kunda milliy ta'lim tizimini isloh etish, XX asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan ma'rifatparvar jadidlarning bu boradagi faoliyatini o'rganib, soha rivojiga tatbiq etish har qachongidan ham dolzarbdir.

Bu yo'lda amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, mutaxassis kadrlarning kasb mahoratini muntazam ravishda oshirish, sohaga yangi pedagogik texnologiyalarni muttasil joriy etish zaruratini kun tartibiga qo'yimoqda. Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini davlat talablari asosida takomillashtirib borish shu jihatdan ham dolzarb vazifalardandir.

Mazkur fan dasturi va o'quv-uslubiy majmuada berilgan mavzular ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejasi asosida shakllantirilgan.

"Jadid pedagogikasi" modulining nazariy qismida "Jadid pedagogikasi shakllanishining ijtimoiy-tarixiy, ma'rifiy-didaktik hamda metodik-texnologik omillari", "Jadid maktablarining takomil bosqichlari va tugatilishi", "Jadidlar – zamonaviy milliy oliy ta'lim g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi" kabi mavzular qamrab olingan. Amaliy mashg'ulotlar esa 4 ta mavzuni qamrab olgan. Shunindek, tinglovchilar uchun mustaqil ta'lim mavzulari ham shakllantirilgan. Bu mavzularning qimmatli jihati shundaki, ular birlamchi manbalar asosida yoritilgan bo'lib, tinglovchilarga yangi ma'lumotlar berishi bilan ahamiyatlidir.

Ularda har bir nazariy mavzuning qisqacha tavsifi, darsni tashkil qilish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, tinglovchilarni eng muhim adabiyotlar bilan tanishtirish uchun yangi ilmiy-nazariy adabiyotlar taqdim etilgan.

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar "Jadid pedagogikasi" moduli doirasida ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajarishga yo'naltirilgani katta ahamiyatga ega. Amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim uslublari va innovatsion texnologiyalarga asoslangan hamda mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, tarqatma materiallardan foydalanishning tavsiya etilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Xullas, professor Nurboy Jabborov tomonidan tayyorlangan "Jadid pedagogikasi" nomli fan dasturi va o'quv-uslubiy majmua zamonaviy adabiyotshunoslik hamda o'qitishning ilg'or texnologiyalari talablariga to'liq javob beradi, uni bimalol ta'lim jarayoniga tatbiq etish mumkin.



Q.PARDAYEV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek
adabiyoti tarixi kafedrası professori,
filologiya fanlari doktori